T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti

# UZLUKSIZ TA'LIM

ILMIY-USLUBIY JURNAL

2022, № 5

*DJURAYEV Risbay*
**Bosh muharrir**

Jurnal 2001 yildan nashr qilina boshlangan.
O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvarda № 0101-tartib raqami bilan qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan maqolalardan iqtibos keltirilganda «Uzluksiz ta'lim» jurnalidan olinganligi ko'rsatilishi lozim.

**Tahrir hay'ati:**
*Abdug'appor QIRQIZBOYEV*
*Uzoqboy BEGIMQULOV*
*Nargiza RAXMANQULOVA*
*Xolboy IBRAGIMOV*
*Laylo AXMEDOVA*
*Roxatoy SAFAROVA*
*Leyla DJURAYEVA*
*Dono G'ANIYEVA*
*Lobar QARAXANOVA*
*Dusmurod DJURAYEV*
*Baxodir AKBAROV*

**Tahririyat manzili:**
100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34
(93)-503-52-07
e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

## TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI


3 ***A.Sh.Xolmurodov***
Nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini menejmentini joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish
8 ***B.S.Abdullayeva***
Bo'lajak o'qituvchilarning o'quv va ilmiy faoliyati motivatsiyasini rivojlantirish
12 ***K.A.Saparov, D.Erduran Avchi, M.B.Ongarov***
Talabalarining o'quv dala amaliyotini tashkil qilishining integrativ samaradorligini
19 ***G.A.Berdaliyeva***
Maktabgacha boshlang'ich ta'lim integratsiyasi modellari
23 ***I.I.Tuychiyeva***
Uzluksiz ta'limda talaba-yoshlarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashga zamonaviy yondashuvlar
28 ***M.M.Yusupov***
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda uzluksiz pedagogik amaliyotining o'rni va ahamiyati
33 ***S.A.Xodjayarova***
Uzluksiz ta'limda o'qituvchilarida kommunikativ muloqot madaniyatini shakllantirish
38 ***H.Sh.Brgimqulov***
Malaka oshirish tizimida kvest texnologiyalarini qo'llash va ta'lim uzviyligini ta'minlash masalalari
42 ***Sh.O.Toshpulatova***
Uzluksiz ta'lim tizimida bo'lajak fizika fani o'qituvchilarining mantiqiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish
47 ***Sh.B.Xasanova***
Uzluksiz ta'lim tizimida Steam yondashuvlaridan foydalanish
52 ***Sh.A.Mamajonov, N.B.Oilxo'jazoda, X.M.Jo'rayev***
Ta'lim muassasalarida kimyo o'qituvchilarining ekologik kompetentlik darajasini rivojlantirish masalalari
57 ***D.J.Xudoymurodova***
Innovatsion yondashuv asosida o'quvchilarning kommunikativ kasbiy tarbiyasini rivojlantirish
61 ***Р.Х.Джураев***
Использование презентаций в преподавании дисциплин в учебном заведении


## MA'NAVIY TARBIYA


66 ***Sh.Qobilov***
Ta'lim sohasida korrupsiyaning oldin olish
74 ***F.M.Zaripov***
Ijtimoiy-ma'naviy muhit samaradorligini baholash indikatorlari asosida xulqida og'ishi bor voyaga yetmagan o'quvchilarni aniqlash va oldini olish
78 ***С.Пирматов***
Уникальное искусство Узбекистана как феномен национальной культуры
84 ***З.Рузиева***
Развитие навыков проектного исследования у будущих учителей начальных классов


## KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT


89 ***G.A.Norimova***
Striming texnologiyalarini ingliz tili mashg'ulotlariga tadbiq qilishda o'ziga xos xususiyatlari, tamoyillari va asoslari
93 ***G.I.Shirmatova***
Professional ta'limni rivojlantirishda dual ta'limni tashkil etish yo'llari va yoshlar bandligini ta'minlash masalalari
98 ***J.G'.G'ulomov***
Pedagogning umumiy professional kompetentligini strukturasida informatsion kompetentlikning tutgan o'rni va roli haqida


## ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ – ДАВР ТАЛАБИ


102 ***U.E.Giyasova***
Malaka oshirish kurslarida aralash ta'lim texnologiyalari asosida ingliz tilini o'qitishni loyihalashtirish


## ХОРИЖИЙ TA'LIM


107 ***Z.A.Xolmatova***
Germaniyada kompetentsiyali yondashuvlariga innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish va natijalarni diagnostika qilish modeli

# NODAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM SIFATI MENEJMENTINI JORIY ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**_A.SH.XOLMURODOV,_**
*Jizzax viloyat pedagoglarini yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi direktori, iqtisod fanlari nomzodi*

*Maqolada ta'lim muassasasalari avtonomiyasining kuchayishi, ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi integratsiya, ta'limga bo'lgan ehtiyojning ortishi, ta'lim sifatni baholash va uni boshqarish, ta'limda mijoz-ya'ni, ta'lim oluvchi va ota-onalarning ehtiyojlariga yo'nalganlik masalasi, ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonlari sifat menejmentining asosiy yo'nalishlari, nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati menejmentini joriy etish mexanizmlari borasida to'xtalib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *ta'lim sifati, ta'lim sifati menejmenti, ta'lim xizmatlari, sifat nazorati va monitoringi, ta'lim konsepsiyalari, ta'lim sifatini ta'minlash.*

*В статье рассматривается усиление автономии образовательных учреждений, интегратsiя образования и рынка труда, возрастающая потребность в образовании, оценка качества образования и его управление, вопрос ориентатsiи в образовании на потребности клиента, т.е. Обсуждены учащийся и родители, основные направления управления качеством образовательных процессов в образовательных учреждениях, негосударственные механизмы внедрения управления качеством образования в образовательных организатsiях.*

***Ключевые слова:*** *качество образования, управление качеством образования, образовательные услуги, контроль и мониторинг качества, образовательные концепции, обеспечение качества образования.*

*The article discusses the strengthening of the autonomy of educational institutions, the integration of education and the labor market, the growing need for education, the assessment of the quality of education and its management, the issue of orientation in education to the needs of the client, i.e. The students and parents, the main directions of quality management of educational processes in educational institutions, non-state mechanisms for the implementation of quality management of education in educational institutions were discussed.*

***Key words:*** *education quality, education quality management, educational services, quality control and monitoring, educational concepts, education quality assurance.*

O'zbekiston Republikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5538-sonli farmoni, 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 17 yanvardagi "Xalq

ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-son qarorlarida:

– xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirishning ilg'or shakl va usullarini joriy etish, o'quv-metodik resurslarini ishlab chiqish, ta'lim dasturlarini takomillashtirish;

– umume'tirof etilgan xalqaro ta'lim standartlari va talablari, ilg'or pedagogik, axborot-kommunikatsiya va innovatsiya texnologiyalari asosida o'quv jarayonini sifatli tashkil etish;

– xalq ta'limi xodimlarini ularning malaka darajasi, bilimi, ilmiy-pedagogik salohiyati, ish tajribasi, psixologik tayyorgarligi va individual kasbiy rivojlanish traektoriyasiga mos keladigan tabaqalashgan malaka oshirish dasturlari bo'yicha o'qitish amaliyotini, malaka oshirish jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish;

– xalq ta'limi xodimlarining shaxsiy kasbiy salohiyatining individual va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda hayot davomida o'sish jarayonini qamrab olgan uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy etish kabi ustuvor vazifalar belgilanib, bu borada litsenziyaga ega nodavlat ta'lim tashkilotlariga xalq ta'limi sohasida faoliyat ko'rsatayotgan rahbar, mutaxassis va pedagog xodimlarning malakasini oshirish huquqi berildi[1;2;3].

E'tirof etish kerakki, mazkur normativ-me'yoriy hujjatlarning ishlab chiqilishi o'z navbatida nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning takomillashuviga, sohaga oid barcha munosabatlarning huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi.

Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish masalasi bugungi kundagi xalq ta'limi tizimidagi zamonaviy islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, axborotlashgan jamiyatda yuksak axloqli, ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalashda, ta'limning uzluksizligi va ehtiyojlarga yo'naltirilganligini, shuningdek, ta'lim xizmatlarini diversifikatsiyalashning yangicha mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur vazifalarni muhokama qilishda nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim sifatining baholanishi, nazorati, metodik ta'minoti, monitoringi, zamonaviy boshqaruv usullarining tatbiq etilishi, ta'limda marketing strategiyalarining rivojlanishi hamda moddiy-texnika, axborot resurs bazasi ta'minoti kabilar muhim yo'nalishlar sanaladi.

Ilmiy-emperik tahlillardan ma'lum bo'ladiki, sifat nazorati va monitoringi har bir mamlakatning ta'lim tizimi, undagi ijtimoiy-madaniy muhit, ishlab chiqarish, baholash bilan bog'liq bo'lgan tizimdan tashqari, ularni joriy etishni takomillashtirish kabi bosqichlarni qamrab oladi. Bunda ta'limdagi sifat va raqobatbardoshlikni ortishiga sabab bo'luvchi omillar sifatida siyosiy (political forces), iqtisodiy (economic forces) va ijtimoiy-madaniy (socio-cultural forces) ta'sir kuchlarini keltirish mumkin bo'ladi.

Sifat tushunchasi ta'limdan manfaatdor guruhlar va turli vakolatli tashkilotlar tomonidan turlicha qabul kilinadi.

Xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan manbalarda ta'lim sifatining uch komponenti izohlanadi:

1. Ta'lim subнektlari:

– ta'lim tashkilotchilari: (direktor/rektor, dekanat, o'quv bo'limi, kafedralar), ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi shaxslar (professor o'qituvchi, metodist, maslahatchi, laborant, dastur va o'quv adabiyotlari).

– ta'lim xizmatlaridan bahramand bo'luvchi shaxslar (talaba/o'quvchi va boshqa bilim oluvchilar).

2. Ta'limning me'yoriy hujjatlari (ta'lim konsepsiyalari va paradigmalari, o'qitish texnologiyalari, o'quv adabiyotlari, sifatli bilimlarni berish va nazorat qilish metodlari).

3. Ta'lim muhiti (ijtimoiy, madaniy, psixologik muhitlar) [5].

Yuqoridagi komponentlarga kirgan har bir qismdagi tayyorgarlik darajasi pirovardida ta'lim sifatini ta'minlaydi.

Tadqiqotchi M.Yuldashev, ta'lim sifati – bu nafaqat ta'lim oluvchilar bilimining davlat standartlariga mosligi, balki ta'lim muassasasining muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi, shuningdek, har bir pedagog va rahbarning ta'lim xizmatlari sifatini ta'minlashdagi faoliyati natijasidir. Zamonaviy ta'lim muassasasida, deydi tadqiqotchi, ta'lim sifati erishilgan miqdoriy va sifat natijalari, ta'lim jarayonini tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish darajasini aks ettiruvchi tavsiflar to'plamida ifodalanadigan maqsad va natijalarning nisbati sifatida aniqlanadi[6; 14-15 b].

MDH olimlari V.P.Panasyuk, N.V.Tretyakovalar ta'lim sifati quyidagi yo'nalishlarning o'zaro yaxlitligida aks etadi, deya izohlaydilar:

– ta'lim tashkiloti muassasasining o'z vazifalari va topshiriqlarini ma'lum darajada bajarish qobiliyati;

– kadrlar, ilmiy-uslubiy, moddiy-texnikaviy va boshqa salohiyat va resurslarni amalga oshirish hajmi, tuzilishi va to'liqligi;

– ta'lim tashkilotining rivojlanish jarayonlari dinamikasi, uning barcha tuzilmalarini pedagogik tizim sifatida takomillashtirish (maqsadli, me'yoriy, mezonli, tashkiliy, axborot, mazmunli, motivatsion va rag'batlantiruvchi) – mazkur yondashuv S.Turg'unov tadqiqotlarida ham ko'zga tashlanadi;

– ta'lim tashkiloti muassasasining jamiyat, ta'lim jarayoni ishtirokchilari tomonidan ijobiy qabul qilinishi;

– ma'naviyatni shakllantirish va intellektual resurslarni ko'paytirishda ijtimoiy-madaniy muassasa sifatida ta'lim tashkilotining umumiy roli va ahamiyati;

– ta'lim tashkiloti/muassasasining madaniyat muassasalari, ijtimoiy tashkilotlar, jamoatchilik institutlari hamda boshqa ta'lim muassasalari bilan aloqalari, kooperatsiyasi;

- ta'lim tashkiloti/muassasasining yutuqlari, turli tanlovlarda qatnashish natijalari, o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi va uning bitiruvchilari

raqobatbardoshligi;

– ta'lim tashkilotining ijtimoiy tizim sifatida rivojlanishi;

– zamonaviy yondashuvlar, texnologiyalar va tartiblarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish sifati va uning natijalari[4].

Tahlillardan ko'rinadiki, sifat maqsadlarga mos kelish darajasi sifatida hozirgi kundagi eng ko'p ishlatiladigan kategoriyalardan biri hisoblanib, bunda mahsulot yoki servislarning standartlar yoki spesifikatsiyalarga muvofiqligi (Conformance to specification or standards), sifatning maqsadga muvofiqligi (Quality as fitness for purpose), sifat mijozlarning talab va ehtiyojlariga qaratilganligini (Quality as meeting customers' stated or implied needs) muhim indikatorlar sifatida xizmat qiladi.

Ta'lim sifati esa jamiyat va shaxs ehtiyojlariga yo'naltirilganligi bilan o'ziga xos ijtimoiy va o'zgaruvchan xarakter kasb etadi.

Buning asosida hozirda xalqaro amaliyotda quyidagi beshta asosiy yondashuv ajratib ko'rsatiladi:

1. An'anaviy yondashuv quyidagicha tarkib topgan: ta'lim sifatini ta'minlash-demak, uni nufuzli qilish, bitiruvchi bir muncha yuqori pozitsiyani egallaydi.

2. Ilmiy standartlarga mos kelishdan kelib chiqadi.

3. Menejerlik yondashuvi o'zida, sifatli ta'lim deb mijoz qoniqqandagi holatni namoyon etadi.

4. Iste'molchi, bu yerda iste'molchi sifatni aniqlaydi va natijada uning har qanday istagi bajariladi.

5. Demokratik yondashuvda ta'lim muassasasi o'zi joylashgan hududga, jamiyatga foyda keltiradi[5].

Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim sifati barcha manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilganlikni, qaror qabul qilishning vositalari va usullarini, faoliyatning samaraliligini kafolatlovchi usullarini, mehnat jarayoni ishtirokchilari sa'y – harakatlarini qo'yilgan maqsadlar sari safarbar qilishni hamda jarayonning uzluksizligini ta'minlaydi.

Tahlillar ta'lim sifati menejmenti yo'nalishida turlicha yondashuvlarning mavjudligini ko'rsatdi. Bunda, sifat kafolatining baholash, audit va akkreditatsiya turlari tahlili, reyting, taqdirlash (award), asosiy natijalar ko'rsatkichi (key performance indicators), attestatsiya, ISO 9000 xalqaro standarti bo'yicha sifatni baholash kabi bir biriga chambarchas bo'lgan modellar mavjud.

Ta'lim sifati menejmenti yo'nalishidagi yana bir yondashuv bu – ENQA (European Association for Quality Assurance in Higher Education) – Yevropa oliy ta'lim sifat kafolati agentliklari assotsiatsiyasi standartlari va direktivalari talablariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, bunda ta'lim tashkilotini boshqarish va sifatni boshqarish bo'yicha barcha turdagi faoliyatlar "ta'lim sifatini ta'minlash"ga qisqartiriladi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar va olib borilgan pedagogik kuzatishlar asosida

nodavlat ta'lim tashkilotlarida pedagog kadrlar malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etishning sifat menejmenti jarayoni tuzilmasi quyidagicha belgilandi (1-rasm).

Nodavlat ta'lim tashkilotlarida pedagog kadrlar malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etishning sifat menejmenti jarayoni tuzilmasi




Shunday qilib, nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati menejmenti mexanizmlari ehtiyojlarga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni va sifatni boshqarish bilan bog'liq kompleks tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Republikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5538-sonli farmoni/ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.09.2018 y., 06/18/5538/1840-son.

2. O'zbekiston Republikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-son qarori/ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.09.2018 y., 07/18/3931/1841-son.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 17 yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-son qarori/Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.01.2022 y., 09/22/25/0033-son.

4. Касчество образования: инновационные тенденции и управление: монография / В. П. Панасюк, Н. В. Третуакова. Екатеринбург, 2018. 201 с.

5. Образование переображает жизн людей. YuНЕСКО, 2017.

6. Yuldashev M.A. Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirishda ta'lim sifati menejmentini takomillashtirish: Ped.fan.dok….diss. avtoreferati -T., 2016.

# BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING O'QUV VA ILMIY FAOLIYATI MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISH

***B.S.ABDULLAYEVA,***
*TDPU ilmiy va innovatsiyalar bo'yicha prorektori,*
*pedagogika fanlari doktori, professor,*

*Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida tahil olayotgan talabalarning o'quv va ilmiy faoliyati motivatsiyasini rivojlantirish masalalariga qaratilgan bo'lib, unda ularning ta'lim jarayonida talabaning mustaqilligi, o'zini boshqarishga, o'z imkoniyatlari, qobiliyatlari va salohiyatlarini amalga oshirishga intilishi haqidagi fikr mulohazalar yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** talabalar, o'quv jarayoni, o'quv va ilmiy faoliyat, motivatsiya, talaba ehtiyojini o'rganish, imkoniyatlarini rivojlantirish.*

*This article is focused on the issues of developing the motivation of students studying in higher education institutions and their academic and scientific activities, in which the student's independence, self-management, and the desire to realize their capabilities, abilities, and potentials in the educational process are discussed. comments are highlighted.*

***Key words:** students, educational process, educational and scientific activity, motivation, study of student needs, development of opportunities.*

Mamlakatimizda oliy pedagogik ta'limning eng muhim vazifalari talabalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularga kasbiy-pedagogik rivojlanish va o'z-o'zini takomillashtirishning individual yo'lini tanlash imkoniyatini berishdir. Ushbu muammolarni hal qilish talabalarning ta'lim ehtiyojlarini o'rganishni va ular kasbiy faoliyatning nazariy va amaliy asoslarini o'zlashtirishda duch keladigan qiyinchiliklarni aniqlashni talab qiladi.

OTMga kirishda kiruvchi tahsil oluvchi pozitsiyasidan (hozir, ayni paytda) ta'lim olayotgan shaxs pozitsiyasiga o'tadi, ya'ni uning faoliyati yoshi katta odamning faoliyatining barcha xususiyatlarini olishi talabani rag'batlantirilgan motivatsion jihatdan ta'minlashning muhim xususiyatidar. Binobarin, talabaning mustaqilligi, o'zini boshqarishga, o'z imkoniyatlari, qobiliyatlari va salohiyatlarini amalga oshirishga intilishi zamonaviy sharoitlarda OTMda tahsil otayotganlarning asosiy xususiyatlaridir. Chetdan o'rganishga hech qanday majburlashning zarurati yo'qligi sharoitida tahsil olayotganlarning mustaqilligi harakatlarning ongli rag'batlanganligi motivatsiyasi" sifatida, yaxlit o'quv faoliyatini yaratishning asosiy shartidir.

Rag‘batlantirilganlikni motivatsiyani shakllantirish va o‘quv maqsadlarini belgilashda yetakchi rol ham tahsil oayotgan shaxsga tegishli. Talabaning bilishga bo‘lgan ehtiyoji uning muayyan/konkret muammolarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoji bilan belgilanishi tufayli/sababidan, o‘quv dasturlarining amaliy yo‘naltirilganligi, ularning har bir talabaning aniq maqsadlari bilan solishtirilgnaligi/muvofilashtirilganligi OTMda o‘quv jarayonini tashkil etishning asosiga aylanadi. Demak, talabaning o‘quv faoliyatini motivatsion ta’minoti/qo‘llab-quvvatlashning asosiy xususiyatlaridan biri uning OTM o‘quv jarayonidagi pozitsiyasini/o‘rnini o‘zgartirishdir. U tahsil maqomiga/pozitsiyasiga o‘ta, va bu esa, muvofiq ravishda, uning faoliyatining ma’nosini/ahamiyatini va o‘qituvchi faoliyatining rolini o‘zgartiradi [ 1 ]

P.M. Yakobson o‘qish motivatsiyasining uch xil turini ajratib ko‘rsatadi: birinchidan, shartli ravishda "manfiy" deb atash mumkin bo‘lgan motivatsiya [6]. O‘qishning manfiy motivatsiyasi deganda olim o‘quvchining agar u o‘qimasa yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muayyan noqulayliklar va noxushliklar/qiyinchiliklarni anglashi nazarda tutadi. Bunday motivatsiya, agar uni qayta qurish amalga oshirilmasa, muvaffaqiyatli natijalarga olib kelmaydi.

Ikkinchidan, bu o‘quv faoliyatining o‘zidan tashqarida kiritilgan/singdirilgan, biro ijobiy tabiatga ega rag‘batlar/motivlar bilan bog‘liq motivatsiyadir. Bunda, P.M. Yakobson motivatsiyaning ikki shakllari haqida so‘z yuritadi – birinchisi keng ijtimoiy motivlar/rag‘batlar bilan, va ikkichisi esa tor shaxsiy rag‘batlar/motivlar bilan belgilanadi.

Uchinchidan, bu o‘quv jarayonining o‘ziga kiritilgan/singdirilgan (xos) motivatsiyadir. Bu holda, bilim olish jarayoni ma‘lum bir bilimlar, malkalarni, ko‘nikmalarni o‘rganish, o‘zlashtirishga undaydi.

O‘qishga bo‘lgan motivatsiyaning bu shakllari hech qachon sof (toza, alohida) shaklda amal qilmaydi. Aslida, o‘qish rag‘batlari/motivlari har doim murakkabroq tabiatga ega bo‘ladi.

Olimlar U. Kennedi va G. Vilkott o‘zlarining "Maqtov va tanbeh qo‘zg‘atuvchi motivlar sifatida" [7] deb nomlangan maqolalarida maqtov (ma‘qullash) va tanbeh berishning (koyishning) ahamiyatini o‘qish earayonida qo‘zg‘atuvchi (uyg‘otuvchi, turtki bo‘luvchi) rag‘batlar/motivlar sifatida maxsus tadqiq qilingan ishlarning tizimli sharhini (talqinini) berishgan. Bu mualliflar 1930-yilgacha va 1960-dan keyingi davrlarga oid asarlarni o‘rganganlar. Bu asarlarda turli maxsus guruhlardagi, turli o‘quv sinflari, odatiy/normal va qoloq bolalar haqida so‘z

yuritiladi. Bularda tahsil oluvchilarning turli xil vazifalarni: arifmetik masala/ mashqlarni bajarish va aqliy rivojlanganlik darajasini aniqlash vazifa/topshiriqlar qanday bajarganliklari o'rganilgan.

Sharhda natijalar bir-biriga zid kelganligi o'krsatiladi : ba'zi mualliflar maqtash pand berishdan ko'ra kuchliroq qo'zg'atish/turtki berish/uyg'otish deb hisoblashgan, boshqalari esa buning aksini ilgari surishgan. Masalan, sinovda ishtirok etayotgan bolalarni introvertlashtirilgan va ekstrovertlashtirilgan guruhlarga ajratishda quyidagi xulosaga kelingan: introvertlashtirilganlar maqtalganda, eksprovertlashtirilganlar esa – tanbeh berilganda yuqori darajada ijroiya darajasida mallarni bajarishgan. Olim D. Bruner [8] o'qishga bo'lgan motivatsiyani quyidagicha o'rganadi. Olim maktab o'quvchining aynan voqe/ real, yetarlicha uzoq vaqt davom etadigan jarayoni bilan bog'liq tarzda paydo bo'liadigan amaliy va nazariy muammolarni qo'yadi. Bu. avvalambor, bilish faoliyati tabiotidagi rag'batlar/motivlarining o'qish/o'rganish jarayonidagi ahamiyati va yangi narsalarni o'rganishdan ichki qoniqishning roli masalasi qo'yilishidir.

O'quv faoliyati motivatsiyasi borasida xorijda amalga oshirilgantadqiqotlarini o'rganganda, E. Kronning "Erishish va bosh tortish motivatsiyasi epistemik xulq atvorning belgilovchi ibtidosi sifatida" deb nomlangan [ 9] asarini eslatib o'tmaslik mumkin emas.

Muallif "epistemik xulq" atamasini individning o'qish, ma'ruzalarni tinglash va savollarni/muammolarniqo'yishda o'z faolligini ifodalashini nazarda tutuvchi xulq atvor xatti-harakat sifatida qo'llaydi.

Bunday xulq-atvor turli tartibdagi rag'batlar/motivlar bilan belgilanishi mumkin. Blar bilimlarni egallashning bevosita maqsadiga tashqi bo'lgan rag'batlar/ motivlar bo'lishi mumkin. O'z ishi uchun yaxshi baho olishga, hurmat qozonishga bo'lgan intilish bunday rag'batlar/motivlar uchun misol bo'lishi mumkin.

O'qishning bu turi o'qish faoliyatining o'zida yotadigan "ichki" rag'batlar/ motivlar bilan (orqali) yo'naltiriladigan rag'bat/motivga zid keladi. Shu munosabat bilan ushbu tadqiqotda xulq atvorning samaradorligi: sinov ishtirokchilari natijaga intilishgan (orientatsiya olgan) sharoitda va materialni qiziquvchanlik asosida o'zlashtirgandagi kabi ikkita eksperimental vaziyatda aniqlashga urinib ko'riladi.

Xulq-atvorning ushbu modeli xavf-xatar tavakkal bilan bog'liq vaziyatlarda yo'lni tanlashda insonning xulq atvorini muvaffaqiyatli bashorat qilish imkonini berdi.

Ayni shu barcha tarkibiy komponentlar orasidagi nisbat amalning/ harakatning amalga oshish darajasini belgilaydi.

Turli mualliflar bu masalani o‘rganish nuqtai nazaridan, shuningdek, so‘nggi yillarda mamlakatimizda ro‘y bergan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlardan bog‘liq bo‘lgan OTMga kirish uchun turli rag‘batlarni/motivlarni ko‘rsatishadi. Bularning barchasini ijtimoiy tizimning turli holatlarida (shakllarida) o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan izchil namoyon bo‘lgan rag‘batlar/motivlar deb qayd etish mumkin. Olim  qiz va o‘g‘il bolalarda motivlarning ahamiyati borasida farqlar mavjud. Qizlar ko‘pincha kasbning katta ijtimoiy ahamiyatini, uni qo‘llashning keng doirasini, yirik shaharlar va ilmiy markazlarda ishlash imkoniyatini, talabalarning havaskorlik faoliyatida ishtirok etish istagini va kasbning moddiy jihatdan yaxshi ta’minlanganligini qayd yetadilar. O‘smir yigitlar esa ko‘proq tanlanayotgan kasb ularning qiziqish va mayllariga javob berishini ta‘kidlaydilar. Ular oilaviy an’analarni ham qo‘shib aytadilar.

**Foydalangan adabiyotlar:**


1. Грабал В. Некоторые проблемы мотивации учебной деятельности учащихся//Вопросы психологии. 1987. №1. С.20-29

2. Щербак Ф.К. Стимулы трудовой деятельности. Л.: изд-во ЛГУ. 1976. 11с.

3. Heider F. The gestalt theory of motivation. Nebraska symposium on motivation. V.8 - Lincoln: University of Nebraska Press - 1969. - 73p.

4. Ковалёв В.И. Мотивы поведения и деятельности. М.: изд-во "Наука". 1988. С.56-59

5. Маркова А.К., Матис Т.А. Формирование мотивации учения. М.: изд-во "Педагогика". 1990. С.34-56

6. Якобсон П.М. Психологические проблемы мотивации поведения человека. М: изд-во МГУ. 1969. С.76-88

# TALABALARINING O‘QUV DALA AMALIYOTINI TASHKIL QILISHINING INTEGRATIV SAMARADORLIGI

(biologiya, geografiya ta’lim yo‘nalishlari misolida)

**_K.A.SAPAROV,_**
_b.f.d., prof, TDPU_
**_D.ERDURAN AVCI,_**
_Professor, TDPU_
**_M.B.ONGAROV,_**
_p.f.f.d., PhD, TDPU_

*Mazkur maqolada bo‘lajak tabiiy fanlar (biologiya, geografiya) o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘quv-dala amaliyotining ahamiyati nafaqat amaliy ko‘nikma va malakalarni egallash, balki tabiiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega turli biologik ob‘ektlar bilan bevosita tanishishda o‘z ifodasini topadi. O‘quv-dala amaliyotida asosi ish shakllari sifatida o‘quv ekskursiyasi, hayvonlarning yashash muhitini suratga tushirish, tabiiy hudud ekologiyasiga tavsif berish, tajriba-sinov va tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirish, to‘plangan materiallarga ishlov berish, mustaqil kuzatish kabilar muhim o‘rin tutishi maqolada o‘z aksini topgan.*

***Kalit so‘zlar.*** *Ekskursiya, dala, biologiya, geografiya, botanika, ekologiya, hudud, tabiiy, amaliyot, ko‘nikma, biologik, madaniy, dukkakli.*

*В данной статье значение полевой практики в подготовке будущих учителей естествознания (биологии, географии) заключается не только в приобретении практических навыков и квалификатsiu, но и в непосредственном знакомстве с различными биологическими объектами природного и социал ьно экономического значения. находит выражение для z. В полевой практике важное значение имеют познавательная экскурсия, фотографирование мест обитания животных, описание экологии природной территории, проведение опытно-исследовательской деятельности, работа с собранным материалом, самостоятельные наблюдения за поведением, отраженным в статье.*

***Ключевые слова.*** *Экскурсия, поле, биология, география, ботаника, экология, местность, природная, практика, мастерство, биологическая, культурная, бобовая.*

*In this article, the importance of field practice in the training of future teachers of natural sciences (biology, geography) lies not only in acquiring practical skills and qualifications, but also in direct acquaintance with various biological objects of natural and socio-economic significance. finds an expression for z. In field practice, an educational excursion, photographing animal habitats, describing the ecology of a natural area, conducting experimental research activities, working with the collected material, and independent observations of the behavior reflected in the article are important.*

***Key words:*** *Excursion, field, biology, geography, botany, ecology, terrain, natural,* practice, skill, biological, cultural, legume.

Oliy ta'lim tizimida talabalarning malakaviy amaliyotini tashkil etishning huquqiy me'yoriy asoslari O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabr "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 35-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151 qarorida "Oliy ta'lim muassasalarining tegishli ta'lim yo'nalishlari bo'yicha har bir talabasining malakaviy amaliyotlari tizimli ravishda o'tkazilishini",[1] 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son qarori 16-bandida "Oliy ta'lim muassasalari talabalarining malaka amaliyotini o'tash tartibi"[2], 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmonida belgilangan 30-moddasida ilm-fan va amaliyot integratsiyasini chuqurlashtirish kabi bandlarida malakaviy amaliyot shu jumladan, dala amaliyotini tashkil etishning qanchalik dolzarb masala ekanligi huquqiy - me'yoriy jihatdan asoslangan.

Toshkent davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti 60110900 - Biologiya hamda 60111000 - Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv rejaga muvofiq 1-2-kurslarda 312 soatlik dala amaliyoti rejalashtirilgan.

Tabiiy fanlar fakulteti talabalarining o'quv dala amaliyotini tashkil qilishda fanlar integratsiyasi ham alohida ahamiyatga ega hisoblanadi, jumladan biologiya va geografiya ta'lim yo'nalishlarida o'quv rejaga muvofiq ajratilgan soatlar asosida o'quv dala amaliyoti olib boriladi. Biologiya ta'lim yo'nalishi talabalari asosan botanika va zoologiya fanidan o'quv dala amaliyoti amalga oshirilsa geografiya ta'lim yo'nalishida esa geografiya fani bo'yicha o'quv dala amaliyoti amalga oshiriladi. Quyida tabiiy fanlar fakulteti talabalarining o'quv dala amaliyotini tashkil qilishda ishchi dasturlarda keltirilgan mavzular bilan tanishib o'tamiz.

Tabiiy fanlar fakulteti 60110900 Biologiya ta'lim yo'nalishi talabalari zoologiya fanidan birinchi va ikkinchi kursda o'quv dala amaliyoti uchun 120 soat ajratilgan bo'lib, birinchi kurs talabalari umurtqasizlar zoologiyasi bo'yicha quyidagi mavzularda o'quv dala amaliyotini olib borishadi.

1.1. Kunning birinchi yarmida bajariladigan ishlar.

| № | Mashg'ulot mazmuni | Kun va (dars hajmi) |
|---|---|---|
| 1 | Umurtqasiz hayvonlar bo'yicha o'tkaziladigan o'quv -dala amaliyotining maqsadi va vazifalarini tushintirish. | 1(4) |
| 2 | Talabalar yashaydigan hududda yovvoyi va madaniy dukkakli -don ekinlarida uchraydigan umurtqasiz hayvonlarni o'rganish. | 2(4) |
| 3 | Talabalar yashaydigan hududda m evali bog'larda uchraydigan umurtqasiz hayvonlarni o'rganish. | 3(4) |
| 4 | Talabalar yashaydigan hududda t og' - o'rmon va archazorlarda uchraydigan umurtqasiz hayvonlarni o'rganish. | 4(4) |
| 5 | Talab alar yashaydigan hududda s uvda va tuproq qatlamlarida uchraydigan umurtqasiz hayvonlarni o'rganish. | 5(4) |
| 6 | Talabalar yashaydigan hududda qishloq xo 'jalik ekinlarida (g'alla, sabzavot, beda, g'o'za va bosh.) uchraydigan umurtqasiz hayvonlarni o'rganish. | 6(6) |
| 7 | Dala o 'quv a maliyoti yakuni bo 'yicha zvenolar bo 'yicha kollektsiyalar va eksponatlar tayyorlash, mustaqil ishlar hamda hisobot yozish va sinov topshirish. | 7(6) |
| № | Kechki darslar mazmuni | Kun (ajratil-gan soat) |
| 1 | Umurtqasiz hayvonlar bo'yicha o'tkaziladigan o'quv-dala amaliyo-ti bo'yicha kechki darsning maqsadi va vazifasini tushintirish. | 1(4) |
| 2 | Talabalar yashaydigan hududda yovvoyi va madaniy dukkakli -don ekinlarida uchraydigan umurtqasiz hayvonlarni o'rganish hamda ayrim vakillarini sistematik holatiga aniqlik kiritib ularni rasmlarini al'bomga chizish. | 2(4) |
| 3 | Talabalar yashaydigan hududda m evali bog' larda uchraydigan umurtqasiz hayvonlarni o'rganish hamda ayrim vakillarini sistematik holatiga aniqlik kiritib ularni rasmlarini albomga chizish. | 3(4) |
| 4 | Talabalar yashaydigan hududda tog' -o'rmon va archazorlarda uchraydigan umurtqasiz hayvonlarni o'rganish hamda ayrim vakillarini sistematik holatiga aniqlik kiritib ularni rasmlarini albomga chizish. | 4(4) |
| 5 | Talabalar yashaydigan hududda suvda v a tuproq qatlamlarida uchraydigan umurtqasiz hayvonlarni aniqlash hamda ayrim vakillarini sistematik holatini o 'rganib ularni rasmlarini albomga chizish. | 5(4) |
| 6 | Talabalar yashaydigan hududda qishloq xo'jalik ekinlarida (g'alla, sabzavot, beda, g'o'za va bosh.) uchraydigan umurtqasiz hayvonlarni aniqlash hamda ayrim vakillarini sistematik holatini o'rganib ularni rasmlarini al'bomga chizish. | 6 (4) |
| 7 | Dala o'quv amaliyoti yakuni haqida zvenolar bo'yicha kollektsiyalar va eksponatlar tayyorlash, mustaqil ishlar hamda hisobot yozish va sinov topshirish. | 7 (4) |

## 2.1 Ikkinchi kurs talabalari amaliyot mashg'ulotlari mavzulari.

| № | Ekskursiya mavzulari | Kun (dars hajmi) |
|---|---|---|
| 1 | Umurtqalilar zoologiyasidano'tkaziladigan o'quv-dala amaliyotining maqsadi va vazifalari. Ochiq landshaftlarda uchraydigan umurtqali hayvonlarni o'rganish | 1(4) |
| 2 | Tog' o'rmoni umurtqali hayvonlari hayotini kuzatish | 2(4) |
| 3 | Mevali va yong'oqzor zonasiga ekskursiya uyushtirish | 3(4) |
| 4 | Suv havzasi va suv bo'yi hayvonlarini o'rganish | 4(4) |
| 5 | Madaniy landshaft umurtqalilari hayotini o'rganish | 5 (4) |
| 6 | Daraxtzor va archazorlarzonasiga ekskursiya uyushtirish | 6 (6) |
| 7 | Amaliyot davomida o'tkazilgan ekskurtsiyalar bo'yicha eksponotlar va kollektsiyalar tayyorlash, hisobot yozish | 7 (6) |
| № | Kechki darslar mavzulari | Kun (dars hajmi) |
| 1 | Jihozlar va adabiyotlar bilan tanishish. Baliqlarni aniqlash va ulardan kollektsiyalar tayyorlash | 1(4) |
| 2 | Amfibiyalarni aniqlash va ulardan kollektsiya to'plash | 2(4) |
| 3 | Repteliyalarni aniqlash va ulardan kolektsiya to'plash | 3(4) |
| 4 | Qushlarni aniqlash va ulardan kollektsiya to'plash. Tulum tayyorlash | 4(4) |
| 5 | Sutemizuvchilarni aniqlash va ulardan kollektsiya to'plash | 5(4) |
| 6 | Aniqlagich kitoblaridan foydalangan holda sutemizuvchilarni turlarini aniqlash | 6 (4) |
| 6 | Hisobot tayyorlash | 7(4) |

Tabiiy fanlar fakulteti 60110900 Biologiya ta'lim yo'nalishi talabalari botanika fanidan birinchi va ikkinchi kursda o'quv dala amaliyoti uchun 108 soat ajratilgan bo'lib, birinchi kurs talabalari quyidagi mavzularda o'quv dala amaliyotini olib boriladi.

1.1 birinchi kurs o'quv dala amaliyot kunlarining taxminiy bo'linishi.

| № | Amalga oshiriladigan ishlar nomi va mazmuni | Kredit darajalari |
|---|---|---|
| 1 | Dala am aliyoti xaqida umumiy suhbat. O'quv dala amaliyotining maqsad va vazifalari bilan talabalarni tanishtirish. O'simlik va muhit haqida tushuncha . Gerbariylar yig'ish quritish va saqlash qonun qoidalari bilan tanishtirish. | A-B-C |
| 2 | O'simliklarning morfologik tuzilishining hilma xilligi, tuzilishi. Asosiy hayotiy shakllari , ildiz va poyani ng xilma xilligi va bajaradigan vazifalariga xos fiziologik belgilarga ega bo'lishi. | A-B-C |
| 3. | Kurtak va undan novdaning shakllanishi , yillik novda. Novdalarning tipi, shoxlarining yoshini aniqlash. elementar novda. O'sish va shoxlanish. Monopodial va si mpodial novdalar tizimi. Turli daraxtlarning yorug'likka bo'lgan munosabati. | A-B-C |
| 4 | O'simliklar bargining morfologik tuzilishi. Oddiy va murakkab barglar, barglarning joylanishi: Bargini to'kuvchi va doim yashil daraxtlarning yillik hayotiy o'zgarishla ri. Barg mozaykasi. | A-B-C |
| 5 | Dala amaliyotida o'tilayotgan xududdagi o'simliklarning gul tuzilishi asosida klassifikatsiyalash. Aktinomorf va zigomorf gulga ega bo'lgan o'simliklarni morfologik taxlil qilish.<br>To'pgullar, ularning klassifikatsiyasi, odd iy va murakkab to'pgullar. | A-B-C |
| 6 | Meva va uning xilma xilligi, klassifikatsiyasi, apokarp va sinkarp mevalar haqida tushuncha. Xaqiqiy, soxta va to'p mevalar bilan tanishib tahlil qilish, gerbariylar tayyorlash. (mevalar kolleksiyasi). | A-B-C |
| 7 | O'tilgan mashg'ulotlarni yakunlash yig'ilgan gerbariylarning tartibga solish, hisobot yozish va reyting sinov. | A-B-C |
| № | Ekskursiyadagi ishlar nomi va mazmuni | Mashg'ulot hajmi |
| 1 | Adir mintaqalaridagi asosiy o't o'simliklarning hayotiy shakllari v a ularning xo'jalikdagi ahamiyati. Adir mintaqasidagi bir yillik ikki yillik (tugunakli, ildizpoyali, piyozboshli va boshqa) o'simliklar tahlili. Adir o'simliklaridan yem -xashak, dorivor, zaharli begona va muhofazaga olingan turlardan foydalanish tomonlarini o'rganish.<br>Gerbariylarni tartibga solish, etiketkalash, quritish uchun quritgichlarga joylashtirish. Gulhayri, dala ayiqtovoni, na'matak, o'rmon qora kabi yirik gulli o'simliklarning morfologik tahlili. | 8 |
| 2 | Tog' o'simliklarining (daraxt va butalar) taxlili.<br>Daraxt va butalarning o'sishi, kurtaklarning tuzilishi, tahlili, turlari. Novdalar tizimi, tog' o'simliklarining yorug'lik va namlik sharoitlariga ko'ra ekologik guruhlarining tahlili.<br>Yong'oqzor o'rmonlarining asosiy vakillari -olma, olxo'ri, shum tol, do'lana va boshqalarning morfologik tahlili | 8 |
| 3 | Yaylov mintaqasidagi pakana bo'yli o'simliklarning hayotiy shakllari hamda yostiqsimon hayotiy shakl va ularning tuproq, iqlim sharoitlariga moslanishlari. | 6 |
| 4 | Suv bo'yi o'simliklarining s uv va ortiqcha namlik sharoitiga moslashuvi. Suvda yashovchi asosiy ekologik guruhlar (gidrofitlar, gidatofitlar va gigrofitlarning) tahlili.<br>To'qay o'simliklari (turang'il, tol, jiyda, qamish, qo'g'a, ilonchirmovuq va boshqalar) ning morfologik tahlili. | 8 |
| 5 | Yo'l bo'yi -ruderal o'simliklar - devor tagi o't, skabioza, qo'ziquloq, sigir quyruq, kovullarning morfologik tahlili. | 8 |
| 6 | Madaniy o'simliklarning xo'jalik guruhlari. g'alla, sabzavot, meva, rezavor va texnik o'simliklarning biologik va ekologik xususiyatlarini hamda muhofaza qilishni o'rganish. Begona o'tlarning asosiy biologik turlari. Fenologik fazalari, ba'zi bir biologik xususiyatlarini (mahsuldorlik, urug'larning xilma -xilligi, unuvchanligi, parazit hayot kechirishga moslashish va boshqalar) o'rganish. | 8 |
| 7 | Yakuniy ekskursiya. To'plangan materiallarni rasmiylashtirish, xisobot yozish va reyting sinov | 8 |

2.1 Ikkinchi kurs talabalari o‘quv dala amaliyot kunlarining taxminiy bo‘linishi.

| № | Amalga oshiriladigan ishlar nomi va mazmuni |
|---|---|
| 1 | Dala amaliyoti haqida umumiy suhbat: - o‘simliklar sistematikasi va geobotanika elementlari bo‘yicha o‘tkaziladigan o‘quv -dala amaliyotining vazifasi, maqsadi va ahamiyati. O‘simliklar qoplamining asosiy xususiyatlari, florasi, o‘simliklar fitotsenozi, o ‘simlik tipii, formatsiyasi, o‘simliklar qoplami, fitotsenozning tarkibi, tuzilishini ifodalash. Fitotsenozda keng tarqalgan o‘simliklarni oila, turkum va turlarni aniqlash metodlari<br>Adir mintaqasi o‘simliklari: Adirning quyi, yuqori pog‘onalarga bo‘linish i. Ularning geografik o‘rni, tuprog‘i, iqlimi va o‘simliklari. O‘simliklarning tur tarkibi va biologik shakllari. Lanshaft hosil qiluvchi turlari, ularning tarqalishi, biomassa, hosil qilishdagi ahamiyati. Ekologik landshaftlarni tahlil qilish. |
| 2 | Tog‘ m intaqasi o‘simliklari: Tog‘ mintaqasi haqida tushuncha. Quyi va yuqori tog‘ mintaqalari va ularning ekologik sharoitlari. Tog‘ mintaqasidagi o‘simliklar jamoasining yarusli tuzilishi. Amaliyot o‘tilayotgan joydagi asosiy tog‘ o‘rmon tiplari. Tog‘ mintaqasi da keng tarqalgan o‘t va buta, daraxt o‘simliklarining sistematik belgilari, oila, turkum va turlarini aniqlash. Shuningdek, o‘simliklarning taqsimlanish qonuniyat -larini kuzitish va fitotsenologik tasvirlash. |
| 3 | Yaylov mintaqasi o‘simliklari haqid a tushuncha. Eng muhim dominant turlarning sistematik belgilarini o‘rganish, gerbariylar tayyorlash, bo‘g‘doydoshlar, hiloldoshlar boshoqdoshlar va har xil o‘tlardan iborat assotsiatsiyalarni ta’riflash. Yaylov o‘simliklari mahsuldorligini aniqlash. |
| 4 | To‘qayzorlar va botqoqlik o‘simliklari.<br>Intrazonal o‘simliklar haqida tushuncha. To‘qay o‘simliklari. O‘simliklarning tarkibi va asosiy hayot shakllari. To‘qaylarning kelib chiqishi va taraqqiyoti.<br>Botqoqlikda o‘sadigan o‘simliklar bilan tanis hish. Ko‘l, daryo vohasi, buloqlar va suv havzalari atrofidagi botqoqlikdagi o‘simliklar. |
| 5 | Suv bo‘yi o‘simliklarining sistematik belgilari bilan tanishish, gerbariylar tayyorlash.<br>Yo‘l bo‘yi – ruderal o‘simliklarining sistematik belgilari bilan tanishish, gerbariylar tayyorlash hamda ekologik guruhlarini aniqlash. Ekologik so‘qmoqlarni tahlil qilish. Ekologik turizm haqida ma’lumot berish. |
| 6 | Madaniy o‘simliklar va agrofitotsenoz. Tumanda ekiladigan muhim madaniy o‘simliklar va ulardan gerbariylar tayyorlash.<br>Begona o‘tlar haqida tushuncha. Ularning yovvoyi o‘simliklardan farqi. Begona o‘t turlarining tarkibi va hayotiy shakllari. |
| 7 | O‘simliklarning hayotiy shakllari. Fitotsenozning tuzilishi, tasnifi, dinamikasi (o‘zgarishi) va doimiyligi.<br>Fitotsenozda turlar orasidagi o‘zaro munosabatlar.<br>Senopopulyasiya. Senopopulyasiya tiplari va tarkibi<br>Fitosenozlar dinamikasi. Fitosenozda sutkalik va mavsumiy o‘zgaruvchanlik. |
| 8 | Yig‘ilgan materiallarni tartibga solish va talabalarni individual ishlari ustida ishlash. Yig‘ilgan materiallarni rasmiylashtirish va hisobotga yozish, reyting sinov |

Tabiiy fanlar fakulteti 60111000 Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi talabalari birinchi va ikkinchi kursda o‘quv dala amaliyoti uchun 84 soat ajratilgan bo‘lib, quyidagi mavzularda o‘quv dala amaliyotini olib boriladi.

Har bir joyga tabiiy geografik tavsif berishda shu joyning geografik o‘rni, geologik tuzilishi, (tog‘ jinslari), relefi, iqlimi, ichki suvlari, tuproq va o‘simlik qoplami, hayvonot dunyosi, tabiatda ro‘y berayotgan geografik jarayonlar, insonning xo‘jalik faoliyati kabilarga alohida e‘tibor beriladi.

Dala sharoitida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan kuzatishlar tartibi bilan quyida tanishib chiqamiz.

1-kun. Dalada ishlash o‘quv dala amaliyotining asosiy bosqichi. O‘quv dala ishlari quyidagi tartibda bajariladi: joylashish, oshxona, ish joyi va zarur gigienik joylarni tayyorlash va tartibga keltirish, talabalarni xavfsizlik va kundalik amaliyot maydonchasining qoidalari bilan tanishtirish. Amaliyot o‘tkaziladigan

joy bilan va bu hududni o‘z tarkibiga olgan tabiiy geografik o‘lka (rayon, okrug)ga qisqacha axborot berish. Bu amaliyot obyekti bilan tanishuv marshruti o‘tkazilganda amalga oshiriladi.

2-3-kunlar. O‘quv dala amaliyotining asosiy vazifalaridan biri talabalarni ob-havo va mikroiqlimiy kuzatish metodlari va qo‘llaniladigan asboblar jumladan meteorologik maydoncha va sxematrik butkaga o‘rnatiladigan quyidagi asboblar: 1. Shamol tezligi va yo‘nalishini o‘lchaydigan flyuger-animometr; 2. Tretyakov-yog‘in o‘lchagichi; 3. Chuqur tuproq gorizontlarini o‘lchaydigan "shup" termometri; 4. Savenov-tirsaksimon termometri; 5. Maksimal va minimal termometrlar; 6. Havo nisbiy namligini o‘lchaydigan psixrometr; 7. "srochniy" yoki tez termometrlar yordamida kuzatish natijasida olingan materiallarni qayta ishlash, tahlil qilish, iqlim ta‘rifini yozishga o‘rgatishdir. Iqlimning elementlari bevosita va bilvosita o‘rganiladi.

3-8-kunlar. Tabiat komponentlari tarkiblarini o‘rganish (geologik tuzilishi, relefi, iqlimi, ichki suvlari, tuproqlari, o‘simligi, hayvonot dunyosi, tabiiy geografik jarayonlari, tabiatdan foydalanish) amaliyot rahbari boshchiligida olib boriladi va namunaviy ko‘rsatmalar beriladi.

9-10- kunlar. Amaliyot o‘tiladigan hududga xos bo‘lgan tipik geologik ochilib qolgan joylar tanlanib, ularni yozish tartibi, fotorasmga tushirish, tog‘ jinslaridan namunalar olish bilan talabalar tanishtiriladi.

11-12-kunlar. Joyning relefning asosiy shakllari va elementlari ajratiladi.

12-15- kunlar. Joyning ichki suvlarini o‘rganish, ularning turlarini aniqlab olishdan boshlanadi. Ichki suvlarning turlari quyidagilardan iborat: daryolar, soylar, vaqtincha oqar suvlar; ko‘llar, botqoqliklar; yer osti suvlari (buloqlar); muzliklar va qorlar. Odatda ichki suvlarni ikkita guruhga – yer usti va yer osti suvlariga bo‘lib o‘rganiladi.

16-18- kunlar. Amaliyot davomida talabalar tuproqni o‘rganish metodlari bilan tanishadilar. Dala amaliyotida talabalar rel’efning turli shakllarida va balandlik bo‘yicha o‘sadigan o‘simliklar turlari hamda ularning ekologik sharoiti bilan tanishtirishdir. Shunigdek talabalar hayvonot dunyosi, hayvonlarning hayotini kuzatish va o‘rganish metodlari bilan tanishadilar.

19-22- kunlar. Tabiat komplekslari uyg‘unliklarni o‘rganish. Tabiiy-hududiy uyg‘unliklarni talabalarning bilim darajasiga asoslanib guruhlarga bo‘linadi va ularga muayyan joyning (odatda irmoq havzalarining) tabiiy hududiy komplekslari taqsimlanadi.

Tabiiy-hududiy komplekslar-bu tabiat tarkibiy qismlarining o‘zaro murakkab ta’sirda va o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lgan hamda bir butunni tashkil qiladigan tabiat hosilalaridir. Yer yuzasi turli kattalikdagi tabiiy-hududiy komplekslardan iborat. Amaliyot davomida yirik tabiiy komplekslar-materiklar, okeanlar, tabiat zonalari va boshqa katta komplekslarni o‘rganishning iloji yo‘q. Shuning uchun ham amaliyot vaqtida eng kichik tabiiy komplekslarni o‘rganishga bag‘ishlanadi.

23-25- kunlar.Topografiya va kartografiya asoslari fanidan niviler, bussol, teodolit va boshqa asboblar bilan ishlash, burchak o‘lchash, nisbiy balandlikni belgilangan nuqtalar asosida aniqlash ishlarini olib borish. Keyinchalik talabalar rahbar ko‘rsatgan joylarda mustaqil tadqiqot ishlarini olib borishadi.

26-27- kunlar. Hisobot tuzish va tayorlash bosqichi.

Zoologiya fanini chuqur o‘zlashtirishda laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarish katta ahamiyatga ega. Prof S. Dadaev, K.Saparovlarning tadqiqotlarida talabalar dars davomida turli xil umurtqasiz va umurtqali hayvonlarning morfologik, anotomik tuzilishini o‘rganish bilan bir qatorda, foydali hayvonlarni asrash, ularni ko‘paytirish, zararli va parazit hayvonlarning ko‘payishiga yo‘l qo‘ymaslik va ularga qarshi kurash choralarini o‘rganadi.

Respublikamiz bo‘yicha umurtqasiz hayvonlarning 15 mingdan ortiq turini o‘z ichiga oladi va 30 ta turkumga birlashtirilgan. Hozirgi kunda hashorotlarning 201 turi, o‘rgimchaksimonlarning 17 turi, qisqichbaqasimonlarning 8 turi, o‘simlik gelmintlarining 391 turi, odam va hayvonn gelmintlarining 84 turi, ko‘p hujayralilarning 60 turi, va sodda hayvonlarning 20 turi turli xil ekologik va geografik sharoitlarda yashaydi.

O‘quv-dala amaliyotidan ko‘zda tutilgan maqsad yuqorida nomlari keltirilgan umurtqasiz va umurtqali hayvonlarning tabiatda yashash tarzini, biologiyasini, morfologiyasini, anatomiyasini, fiziologiyasini tabiatda erkin holda uchrashini talabalar bilan birgalikda kuzatishdan iborat.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-3151 sonli qarori. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 01.08.2018 y., 06/18/5497/1604-son).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni.

3. Oliy ta’lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularni mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ 3775-son qarori. 2018 yil 5 iyun. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.06.2018 y., 07/18/3775/1313-son.

4. Dadayev S., Saparov K.A, M. Jumanov. Entomologiya. Oliy o‘quv yurtlarining bakalavriat bosqichi biologiya yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. - Nukus.

# MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM INTEGRATSIYASI MODELLARI

***G.A.BERDALIYEVA,***
*Sirdaryo viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi direktori o‘rinbosari, (PhD), dotsent*

*Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limning integratsiyasi – bu bolaning samarali rivojlanishini, uni muvaffaqiyatli tarbiyalash va ta’limning ushbu bosqichlarida o‘qitishni ta’minlaydigan ta’limning barcha tarkibiy qismlarining aloqasi va izchilligi hisoblanadi. Mazkur maqola ta’lim tizimining muhim bosqichlaridan biri bo'lgan maktabgacha ta’lim va boshlang'ich ta’limning o‘zaro integratsiyaviy aloqasi va uzluksizligiga bag‘ishlangan.*

***Tayanch so‘z va iboralar:*** *ta’lim tizimi, ta'lim jarayoni, o‘qitish, maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, uzluksiz ta’lim bosqichlari, ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi integrativ aloqa.*

*The integration of preschool and primary education is the connection and consistency of all components of education that ensure the effective development of a child, his successful upbringing and teaching at these stages of education. This article is devoted to the inter-integrative relationship and continuity of preschool education and primary education, which is one of the important stages of the education system.*

***Key words:*** *educational system, educational process, activities, pre-school education, primary education, continuous education stages, integrative relationship between educational stages, pupils, educators, pupils of primary school age.*

Hozirgi kunda respublikamizda Ilm yo‘li dasturi asosida barcha 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni maktabga sifatli tayyorlash ishlari samarali yo‘lga qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8-dekabrdagi "Boshlang‘ich ta’limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o‘tish bo‘yicha chora-tadbirlar haqida"gi 999-sonli qarorini ijrosini ta’minlash maqsadida 6-7 yoshli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta’lim tarbiya berish va maktabga tayyorlash "Ilm yo‘li" variativ dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dastur maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun ishlab chiqilgan "Ilk qadam" Davlat o‘quv dasturi, O‘zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari, maktabgacha ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasi asosida ishlab chiqildi."Ilm yo‘li" variativ dasturi bolaning to‘laqonli rivojlanishi, tarbiyalanishi va o‘qishini, uning maktabda ta’lim olishga samarali tayyorlanishini ta’minlashga qaratilgan,

bolalarni maktabga tayyorlash bo‘yicha xalqaro tajribalarning hisobga olinib, ishlab chiqilgan hujjat bo‘lib sanaladi.

Mazkur dastur o‘ziga xos bo‘lib, unga ko‘ra, o‘quv-tarbiyaviy faoliyat kuniga 3 soat davomida amalga oshiriladi, uning majburiy qismi 80 foizni va variativ qismi esa 20 foizni tashkil etadi.

Ta’lim muassasalarining o‘zaro integratsiyasining keyingi ko‘rinishini "kompleks" deb atash mumkin. Maktabgacha ta’lim bolaning rivojlanishining asosiy poydevorini - uning shaxsi shakllantirishni ta’minlash uchun mo‘ljallangan. Bu unga ta’limning boshqa bosqichlarida turli faoliyat va bilim sohalarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bolalarning dastlabki dasturlarini o‘zlashtirishga umumiy (psixologik) tayyorligini ta’minlaydigan, maktabgacha ta’lim bosqichida boshlang‘ich umumiy ta’lim o‘quv jarayoni uchun ko‘rsatmalar bo‘lgan integratsiya asoslarini ajratib ko‘rsatish kerak.

Shunday qilib, integratsiyaning asoslari:

1. Bo‘lajak o‘quvchining kognitiv faoliyatining asosi sifatida maktabgacha yoshdagi bolaning qiziqishini rivojlantirisht (kognitiv faoliyat nafaqat o‘quv faoliyatining zarur tarkibiy qismi, balki bolaning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini, bola shaxsining boshqa muhim rivojlanishini ta‘minlaydi).

2. Bolaning ijodiy (aqliy, badiiy) qobiliyatlarini va boshqa vazifalarni mustaqil hal qilish usullari sifatida, turli faoliyat turlarida, shu jumladan bilim olishda muvaffaqiyatga erishish vositasi sifatida rivojlantirish.

3. Bolaning intellektual va shaxsiy rivojlanishining yo‘nalishi sifatida ijodiy tasavvurni shakllantirish. Bu syujetli-rolli o‘yinlar, sahnalashtirilgan o‘yinlari, yaratuvchilik o‘yinlari, turli xil badiiy faoliyat turlari va tadqiqotlaridan keng foydalanish bilan ta’minlanadi.

4. Muloqotni rivojlantirish – kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish qobiliyati – bolalar va kattalarning o‘quv faoliyati muvaffaqiyatining zarur shartlaridan biri bo‘lib, u o‘z mohiyatiga ko‘ra doimo ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishning muhim yo‘nalishi sifatida e’tirof etiladi. Muloqotning rivojlanishi bolalar va kattalarning birgalikdagi faoliyati uchun sharoit yaratish bilan ta’minlanadi; buning uchun tengdoshlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir modeli sifatida kattalar va bolalar o‘rtasidagi sheriklik usullari; bolalarga aloqa o‘rnatish, nizolarni hal qilish va bir-biri bilan o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish imkonini beradigan aloqa vositalarini o‘rgatish zarur.

Uzviyliklikni ta’minlash vositalari uzluksiz (maktabgacha - umumiy) ta’limning

pedagogik texnologiyalari bo‘lib, ular uzluksizlik asoslarini (qiziqish, qobiliyat, ijodiy tasavvur, muloqotni rivojlantirish) o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, maktabgacha ta’lim ma’lum bir yoshga xos faoliyat (o‘yin, modellashtirish, loyihalash, chizish va boshqalar) asosida quriladi, bunda 6-7 yoshga qadar ta‘lim faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yuzaga keladi. Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash tobora rivojlangan ta’lim faoliyati asosida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, maktabgacha yoshdagi bolaning o‘ziga xos faoliyati turlari boshlang‘ich ta’limda ham muhim rol o‘ynaydi. Tarbiyachi va o‘qituvchining pedagogik faoliyatining integratsiyasi ularning birgalikdagi faoliyatining sifat jihatidan yangi xususiyatlarini ochib beradi, bu uzluksizlik masalalarida yuqori natijalarga erishishga yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim dasturini o‘zlashtirish natijasi bolaning integrativ ya’ni, qiziquvchanlik, faollik, hissiy sezgirlik, intellektual, shaxsiy muammolarni hal qilish qobiliyati va boshqa fazilatlari bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’limda integratsiyani amalga oshirish uchun texnologiyalarni tanlash va pedagogik jarayonni tashkil etish uchun quyidagi talablarga rioya qilish maqsadga muvofiq:

– bolaning hissiy qadriyatiga, ijtimoiy shaxsiy, kognitiv, estetik rivojlanishiga va uning individualligini saqlashga yordam beradigan ta’lim muhitini yaratish;

– kattalarning bolalar bilan shaxsga yo‘naltirilgan o‘zaro munosabati;

– har bir bolaga faoliyat turini tanlash imkoniyatini berish;

– pedagogik baholashni bolalar muvaffaqiyatining nisbiy ko‘rsatkichlariga yo‘naltirish (bolaning bugungi yutuqlarini kechagi yutuqlari bilan taqqoslash);

– yetakchi faoliyatni bola rivojlanishining eng muhim omili sifatida shakllantirish;

– o‘quv faoliyatini shakllantirishda o‘yinli texnologiyalarga tayanish;

– bolaning mustaqil fikrlashi, ijodiy tabiatiga zarur shart-sharoit yaratish ;

– bolaga o‘z bilimlarini mustaqil ravishda olish va qo‘llash imkoniyatini berish;

– yangi bilimlarni rivojlantirishda bolaning shaxsiy tajribasini qo‘llab-quvvatlash;

– tarbiyalanuvchilar oilalari bilan konstruktiv hamkorlikni tashkil etish.

Ushbu yo‘nalishdagi amaliy ishlar katta maktabgacha va boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar bilan ishlashda texnologiyadan foydalanishning mavjud tizimidagi asosiy kamchiliklarni aniqlashdan boshlandi. Boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchilar muammoli ta’lim , interfaol usullar, AKT kabi texnologiyalardan

amaliyotda keng foydalanadilar. Ammo bugungi kunda bunday tor doiradagi foydalanish darajasi yetarli emas, chunki ko'p hollarda bosqichlarning buzilishi, zarur izchillikning yo'qligi, bolalarning imkoniyatlari va oilaning ta'lim potensialini sezilarli darajada kam baholash mavjud. Bundan tashqari, aniq qo'shma faoliyat jarayonida maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari o'rtasidagi konstruktiv o'zaro munosabatlar o'rnatilishi kerak. Yaqin kelajakda ta'lim muassasalarida (maktabda ham, bolalar bog'chasida ham) uslubiy ishning moslashuvchan tizimini ishlab chiqish rejalashtirilmoqda, bu esa o'qituvchilarning pedagogik yondashuvlar va texnologiyalardan foydalanish bo'yicha kasbiy malakasini oshirishga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti, maktab va oila o'rtasida integratsiyani ta'minlashda pedagogik yondashuvlar va texnologiyalardan foydalanish bo'yicha konstruktiv hamkorlikni tashkil etishga alohida e'tibor qaratish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. https://nsportal.ru/nachalnaya-shkola/dlya-kompleksov-detskii-sad-nachalnaya-shkola

# UZLUKSIZ TA'LIMDA TALABA-YOSHLARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

***I.I.TUYCHIYEVA,***
*Farg'ona davlat universiteti Pedagogika kafedrasi mudiri, (PhD), dotsent*

*Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarini tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashga doir: tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan, sinergetik, germenevtik va psixoterapevtik yondashuvlar haqida bayon qilingan.*

***Kalit so'zlar:*** *ma'naviy-tarbiyaviy ishlar, talabalarning tarbiyaviy faoliyati, ma'naviy-axloqiy tamoyillar, tizimli yondashuv, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv, sinergetik yondashuv, germenevtik yondashuv, psixoterapevtik yondashuv.*

*В данной статье описываются о системных, деятельностных, синергетических, герменевтических и психотерапевтических подходах подготовки студентов вузов к воспитательной деятельности.*

***Ключевые слова:*** *духовно-воспитательные работы, воспитательная деятельность студентов, духовно-нравственные принципы, системный подход, деятельностный подход, синергетический подход, герменевтический подход, психотерапевтический подход.*

*This article describes the systematic, activity-oriented, synergetic, hermeneutic and psychotherapeutic approaches to preparing students for higher education.*

***Key words:*** *spiritual-educational work, educational activity of students, spiritual-moral principles, systemic approach, activity-oriented approach, synergetic approach, hermeneutic approach, psychotherapeutic approach.*

Respublikamizda pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo'shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy qilishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish"[1], shuningdek, pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlarida "Yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy ko'nikmaga ega, tarbiya, o'qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog

kadrlarni shakllantirish" [2] kabi muhim vazifalar belgilandi. Bu esa, talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini, axborot-metodik ta'minotini takomillashtirishni taqozo etadi.

Oliy ta'lim muassasasi talabalarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish ko'p qirrali va murakkab jarayondir. Talabalarning ma'naviy-axloqiy shakllanishi bir-biri bilan uzviy bog'liq va biri ikkinchisini taqozo qiladigan yaxlit ta'lim-tarbiya ishlarini muntazam va izchil ravishda bajarishni talab etadi. Tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning aniq va mukammal tizimigina, yaxlit tizimli yondashuvgina tarbiyaning samaradorligini ta'minlaydi.[4]

Tarbiyaviy ishda mukammal tizimning mavjudligi bir xil ishni ortiqcha takrorlayvermaslikka, talabaga nisbatan biri ikkinchisiga to'g'ri kelmaydigan qarama-qarshi ta'sirlarning oldini olishga, talabalarga bir xil talablar qo'yish va yakdillik bilan ta'sir o'tkazishga imkon beradi.

"Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi"da oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ma'naviy-axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalashda inobatga olinishi lozim bo'lgan jihatlar sifatida quyidagilar alohida ajratib ko'rsatilgan:

– ijtimoiy-gumanitar fanlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali o'quvchi-yoshlarda ma'naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalarni ta'lim-tarbiya mazmuniga singdirish va ularni amaliyotda qo'llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq, topshiriq va pedagogik vaziyatlar bilan boyitish;

– o'quvchi-yoshlarda zamonaviy bilimlarni egallash, media madaniyatni rivojlantirish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, xorijiy davlatlardagi ilg'or tajribalarni o'rganishni rag'batlantirish;

– kasbiy-ma'naviy ko'nikmalarni mustahkamlash, o'zini-o'zi tarbiyalashga o'rgatish;

– faol fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish;

– ilmiy, ma'naviy-axloqiy, siyosiy dunyoqarash va sog'lom diniy e'tiqodni shakllantirish;

– baxtli oilaviy hayot, farzand tarbiyasi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

– kelajakka ishonch va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish[3].

Talabalarning innovatsion, adaptatsion sharoitda ishlashini, tez o'zgaruvchan sharoitlarga nisbatan qayishqoq bo'lishni zamonning o'zi talab etmoqda. Shu bois ham oliy ta'lim muassasalari talabalarining tarbiyaviy faoliyatga layoqatliligini zamon talablariga javob bera oladigan darajada rivojlantirish, ta'limni

tubdan isloh qilish, mazkur tizimni yangi sifat bosqichiga ko‘tarishning muhim shartlaridan biridir.

Bugungi kunda tarbiya jarayonini tashkil etishga doir zamonaviy yondashuvlarga tayangan holda talabalarni mazkur faoliyat turiga samarali tayyorlash ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday zamonaviy yondashuvlar orasida tizimli, faoliyatga yo‘naltirilgan, sinergetik, germenevtik va psixoterapevtik yondashuvlar ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya jarayoni yaxlit tizim sifatida obyekt yaxlitligini va uni ta’minlovchi mexanizmlarni ochib berish; murakkab aloqalarining turli tiplarini aniqlash hamda ularni yagona nazariy ko‘rinishga keltirish; shuningdek, obyektning yaxlitlik xususiyatlarini, uning tuzilmasi hamda dinamikasini belgilash imkonini beruvchi murakkab obyekt o‘zaro bog‘langan modellarining iyerarxik tizimi to‘g‘risidagi tasavvurlarni amalga oshiradi. Demak, tizimli yondashuvdan kelib chiqadiki, murakkab obyekt (tarbiya tizimi)ning o‘ziga xosligi uning tarkibiy qismlarining alohida xususiyatlarini inkor etmaydi, aksincha, ma’lum bir tarkibiy qismlar orasidagi aloqa va munosabatlarga doir bog‘lanishlarni hosil qiladi. Tarbiya jarayoni yaxlit tizim sifatida ijtimoiy buyurtma, maqsad, metodologik yondashuvlar, qonun, qonuniyat, tamoyillar, tarbiya mazmuni, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish shakl, metod va vositalari, tarbiyachilar, tarbiyalanuvchilar, ijtimoiy institutlarning o‘zaro hamkorligi, diagnostika, profilaktika, korreksiya kabilarning o‘zaro aloqadorligi va birligini talab etadi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvning mohiyati – bixevioristik yo‘nalganlik, tarbiyani shaxsning xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy pedagogik ta’sir sifatida qarash; har bir pedagogik ta’sir tarbiyalanuvchida uning so‘zlari, xatti-harakati yoki amallarida namoyon bo‘ladigan ma’lum javobni yuzaga keltiradi. Xususiyatlari – ideal va tarbiya dasturining mavjudligi, tarbiya tizimining aniq tashkil qilinganligi, tartib va bahslashuvning ahamiyati.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvning ahamiyati shundan iboratki, u tarbiyaviy ideal, tarbiya dasturi, aniq faoliyat yuritadigan tarbiya tizimi, tartib, intizomlilik, "bolalarcha o‘zboshimchalik"ni bartaraf qilishni o‘z ichiga oladi. Zamonaviy ma’noda bu yondashuv axloqiy-insonparvar qadriyatlarning shaxsiy ahamiyatli ma’nosini anglash, motivatsion-irodaviy va emotsional darajada o‘zlashtirish sifatida qaraladi. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv uchun tarbiya jarayonini anglashning chiziqli tamoyili xarakterli: har bir pedagogik ta’sir tarbiyalanuvchining ma’lum javobi(so‘z, hatti- harakat, amal)ni ko‘zda tutadi.

Tarbiyaga sinergetik yondashuv murakkab tizimlarning o‘z-o‘zini tashkillashtirish nazariyasi asosida kelib chiqqan. Sinergetika murakkab tarzda bir-biri bilan o‘zaro ta’sirga kirishuvchi ko‘p miqdordagi qismlar, komponentlar va ichki tizimlardan tarkib topuvchi metatizimlarni o‘rganuvchi fan sifatida yuzaga kelgan.

Sinergetik yondashuv pedagogga tarbiya jarayonini chiziqsiz sifatida tushunish, tarbiya tizimlari ochiqligini, ahamiyat hosil qiluvchi tasodiflarni (fluktuatsiyalarni) tan olish shartini qo‘yadi. Tarbiyaga sinergetik yondashuvning o‘ziga xos xususiyati – shaxsni o‘zgartirishning bir qancha yo‘llari, imkoniyatlarini tan olish va sakrashlar yuz beruvchi keskin, beqaror tarbiyaviy vaziyatlar bilan bog‘liq.

Tarbiyaga sinergetik qarash "portlash effekti"ning fenomenal tabiatini tushuntirib beradi. Agar tarbiyaviy o‘zaro ta’sir bifurkatsiya (tarmoq, "tanlov") nuqtasidan uzoqda bo‘lsa, unda tarbiyalanuvchilar xulq-atvori va faoliyatida sof tashqi, miqdoriy o‘zgarishlar yuz beradi. Bifurkatsiya nuqtasiga yaqin bo‘lgan hatto qisqa muddatli, bir lahzali pedagogik o‘zaro ta’sir ham tarbiyalanuvchi shaxsining qadriyatli-motivatsion sohasini keskin tarzda o‘zgartirib yuborishi mumkin, shu sababli tarbiya uning uchun harakatlar, amallarni tanlash imkonini yaratishi lozim.

Germenevtika nuqtai-nazaridan, tarbiya – bu subyektning kechinmalari sifatida namoyon bo‘luvchi psixik tajribalari, uning "hayotiy olamiga" murojaat etish hisoblanadi. Bu fenomen, ya’ni psixik kechinma faqatgina refleksiyada o‘zlashtiriladi. Boshqacha qilib aytganda, inson boshqalardagi holatni faqat o‘zi boshdan kechirganlari va tushunganlari asosida idrok etishi mumkin. Bu bir xil darajada tabiyachiga ham, tarbiyalanuvchiga ham taalluqlidir. Shu sababli bola kechinmalari – tarbiyachi faoliyatining asosiy predmeti hisoblanadi.

Germenevtik tarbiyaviy amaliyot bolalar kechinmalari, ularning xotiralari, orzu-istaklari, fantaziyalariga asoslangan ish sifatida tashkil etiladi.

Bolalar she’rlari, mustaqil ijod namunalari: qo‘shiqlari, esselari, avtobiografik qaydlari, kundaliklari, xatlari tarbiyaviy jarayonning muhim vositalari sanaladi. Bolalar verbal ijodiyotining ushbu mahsullari tarbiyachi tomonidan qabul qilinishi lozim: ular tahlil qilinmasligi va baholanmasligi, balki boricha qabul qilinishi, ulg‘ayib borayotgan insonning shaxsiy qadriyati sifatida tan olinishi zarur. Bolani germenevtik qabul qilish tarbiyachining o‘zining shaxsiy bolalik tajribalarini, o‘z bolalik kechinmalarini refleksiya qilishi, bolalik xotiralarini "yashab o‘tishi" siz amalga oshishi mumkin emas. Bunday pedagog bolani boshqarmaydi, majburlamaydi, balki u bilan xuddi katta o‘rtog‘idek hamkorlik qiladi.

Germenevtika ruhida tarbiyalash bolani atrofdagi odamlar va o‘z-o‘zini tushunishga o‘rgatishi lozim. Germenevtikada tushunish, tushunib yetish tartibi quyidagicha: insoniy madaniyatning har qanday ko‘rinishlarining ma’nosini fahmlay olish lozim. Shu sababli tarbiya jarayonida adabiyot, musiqa, tasviriy san‘at namunalariga murojaat etish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Germenevtik amaliyotda "germenevtik doira"ga alohida ahamiyat beriladi. Bu – o‘tmishdan hozirga, butundan qismlarga va aksincha tushunish jarayonidagi maxsus siklik harakatni ko‘rsatuvchi paradoksdir. Ma’lumki, har qanday hodisa,

hayotiy dalil, so‘z ko‘pincha oldin bo‘lgan yoki keyingi voqelikka bog‘liq tarzda u yoki bu ma’no kasb etadi. Germenevtik yondashuv tarafdorlari uchun bolaning o‘tmish hayoti, kechinmalari, ularning bugungi kun bilan nisbati har doim muhim ahamiyatga ega. Bolaning aniq harakatini faqat uning shaxsini tushungandagina anglash mumkin, shaxsni esa davrning ijtimoiy-madaniy sharoitlarini anglamasdan tushunish mumkin emas. Ammo zamonni tushunishga faqatgina zamonaviy bolaning kechinmalari va harakatlarini tushunish orqali erishish mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, oliy ta’lim tizimida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishning quyidagi jihatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin: kasbiy tarbiyaning o‘ziga xosligi; tarbiya nazariyasi va amaliyotida stereotiplardan voz kechish; oliy ta’limning o‘quv, auditoriyadan tashqari, ijtimoiy faoliyatida tizimli ravishda tarbiyaning xilma-xil obyekt va subyektlarini yaratish; tarbiyaning an’anaviy shakllari va innovatsion loyihaviy texnologiyalarni uyg‘unlashtirish; media vositalar va texnologiyalardan maksimal darajada foydalanish; natijaviylik ko‘rsatkichlari (kompetensiyalar) majmuini ishlab chiqish va ularni har bir ta‘lim oluvchining amaliy faoliyatiga tatbiq etish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi 4947-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi "Pedagogik ta‘lim sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4623-son Qarori.

3. Ochilov M., Ochilova N. Oliy maktab pedagogikasi. Darslik. T.: "Aloqachi". 2008.

# BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA UZLUKSIZ PEDAGOGIK AMALIYOTINING O‘RNI VA AHAMIYATI

**M.M.YUSUPOV,**
Qo‘qon DPI katta o‘qituvchisi

*Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda uzluksiz pedagogik amaliyotning tutgan o‘rni va ahamiyati hamda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining shakllanishida mazkur amaliyotning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida fikr yuritiladi.*

***Tayanch tushunchalar:*** *uzluksiz pedagogik amaliyot, kasbiy kompetentlig, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi.*

*В статье рассматривается роль непрерывной педагогической практики в формировании профессиональных компетенций будущих педагогов, а также выявляются особенности непрерывной педагогической практики будущих педагогов начального образования.*

***Ключевые слова:*** *непрерывная педагогическая практика, профессиональные компетенции, учитель начального образования.*

*The article discusses the role of continuous pedagogical practice in the formation of professional competencies of future teachers, and also identifies the features of continuous pedagogical practice of future primary education teachers.*

***Key words:*** *continuous teaching practice, professional competencies, primary education teacher.*

Jahonning yagona axborot, iqtisodiy va ijtimoiy – kommunikasion muhitida yuz berayotgan globallashuv, integrasiyalashuv jarayonlari pedagogik faoliyatga ham yangi o‘lchov va talablarni kiritishni talab etmoqda. Hozirgi zamon o‘qituvchisi jamyatning yangi mutuxassislarga bo‘lgan talablariga javoban birinchi galda ijtimoiy munosabatlar sohasida muammolarni yecha oladigan va yangi ijtimoiy sohada raqobatlasha oladigan bo‘lishi zarur.

Bu talablarni amalga oshirish va ta’lim xizmatlarini sifat jihatdan yuqori bosqichga ko‘tarish uchun umumta‘lim maktablarida yuqori malakali o‘qituvchilarga nisbatan ehtiyojning ortib borayotgani ko‘rishimiz mumkin. Shu o‘rinda pedagogika oliy o‘quv yurtlari bugungi kun bozor munosabatlari sharoitida umumta‘lim maktablari uchun malakali kadrlar etkazib berishning lokomativi bo‘lib hisoblanadi. Oliy pedagogika o‘quv yurtlari bo‘lajak o‘qituvchini kasbiy faoliyat bilan yaqinroq tanishtirish asosi sifatida pedagogik (malakaviy) amaliyot nazariya va amaliyotning uzviyligini ta’minlash vositasi bo‘lib, OTM o‘quv rejasida ta’lim yo‘nalishlari

bo‘yicha aniq belgilab berilgan va bajarilishi shart bo‘lgan, uzluksiz davom etadigan ta‘limning kasbiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan shakli hisoblanadi. Uning qay darajada tashkil etilishi talabaning o‘z kasbiga bo‘lgan e’tiqodini oshirib, kelajakda kasbiy faoliyat bilan bog‘liq to‘siqlarni engib o‘tishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. [4;19]

Uzluksiz pedagogik amaliyotning muhim vazifalaridan biri talabalarda o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni kuzatish va tahlil qilish, o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro ta’sir mazmuni va mantig‘ini anglab yetish ko‘nikmalarini shakllantirish hisoblanadi.

Amaliyot davomida samarali natijaga erishish va kasbiy ko‘nikma va malakalar dinamikasini shakllantirish uchun pedagogik amaliyotning umumiy vazifasi har bir kursga alohida ishlab chiqiladi.

Uzluksiz pedagogik amaliyotning vazifasi talabalarda o‘z-o‘zini o‘qitishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish, pedagogik faoliyayatga nisbatan ilmiy-ijodiy yondoshuvni shakllantirish, ilmiy-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Horijiy mamlakat tadqiqotchilari ham boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining professiogrammasi bo‘yicha ishlarida pedagogik amaliyotning tarkibi va mazmunini takomillashtirib, bo‘lajak pedagogning kelgusi kasbiy faoliyatida zarur bo‘ladigan qator bilim, ko‘nikma va malakalarni aniqlab berdilar. Ular orasida

Ko‘plab tadqiqotchilar uzluksiz pedagogik amaliyotni pedagogika oliy o‘quv yurtlarining ajralmas bir qismi sifatida, nafaqat kasbiy ko‘nikma va malakalarni egallash vositasi sifatida balki, o‘qitishning ilmiy metodlari va pedagogik tajribalarni o‘zlashtirish, pedagogik tafakkurni rivojlantirish, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash vositasi sifatida tadqiq etib kelmoqdalar. Hozirgi kunda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash bo‘yicha olib borilayotgan izlanishlar uzluksiz pedagogik amaliyotning samarali yo‘nalishlarini aniqlab mazmuni, tarkibi va shuning bilan birga amaliyotning yangi shakl va metodlarini takomillashtirishni talab etmoqda. Masalan, ko‘plab horijiy mamlakatlarning – Polsha, Chexiya, Gollandiya, Germaniya va boshqalarning boshlang‘ich ta’lim mutaxassislari tayyorlovchi ta’lim muassasalarida mashg‘ulotlarning ovozli bosqichlari yozilgan (Cheudio) mikrota‘lim hamda telefizion qismlari keng qo‘llanilib kelinmoqda. O. Berezovski o‘z maqolasida pedagogikaga oid fanlarda mikrota’limni qo‘llash bo‘yicha tajriba olib borganligini ko‘rish mumkin. Mikrota‘lim ta’limning boshqa shakl va metodlari bilan birga qo‘llanilganligini ta’kidlab o‘tish joiz [3,11].

Pedagogik (malakaviy) amaliyot pedagogika oliy o‘quv yurtlarida 2020 yil o‘quv rejasiga muvofiq 1,2,3,4 kurslarda amalga oshirilishi belgilangan bo‘lib unga o‘quv davrining 11-20 % ajratilgan. Boshlang‘ich ta’lim malakaviy talablariga muvofiq amaliyot davrida bo‘lajak bakalavrning quyidagi kompetensiyalarini shakllantirish nazarda tutilgan:

– o‘quv-tarbiyaviy jarayonning kompleks xususiyatga ega ekanligini e’tiborga olgan holda, axborot texnologiyalarini joriy etishni integrativ yondashuv asosida tashkil etish malakasini tarkib toptirishi;

– o‘qitishning samaradorligi va natijaviyligini ta’minlash maqsadida, xorijiy tajribalarga asoslanish, axborot-kommunikasiya texnologiyalari vositalarini tizimli, mantiqiy ketma-ketlikda qo‘llash qobiliyatini tarkib toptirishi; v.b. [5;6]

Amaliyotning ilk kunlaridanoq talaba ta’lim muassasasi faoliyati, pedagogik faoliyat, dastlabki kasbga oid pedagogik mahorat, pedagogik tajribalar bilan tanishadi va pedagogik bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaydi.

L.M. Kulikovaning ta’kidlashicha, talaba o‘zining dastlabki kasbiy amaliy tajribasini pedagogik amaliyot jarayonida egallaydi. Aynan pedagogik amaliyot jaryonida talaba auditoriyada olgan nazariy bilimlarni qay darajada o‘zlashtirganligini aniqlaydi, ularni pedagogik faoliyatda qo‘llab ko‘radi, ko‘nikma va malakalarining shakllanganlik darajasini aniqlab yanada takomillashtirishga harakat qiladi [1].

Fikrimizcha, kompetentli yondoshuv modeliga muvofiq uzluksiz pedagogik amaliyot tizimli tasnifda bo‘lishi, ta’lim sifatini oshirishi va yangi avlod o‘qituvchilarini tayyorlash uchun tizimli, faoliyatga ko‘proq yo‘naltirilgan va tashkiliy-pedagogik resurslarni yuqori darajada safarbar etishi kerak.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganlar asosida uzluksiz pedagogik amaliyotning quyidagi o‘ziga xos tomonlarini ko‘rib o‘tishimiz mumkin:

– pedagogik amaliyot vazifasining yangi DTClarga yo‘naltirilganligi;

– talabaning o‘z ta‘limiy yutuqlarini baholay olish ko‘nikmasi;

– talabalarda umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarni nazariy va amaliy tayyorgarlik birligi orqali shakllantirishning integrativ tasnifi;

– amaliyotning tashqi so‘rovlarga ochiqligi, ish beruvchilar bilan doimiy hamkorlik;

– pedagogik amaliyot davomida kompetentli yondoshuvni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagogik sharoitlar yaratishga ko‘maklashuvchi dasturiy ta’minotning mavjudligi.

Ayrim OTMlarda pedagogik amaliyot yakunlovchi bosqichning oxirgi oylarida amalga oshiriladi; boshqalarida esa amaliyot uzluksizlik kasb etib o‘quv - tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismi sifatida talabalarni OTMdagi ta’lim tizimida kasbiy faoliyat tajribalarini o‘zlashtirishlari uchun ta’lim mazmunini yuqori darajada amaliyot bilan yaqinlashtirishga harakat qiladi.

I. A. Protasovaning fikricha, uzluksiz amaliyotning ta’lim jaryoniga joriy etilishi talabalarni pedagogik jarayon mohiyatini chuqur anglashlariga, kasbiy-pedagogik faoliyat mazmunini tushunib yetishlariga imkon yaratadi [2].

Uzluksiz pedagogik amaliyot OTMlarda tahsil olayotgan talabalarni barcha kurslar davomida tizimli pedagogik faoliyatga jalb etishni nazarda tutadi. Misol tariqasida hozirgi kunda pedagogika OTMlarining boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida amalga oshiriladigan quyidagi uzluksiz amaliyot turlarini ko‘rib o‘tishimiz mumkin: "Kasb haqida dastlabki ko‘nikmalarni olish amaliyoti" (1-kurslarda), "Tanishuv pedagogik amaliyoti" (2-kurslarda), "Yozgi bolalar oromgohidagi amaliyot" (2-

kursning yozgi ta'til davrida), "Kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan amaliyot" (3-kurslarda), "Yo'nalish bo'yicha ilmiy-tadqiqotga yo'naltiritgan amaliyot" (3-kursning 6-semestrida), "Diplomoldi amaliyoti" (4-kurslarda). Bunday tizim talablarni kasbiy tayyorgarligi bo'yicha amaliyotning maqsad va vazifalarini kurslar bo'yicha bosqichma-bosqich murakkablashtirib borishni, ilmiy-uslubiy ta'minotni, mustaqil ishlash darajasini va talabalar tayyorlash darajasini oshirishni talab etadi.

Amaliyot yakunida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi quyidagi ko'nikmalarni egallashi nazarda tutiladi:

– o'quvchilarning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'limiy pedagogik masalalarni hal etish bo'yicha bilimlar tizimini egallash;

– kichik maktab o'quvchilarini o'qitishda ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni aniqlay olish;

– amaliyot davomida kuzatilgan darslarni, sinfdan tashqari tadbirlarni tahlil qila olish;

– tanaffuz paytlarida bolalarning samarali dam olishlarini tashkillay olish;

– kichik maktab o'quvchilarining individual va yosh xususiyatlarini o'rganish uchun pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlarini o'rganish;

– o'quv-tarbiyaviy jarayonning joriy va istiqbolli rejalashtira olish ko'nikmasi;

– o'quv-tarbiyaviy jarayon shakl, metod va vositalarini tanlay olish va qo'llashni bilish;

– darsning kengaytirilgan ishlanmalarini tuza olish;

– tajribali o'qituvchilarning ish faoliyatini tahlil qila olish va ulardan foydalanish.

Amaliyot davrida talabalarda o'z-o'zini tahlil qila olish ko'nikmalarining shakllanganligi kelgusi bosqichlardagi amaliyotlarni muvaffaqiyatli o'tishiga asos bo'ladi. So'rovnomalar talabaning o'z-o'zini tahlili bo'yicha natijalarni olishga va umumlashtirishga asos bo'ladi:

Amaliyot rahbari talabalarning amaliyot yuzasidan bildirgan fikrlarini tahlil qilib monitoring natijalarini fakultet kengashiga taqdim etadi. Fakultet kengashi kelgusi o'quv yili amaliyotini rejalashtirishda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha mutaxassis chiqaruvchi kafedralarga tavsiyalar kiritadi, kafedralar esa pedagogik amaliyotning takomillashtirilgan dasturini ishlab chiqadi.

Bizning fikrimizcha, uzluksiz pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim muassasidagi kasbiy faoliyatga tayyorlashi va nazariy bilimlari o'rtasida bog'lovchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Uzluksiz pedagogik amaliyot davomida kasbiy faoliyat bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni chuqurlashtirish, pedagogik tafakkur, ijodiy faollik ko'nikmalari, shaxsning kasbiy-pedagogik sifatlari shakllanib boradi.

O'tkazilgan tadqiqot ishlarimizning natijasiga ko'ra amaliyot oldi anjumanlarida talbalarga berilgan quyidagi tavsiyalar amaliyotchining istiqboldagi vazifalarni loyihalash va rejalashtirishda ijodiy yondoshishi mumkinligini ko'rsatadi:

– birinchi sinf o'quvchilari uchun 20 tadan kam bo'lmagan harakatli o'yinlarni tanlab olish;

– dam olish daqiqalarini (dars jarayonidagi) tashkil etish va o'tkazish uchun kerakli materiallarni avvaldan tayyorlab qo'yish;

O'quv - tarbiyaviy jarayonda ishtirok etish bo'yicha:

– fanlarga oid tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar tayyorlash;

– o'quvchilar bilim, ko'nikmalarini baholash mezonlari bilan tanishish:

– o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning daftarlari va kundaliklarini tekshirish;

– sinf rahbariga tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashda yordamlashish;

– o'quvchilar va sinf jamoasini o'rganish bo'yicha pedagogika fanining ilmiy - tadqiqot metodlarini o'rganish v.b.

Xulosa qilib aytganda, pedagogika OTMlarining ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan amaliyot turlari maqsad va vazifasining aniq bo'lishi, ilmiy asosda tashkillanishi natijalarning sifatli bo'lishiga kafolat bo'ladi. Barcha tashkil etilayotgan amaliyot turlarining yakuniy maqsadi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga, bo'lajak pedagogning o'zi sevgan va tanlagan kasbi bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lib yetishuviga qaratilishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Куликова, Л. М. Модернизация содержания и организации педагогической практики в физкультурном вузе / Л. М. Куликова. - Москва: Теория и практика физической культуры, 2004. - 268 с.

2. Протасова, И. А. Реализация принципов дифференцации и индивидуализации в просессе прохождения будущими социальными педагогами непрерывной педагогической практики / И. А. Протасова // Социальная работа на Урале: исторический опыт и современность: Межвуз. сб. науч. тр. - экатеринбург: Изд-во Рос. гос. проф.-пед. ун-та, 2002. Вып.2. С. 45.

3. Ростовсева, В. М. Формирование основ профессиональной компетенции студентов в период учебной практики в современном вузе / В. М. Ростовсева, А. В. Вельш // Вестник Томского государственного педагогического университета, 2011, вып. 10. - С. 56-59.

4. Саврасова, А. Н. Формирование опыта профессиональной деятельности будущих учителей в условиях педагогической практики / А. Н. Саврасова // Известия РАО. 2007. - № 3.

5. Малака талаблари. 511700-Бошланғич таълим бакалавриат таълим ёъналиши. 14.08.2022 й.

6. Ўқув режа. 511700-Бошланғич таълим, 14.08.2022.

# UZLUKSIZ TA'LIMDA O'QITUVCHILARIDA KOMMUNIKATIV MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

**S.A.XODJAYAROVA,**
*TerDU Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi*

*Ushbu maqolada boshlang'ich sinfdan boshlab o'qituvchilarda kommunikativ muloqot odobi va ko'nikmalarini shakllantirish orqali insoniy munosabatlar madaniyati kelajak avlodga o'rgatish haqida so'z yuritishi bilan birga milliy qadriyatlarga xos ma'naviy fazilatlarga alohida e'tibor berilgan. Muloqot-kishining ichki va tashqi olamini namoyon etuvchi o'zaro munosabatlarning muhim shaklidir. Muloqot orqali kishi o'zining tashqi olam, jamiyatning turmush tarzi ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayoti, haqidagi qarashlari, tasavvuri va hissiyotini kommunikativ jihatdan ifodalaydi. Kishilik jamiyati paydo bo'lishi bilan odamlar o'rtasida muloqotga madaniyati ham zaruriy ehtiyojlardan biri sifatida sezildi. Jamiyat a'zolarining o'zaro muloqotlari shu jamiyatning har tomonlama taraqqiyotiga zamin bo'ladi.*

***Kalit so'zlar:*** *muloqot, muomala, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayoti, haqidagi qarashlari, kichik yoshlardagi tasavvur, shirinsuxanlik, xushmuomalalik, kommunikativlik, har bir so'zni o'ylab gapirish , noaxloqiy gaplarni gapirmasdik, suhbatdosh so'zlarini tinglash, sabrli-toqatli bo'lish, madaniyatlik belgisi.*

*This article talks about teaching the culture of human relations to the next generation through the formation of communicative communication skills and manners in teachers starting from primary school, and special attention is paid to the spiritual qualities characteristic of national values. Communication is an important form of interaction that shows the inner and outer world of a person. Through communication, a person communicatively expresses his views, imagination and feelings about the external world, the social, economic, and spiritual life of society. With the emergence of human society, the culture of communication between people was felt as one of the necessary needs. The mutual communication of members of the society is the basis for all-round development of this society.*

***Key words:*** *communication, behavior, social, economic, spiritual life, views of young people, sweet-naturedness, politeness, communicativeness, thinking about every word, not speaking immoral things, listening to the interlocutor's words, being patient, a sign of civilization.*

Ma'lumki, insonning ma'naviy qiyofasi uning muloqot madaniyatida ifodalanadi. U muloqot jarayonida o'zining his-tuyg'usini, ichki tug'yonini, orzu -umidlarini bayon etadi. Shuning uchun ham jamiyat taraqqiyoti, insonlarning yaxlit holda shakllanishi, ularning bir-birlari bilan o'zaro muloqotisiz, hamkorligisiz, ta'sirisiz vujudga kelmaydi. Muloqot-kishining ichki va tashqi olamini namoyon

etuvchi o‘zaro munosabatlarning muhim shaklidir. Muloqot orqali kishi o‘zining tashqi olam, jamiyatning turmush tarzi ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy hayoti,haqidagi qarashlari, tasavvuri va hissiyotini ifodalaydi.

Xo‘sh, jamiyatimiz a’zolari o‘rtasida qanday kommunikativ muloqot turlari mavjud?-degan savol paydo bo‘ladi. Muloqot turlari juda ko‘p bo‘lib, ular jamiyatimizning kichik yacheykasi hisoblangan oiladagi ota-ona, katta kishilarning o‘zaro muloqotlari, ota-ona va farzandlarning, qiz va o‘g‘il bolalarning, oila a’zolarining, qo‘ni-qo‘shni, qarindosh-urug‘lar, do‘sti-o‘rtoqlar bilan muloqot, o‘qish jarayonida, jamoat joylarida, turli to‘y – tantanalarda, madaniy hordiq chiqarish maskanlarida, transportda va boshqa joylardagi kishilariing o‘zaro muloqotidan iborat. Xususan, Sharqona odobimizda ulug‘ allomalarimiz, fozilu-fuzailalarimiz muloqot madaniyati, qonun - qoidalari va o‘gitlarini yaxshi bilganlar, xalqni xushmuomalalikka, o‘zaro mehr-muruvvatga, axloq-odobga chaqirganlar. Zero, xalqimizning asrlar davomida sayqallanib kelingan urf -odatlari, an’analari, axloq me’yorlari mujassam bo‘lib, maqollar, hadislar, hikmatli so‘zlar, pand-nasihatlar, axloq-odob durdonalari orqali o‘quvchilarni kommunikativ muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish orqali ma‘naviy yetuklikka boshlab kelinadi. "Hamma ishlaringizda to‘g‘ri bo‘ling, odamlarga muomalada xulqingiz chiroyli bo‘lsin" – deb xalqimiz bekorga aytishmaydi.

Muhammad Sodiq Qoshg‘ariyning aytishicha, muloqot avvalo kishilarning tashqi ko‘rinishdan boshlanadi. Ilk kommunikativ muloqot ko‘nikmalarini ota-ona, opa-singil, do‘stlar, ustozlar, qarindosh-urug‘lar va boshqalar bilan muloqot qilishning debochasi oldin ta’kidlaganimizdek – salomlashishdan boshlanadi. Oilada bo‘ladigan kommunikativ muloqot ko‘nikmalarini sofligi, mazmundorligi, oiladagi bolalarning xulq-atvoriga, ma’naviy kamolotiga ta’sirini kuchaytirish ko‘p holda ota-ona o‘rtasidagi va ularning bolalar bilan bo‘ladigan o‘zaro muloqotiga bog‘liq, u hayotiy ehtiyoj, bolani ijtimoiy va madaniy hayotga tayyorlashning asosidir.

Inson qayerda bo‘lmasin, kishi mansabi, mavqei, davlati, yoshi va boshqalarga qarab emas, balki inson sifatida muloqotda bo‘lishi lozim. Mehmon va mezbonning o‘zaro iltifoti, mehmondorchilik odobiga rioya etish, kichik yoshdagilar muloqotida kichiklarning kattalardan oldin gapirmasligi, sergap bo‘lmasligi, ular bilan tortishmaslik, so‘zlarni to‘liq, ma’noli qilib, kam gapirib, ko‘p eshitishi ma’naviy madaniyatning muhim o‘lchovi ekanini boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi doimiy ravishda o‘z o‘quvchilariga kommunikativ muloqot

ko‘nikmalarini shakllantirib borishi lozim. Bunday kommunikativ muloqot ko‘nikmalari buyuk ajdodlar merosidan misollar keltirib ularga kommunikativ muloqot ko‘nikmalarini o‘rgatishga harakat qiladilar.

Bizning Sharqona odobimizda ulug‘ allomalarimiz, fozilu fozilalarimiz kommunikativ muloqot ko‘nikma madaniyati, qonun-qoidalari va o‘gitlarni yaxshi bilganlar, xalqni xushmuomalalikka, o‘zaro mehr-muruvvatga, shirinsuxanlikka va axloq-odobga chaqirganlar. Axloq-odob haqidagi hadislardan birida "Hamma ishlaringizda to‘g‘ri bo‘ling, odamlarga muomalada xulqingiz chiroyli bo‘lsin", – deyilib, barcha toifadagi odamlar xushxulq samimiy, to‘g‘ri bo‘lishga da‘vat etiladi.

Imom G‘azzoliy aytganidek: "O‘zingga nisbatan kichiklardan qanday muomalani kutsang, ularga nisbatan ham huddi shunday muomalada bo‘lgin".

Masalan: Kaykovus o‘g‘liga nasihat qilib deydi: "Xalq oldida gapiradigan so‘zing go‘zal bo‘lsin, bu so‘zni xalq qabul qilsin. Xaloyiq sening so‘zing bilan baland darajaga erishganingni bilsin, chunki kishining martabasini so‘z orqali biladilar. So‘zning martabasini kishi orqali bilmaydilar, chunki har kishining ahvoli o‘z so‘zi ostida yashiringan bo‘ladi. Ya‘ni, bir so‘zni bir ibora bilan aytsa bo‘ladi, eshitgan kishining esa ko‘ngli parishon bo‘ladi, shu so‘zni boshqa bir ibora bilan aytsa, eshitgan kishining ko‘ngli bahra oladi".

Har bir so‘zga quloq sol, tezlik qilma. O‘ylamasdan so‘zlama. Har bir so‘zni o‘ylab gapir, to aytgan so‘zingdan pushaymon bo‘lmagaysan. Oldin o‘ylash – bir nav karomatdir. Har qanday so‘zni eshitishdan siqilma. U so‘z ishinga xoh yarasin, xoh yaramasin, uni eshit, toki sening uchun so‘z eshigi yopilib qolmasin va so‘zning foydasi tamom bo‘lmasin.

Muloqotning samimiyati, sofligi, musaffoligi hamsuhbatlarning hamfikrliligiga, qarashlarning birligiga, do‘stona munosabatlarga ko‘p jihatdan bog‘liq. Chunki: "Ikki yaxshi odam bilan o‘tirish go‘yo mushkianbardek, yomon odam bilan birga bo‘lish esa temirchining bosqoni kabidir. Mushkianbari bor kishidan xushbo‘y hid tarqaladi, sen uni sotib olishing yoki xushbo‘y hiddan bahramand bo‘lishing mumkin. Temirchining bosqoni esa kiyimingni kuydirib qo‘yishi yoki undan ko‘lansa hid yetishi mumkin.

Yaxshi ulfat bamisoli attordir. Attordan biror narsa olmasangda, undagi narsalarning hididan bahramand bo‘lib turasan.

Shunday qilib, bir og‘iz shirin so‘z kishini hayot nashidasini surishga ilhomlantiradi, achchiq so‘z esa yashashdan ko‘nglini sovutadi" – deydi o‘z asarida.

Demak, muloqot madaniyatiga, odobiga amal qilish kishini yuksaklik ezgulik sari yetaklaydi. Ha, muomala odobi – inson ko‘rki Unga amal qilish odamlarni bir – biriga yaqinlashtiradi, o‘zaro ishonchni mustahkamlaydi.

O‘zbekona muomala odobining ziynati faqat samimiy salomlashishdagina emas, ayni vaqtda bir-birimizga sizlab murojaat qilishda hamdir. Sharq madaniyati va an’analari ruhida tarbiyalangan oilalarda beshikdagi bolakayga ham sizlab murojaat qilishadi. Farg‘ona, Namangan va Andijon viloyatlarida otalar hatgo o‘z farzandlarini sizlaydilar. Sen ham, siz ham bir og‘izdan chiqadi. Sizlash boshqalarga nisbatan samimiy hurmat va ehtirom ekan, bir-birimizni sizlab murojaat etishga nima yetsin!

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda dono keksalar yoki ilm ahillari suhbatida bo‘lganda sukut saqlab, ularni ko‘proq eshitish maqsadga muvofiq. Shuni nazarda tutib bo‘lsa kerak, Shayx Sa’diy aytadi:

Nodonlardek yuzlab so‘zni qilmagil qator,
Dono ersang, bir so‘z degil, lekin ma’nodor.

Xalqimizning boshqa xalqlar singari boy qadimiy tarixiy, hamda milliy urf-odatlari, an’anaviy turmush tarzi va o‘ziga xos folklori bor. O‘zbek madaniyatiga xos yana bir odat bor, u ham bo‘lsa voqelikni she’riy tarzda, ya’ni shoirona tasvirlash, suhbatlarda she’riy to‘rtlik yoki mashhur kishilarning hikmatli so‘zlaridan foydalanishdir.

Boshlang‘ich sinfdan boshlab o‘qituvchilarda kommunikativ muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda yomon holatlardan bolalargni saqlashga harakat qilishimiz kerak. Demak, real hayotda, odam yoshligidanoq muloqot madaniyatiga oid ma’lum insoniy qadriyatlarning buzilayotganligi bilan to‘qnash keladi. Oqibatda, bola hayotida ikki xil standartlar holati vujudga keladi. Bir tomondan, bola muloyim bo‘lishi lozim. Ikkinchi tarafdan esa, atrofidagi ko‘pchilik odamlar, xatto-ki eng yaqin va xurmatli kishilar ham bu tartib-qoidalarga rioya qilmaydi.

Masalan, "so‘kinish" – erkaklar rioya qilmaydigan noto‘g‘ri holat, "qarg‘ash" - ayollar rioya qilmaydigan noto‘g‘ri holat. O‘g‘il bolalar "so‘kinish"ni odatda o‘z otalaridan meros qilib oladilar. Ko‘pchilik "so‘kinish" yomonligi biladi, ammo amal qilmasdan ishlataveradi. Uning yomon odatligini o‘ylab ham ko‘rmaydi. Uni ishlatganda betarbiya odamlar ichki g‘urur xis qiladi, aslida birovlarni kamsitish, ularni mensimaslik, birovlarga aziyat ulashayotganligini bilmaydi.

Ayollar esa ba’zan o‘z farzandlarini "qarg‘ab" turib ularga ish buyuradi,

yoki ularni jazolaydi. Aslida ayol kishiga mayinlik, mehribonlik xos bo‘lishi lozimligini ular unutib qo‘yishadi. Agar, haqiqatda ham bolalari bilan biror noxush hodisa yuz bersa, ular kuyinishi aniq. Ammo til hamma narsani ko‘taraveradi deb, og‘izlariga erk berib yubormaslik kerak. Doimiy jerkib, behurmat qilib, faqat o‘zinikini o‘tkazib, bolaning erkini bo‘g‘ib yaxshi hulqli, idrokli, ma’naviyatli, barkamol farzandni tarbiyalab bo‘lmaydi. Demak, muloqot va muomala madaniyatining ham hayotda o‘z o‘rni va ahamiyati mavjud. Boshlang‘ich sinfdan boshlab o‘qituvchilarda kommunikativ muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda yuqorida aytilgan fikrlarni o‘quvchilarga yoshlikdan o‘rgatib borishi lozim.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Boshlang‘ich sinfdan boshlab o‘quvchilarda kommunikativ muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda ko‘proq xalqimiz mentaletetiga mos muloqotida bo‘lib, boshqa millatlar kabi, maqtov hamda maqtovga oid ibratli so‘zlardan foydalanishni kuchaytirish yaxshi natija beradi.Ularni o‘rganish va tahlil qilish muloqotning umuminsoniy va milliy belgi hamda xususiyatlarini aniqlash imkoniyatini beradi.Shunday ekan o‘quvchilarda kommunikativ muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish bugungi zamon talablari asosida bo‘lsa jamiyat rivojlanishi va yurt faravonligi yanada oshgan bo‘lar edi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O‘zbekiston Respublikasini 2017-21 yillarda yanada rivojlantirish bo‘yicha beshta ustvor yo‘nalishlar yuzasidan "Harakatlar strategiyasi" to‘g‘risida farmoni, 1-ilova.-T.: O‘zbekiston,2017 y.

2. Mirziyoyev Sh.M.. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. - T.: O‘zbekiston, NMIU, 2017 y. 592-b.

3. A. Avloniy. Turkiy guliston yoxud- axloq. -T.: Fan.1996.

4. IbrohimovA. (muallifdosh). Vatan tuyg‘usi. -T.: O‘qituvchi,1997.

5. Kaykovus. Qobusnoma.-T.: O‘qituvchi, 2011.

# MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA KVEST TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH VA TA’LIM UZVIYLIGINI TA’MINLASH MASALALARI

***H.SH.BEGIMQULOV,***
*Pedagogik innovatsiyalar instituti tayanch doktoranti*

*Ushbu maqolada professional ta’lim pedagog kadrlarini mediakompetentligini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish bo‘yicha kvest texnologiyalarn qo‘llash masalalari yoritidgan.*

***Tayanch so‘zlar:*** *Malaka oshirish, professional ta’lim, pedagog kadrlar, raqamli texnologiyalar, kvest texnologiyalar, mediakompetentlik, kompetensiya, kompetentlik.*

*This article covers the issues of application of Quest technologies to improve the mediacompetence of pedagogical personnel of professional education on the basis of digital technologies.*

***Base words:*** *professional education, pedagogical personnel, digital technology, quest technology, mediacompetence, competence, competence.*

*В данной статье рассматриваются вопросы применения квестовых технологий для повышения медиакомпетентности педагогических кадров профессионального образования на основе цифровых технологий.*

***Ключевые слова:*** *профессиональное образование, педагогические кадры, цифровые технологии, квестовые технологии, медиакомпетентность, компетентность, компетентность*

Jamiyatda "bilish muhim" dan "axborotdan foydalanish undanda muhim" tamoyiliga ahamiyat berilmoqda. Biroq, axborot bilan ishlashni emas, balki "uni eslab qolish" odat tusiga kirmoqda. Shu bilan birga, mobil qurilmalar kichik o‘lchamli va yuqori funksionallik tufayli ma’lumotlarga kirishning eng qulay usuli hisoblanadi. Shunday qilib, raqamli texnologiyalarini, xususan, raqamli va mobil texnologiyalarni rivojlanish tendensiyalarini hisobga olgan holda, malaka oshirishni tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda malaka oshirish tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha nazariy yondashuvlar yetarlicha o‘rganilmaganligi va ularning zamonaviy inson hayotidagi ahamiyati va roli oshgani sayin, raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish usullarini aniqlash va rivojlantirish masalasi dolzarb muammo sifatida qaralmoqda.

Raqamli texnologiyalar vositalaridan ta’lim vositasi sifatida foydalanishni hisobga olgan holda, tadqiqotchilar tinglovchilarga atrofdagi dunyoni yangi usulda ko‘rish va ular bilan bog‘liq bo‘lgan konteksda haqqoniylik muammolarini hal qilish imkoniyatini beradi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning rivojlantirishga qaramasdan, kengaygan realizasiya dasturlarini ta'im jarayonida qo'llash bir necha sabablarga ko'ra qiyinlashadi. Bularga quyidagi sabablarni keltirish mumkin:

– tinglovchilar ko'pincha o'quv faoliyatining murakkabligi bilan ortiqcha yuklanadi;

– tabaqalashtirilgan professional ta'lim tizimi bugunki kun texnologiyalari bilan mos kelmaydi;

– kengaytirilgan raqamli texnologiyalar vositalarini qo'llash samaradorligi o'qituvchining ko'nikmalariga juda bog'liq;

– texnik muammolar.

Shunday qilib, kengaytirilgan raqamli texnologiyalar vositalaridan samarali foydalanish uchun o'qituvchidan katta mehnat talab qilmaydigan materiallarni taqdim etishning tizimlashtirilgan usulini ishlab chiqish kerak. Bu xususiyatlar kelajakda professional ta'lim pedagog kadrlarini ijodkorligini rivojlantirishga ongli ravishda o'z kasblariga qiziqish va mas'uliyatni oshishiga yordam beradi. Shuning uchun ham u ustuvor soha hisoblanadi. Quyida malaka oshirish jarayoni tuzilmasini keltiramiz (1-rasmga qarang):




1-Rasm. Malaka oshirish jarayoni tuzilmasini

Raqamli texnologiyalar vositalarining xususiyatlaridan biri ularning turli kontentlarni (fotosuratlar, animasiyalar, video va audio fayllar, matn, 3D - tasvirlar va boshqalar) ijro yetish qobiliyatidir, bu yesa kurs materiallarini o'qitish usullarini diversifikasiya qilish imkonini beradi.

Haqiqiylik darajasiga ko'ra, ta'lim jarayonini tashkil etuvchi kvestlar 2 xil, ya'ni haqiqiy va virtuallarga bo'linadi.

Kvestlar ishtirokchilari ushbu turdagi o‘yin faoliyatining jozibali tomoni sifatida mantiq, e’tibor, aqlning rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Tinglovchilarning ta’lim motivasiyasini oshirish va guruh pedagog faoliyatini tashkil etish uchun web-kvestlar hamda ularni aniqlash:

– tinglovchilarni o‘zaro aloqasi bo‘lgan qismi yoki barcha ma’lumotlar Internet resurslaridan kelib chiqqan holda, ehtiyojga yo‘naltirilgan faoliyat;

– Web-loyiha, tinglovchilar ishlaydigan qismi yoki barcha ma’lumotlar turli web-saytlarda bo‘lishi mumkin.

Kvest bilan ishlash muddati qisqa muddatli va uzoq muddatli bo‘lib, kvestning turiga qaramasdan, ma’lum bir tuzilishga ega hisoblanadi.

Kirish. Ushbu bosqichda tinglovchilar kvestni bajarish vaqtida nima o‘rgatishlarini va nima qilishlarini tushunishlari kerak. Andragoglar tinglovchilar mediakompetentligini ortishiga qaratilgan vazifalar beradi.

Vazifa. Bu har qanday izlanishning asosiy bosqichidir.

Andragog mavzu bo‘yicha ishlash uchun oldindan tayyorlangan va modulini taklif qiladi, savollar va so‘rovlarni o‘z ichiga oladi.

Vazifa aniq, amaliy bo‘lishi va asosiy o‘quv mavzusini oshkor etishga yordam berishi kerak.

Sub-vazifalar asosiy vazifadan osonroq bo‘lishi va uning alohida jihatlariga tegishi kerak.

Jarayon. Tinglovchilar topshiriqni bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar olishadi va tavsiya etilgan bosqichlarda bajaradilar.

Manbalar. Tinglovchilar internetdagi saytlarning manzillarini oladilar, ular elektron portfolioda topshiriqni bajarish uchun tavsiya etiladi.

Faoliyatni baholash. Ushbu bosqichda tinglovchilar o‘zlarining ish natijalarini baholash imkoniyatiga ega. Bunda portfoliodagi ishi haqida o‘z fikrlarini bildiradi.

Xulosa Ushbu bosqich tinglovchilar natijalarni ish boshida belgilangan maqsad bilan solishtirishlari uchun zarurdir. Bundan tashqari, ushbu bosqichda tinglovchilar olingan bilim va ko‘nikmalardan boshqa faoliyat sohalarida foydalanish imkoniyatlarini tushunishlari zarur

Web-kvestning taklif qilingan ta’riflari va tuzilishi web-texnologiyalarning qidiruv jarayonlarini qanday ishlatilishini tushuntiradi.

Birinchidan, o‘yin faoliyati, qoida tariqasida, asosiy hikoya uchun satr sifatida qiziqarli, g‘ayrioddiy, original g‘oyaning mavjudligini nazarda tutadi. Biroq, ta‘lim web-kvestining yuqorida muhokama qilingan tuzilmasida, kirish bosqichida motivatsiya darajasi o‘qituvchining media ma‘daniyatiga bog‘liq, chunki uning roli o‘qituvchilarga mavzu yoki modulni taklif qilishdir.

Ikkinchidan, o‘yin janri sifatida kvestlar ko‘p asrlik voqealarni o‘z ichiga oladi, maqsadlarga erishish uchun chiziqli (bosqichma-bosqich) algoritm taklif etiladi. Shu asosda Web kvestning tavsiya yetilgan ta’riflari Internet va web-

resurslar texnologiyalari orqali tinglovchilar tomonidan birgalikda yoki alohida-alohida o‘quv mavzularida amalga oshiriladigan "web-loyiha" tushunchasini ochib beradi va aniqlaydi.

Ta’limda QR-kvest metodi: QR-kvestlar kichik matnlar va havolalarni saqlashga imkon berganligi sababli, ularni internetga kirish va ularsiz o‘quv muhitida ishlatish mumkin. QR-kvestni yaratish tinglovchilarda mustaqil ishlashga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Metodni qo‘llashdan maqsad: o‘quv jarayoniga qo‘shimcha metodik ta’lim resurslarini joriy etish;

– o‘quv materiallari ustida ishlash uchun tinglovchilar uchun jozibali tashkiliy shakl yaratish.

Metodni qo‘llash shartlari: QR kodlarini dekodlash imkonini beruvchi dasturiy ta‘minot bilan jihozlangan mobil qurilmalarning mavjudligi.

O‘qituvchining faoliyati: QR kodlari elementlari bilan metodik ishlanmalarni tayyorlash.

Natijani nazorat qilish usuli va unga erishish mezonlari: o‘quv jarayonida QR kodlash vositalarini faol ishlatishni talab etadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki ta’limni raqamlashtirish sharoitida o‘qitishda kvest texnologiyalarni tadbiq etish, hamda yuqori malakali mediakompetentlikka ega professional ta’lim pedagog kadrlarini tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylanmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Бабанский Ю. К. Педагогика : учеб. пособие для студентов пед. ин-тов / под ред. Ю. К. Бабанского. - 2-е изд., доп. и перераб. - М. : Просвещение, 1988. - 479 с.

2. Багузина Е. И. Технология разработки веб-квестов при изучении студентами иностранного язы-ка // Знание. Понимание. Умение. - 2010. - № 2. - С. 262-265.

3. Воробьев Г. А. Веб-квесты в развитии социокультурной компетенции : монография. - Пятигорск : ПГЛУ, 2007. - 168 с.

4. Данилов М. А. и др. Дидактика средней школы : Некоторые проблемы современной дидактики : учеб. пособие для студ. пед. ин-тов / под. ред. М. А. Данилова и М. Н. Скаткина. - М. : Просвещение, 1975. - 301 с.

5. Квест для учителя - Областная газета [Электронный ресурс]. - Режим доступа: http://www. oblgazeta.ru/society/31329/ (дата обращения: 01.10.2017).

# UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA BO'LAJAK FIZIKA FANI O'QITUVCHILARINING MANTIQIY FIKRLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

**SH.O.TOSHPULATOVA,**
*Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD*

*Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim tizimida talabalarning mantiqiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida "Fizika o'qitish metodikasi" fanini o'qitishning hozirgi holati tahlil etilgan. Fizika o'qitish metodikasi fani bo'yicha ilmiy-nazariy o'ziga xos jihatlari bilan bog'liq muammolar hamda ularning ilmiy-uslubiy yechimlari bo'yicha mulohazalar bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Fizika o'qitish metodikasi, talaba, mantiqiy fikrlash, kompetensiya, uzluksiz ta'lim, o'qitish, ta'lim samaradorligi, fan dasturlari, muammolar, yechimlar.*

*В данной статье проанализировано современное состояние преподавания предмета "Методика преподавания физики" для развитие компетенции логического мышления студентов в системе непрерывного образования. Выявлены проблемы, связанные со специфическими аспекты и излагаются некоторые соображения по научно-методическому решению выявленных проблем.*

***Ключевые слова:*** *Методика преподавания физики, студент, логического мышления, компетенция, непрерывное образование, обучение, эффективность обучения, учебные программы, проблемы, решения.*

*This article analyzes the current state of teaching the subject "Methods of teaching physics" for the development of the competence of students' logical thinking in the system of continuous education. Problems associated with specific aspects are identified and some considerations are given for the scientific and methodological solution of the identified problems.*

***Key words:*** *Methods of teaching physics, student, logical thinking, competence, continuing education, learning, learning effectiveness, curricula, problems, solutions.*

Ma'lumki, Oliy ta'lim jamiyat ehtiyojlarini qondirish maqsadida faoliyat olib boruvchi ijtimoiy institut sifatida shu jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar va jarayonlarga o'z vaqtida munosabat bildiradi, chunki, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarning rivojlanish darajasini, uning istiqbollarini ta'minlashda yuqori malakali mutaxassislar, ilm-fan vakillari yetakchi omillardan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2019 yil 24 mayda O'zbekiston Respublikasi Milliy universitetida oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari, akademiklar, olimlar, yosh tadqiqotchilar bilan bo'lib o'tgan

uchrashuvda ilm-fanning mamlakat rivojidagi ahamiyatini "Ilmni, tarbiyani to‘g‘ri hal qilsak, hamma sohalarni malakali mutaxassislar o‘zlari rivojlantiradi" so‘zlari bilan alohida ta’kidlagan edi. Buning natijasi o‘laroq, oxirgi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning uzoqni ko‘ra bilishi va bevosita tashabbuskorligi hamda faolligi tufayli O‘zbekistonimiz xalqaro hamkorlikning zamonaviy va raqobatbardosh ishtirokchisiga aylandi. Prezidentning 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847 Farmoni bilan "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacharivojlantirish konsepsiyasi", 2020-yil 6-noyabrda "O‘zbekistonning yangi taraqqiyoti davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-6108-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida "Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-4884 sonli Qarori qabul qilindi, Farmon va qarorda belgilangan vazifalardan biri xalqaro mehnat bozori talablariga javob beradigan raqobatnardosh metodist kadrlarni tayyorlash vazifasi ko‘zda tutilgan edi. Tabiiyki, milliy oliy ta’lim tizimlari zamonaviy fan va texnika tomonidan ishlab chiqilayotgan va tobora takomillashib borayotgan "dunyo standartlari" atalmish talablarga muvofiqlashishga intiladi. Oliy ta’lim muassasalari o‘z faoliyatini hozirgi jamiyatda muvaffaqiyatli amalga oshirishlari uchun ta’lim xizmatlari bozorida va mehnat bozoridagi sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga o‘z vaqtida munosabat bildirishga layoqatli chuqur mantiqiy fikrga ega bo‘lishlari, tez o‘zgarib borayotgan sharoitlarga moslasha olishlari, shuningdek, ta’limda yanada yangi, samarali axborotkommunikatsion texnologiyalarni o‘zlashtirishlari lozim. Bundan tashqari 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga va mamlakatimiz xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida "Fizika va astronomiya fanlarini o‘qitishni yanada isloh qilish va uni ustivor yo‘nalish sifatida qarash masalasi belgilanib olingan edi. Kadrlar tayyorlash masalasi esa qisqa muddatda amalga oshadigan masala emas va bu sohadagi ishlar uzluksiz ta’lim tizimining dastlabki bosqichlaridan boshlab maqsadli, rejali yondashuvni talab etadi. Bu rejalarni amalga oshirish uchun to‘g‘ri respublikamizda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda shular jumlasiga "4+2" dasturini olsak xush biz bu dastur amalga oshirishga tayyormizmi?

Muammoning yechimi albatta quyi bosqichlardan, ya’ni 1-kursdan o‘qitish mazmunini takomillashtirishga qaratish masalasi yotibdi. Chunki, yuqorida ta’kidlanganidek yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlashning asosi birinchi kursdan shakllanadi. Shuning uchun umumkasbiy fanlar blokidagi har bir mutaxasislikni yoki asosiy fanni o‘qitish metodikasi ya’ni "Fizika o‘qitish metodikasi" fanini

o‘rganishga ham jiddiy e’tibor qaratilishi lozim. Fizika o‘qitish metodikasi fanini o‘qitishning hozirgi kundagi holatini o‘rganish maqsadida uzluksiz ta‘lim tizimining barcha bosqichlari fizika fan dasturlari, milliy dasturlardagi fizika faniga umumiy o‘rta ta’limi uchun ajratilgan soatlar hajmi va mazmuni tahlil etildi. Milliy dasturda fanni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyati, aqliy rivojlanishi va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish barobarida olamning yagona manzarasiga oid tafakkurlarini rivojlantirish hamda egallagan bilimlardan kundalik hayot faoliyatlarida foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishni ko‘zda tutadi.Uzluksiz ta‘lim tizimining bosqichlari bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim maktablari Fizika fanini izchil kurs sifatida 7-, 8-, 9-, 10-, 11-sinflarda "Mexanika", "Elektrodinamika", "Molekulyar fizika va termodinamika asoslari", "Optika", "Atom va yadro fizikasi" bo‘limlari spiralsimon shaklda ma’lumotlar berilib, amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalari shakllantiriladi.Dasturning yana bir jihati shundan iboratki, bunda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llashga e’tibor qaratilgan. Biz talabaga 1-kursda faqat kasbiy fan sifatida umumiy fizika bo‘limining mexanika va molekulyar fizika bo‘limini o‘qitish bilangina chegaralansak, shu tarzda 3-kursgacha umumiy fizika bo‘limlarini asosiy fan sifatida o‘qiyotgan pedagogik amaliyotdagi talabadan qanday bilim, ko‘nikma va malakani ko‘tamiz? Xolbuki, 7-sinfdan fizikaning mexanik, issiqlik va elektr hodisalari o‘tiladi.

Ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, "Fizika o‘qitish metodikasi" fanini o‘qitish uchun ajratilgan soatlar ulushi juda kam va o‘qitish metodikasini talaba 3-kursdan boshlab o‘qiydi, chunki umumiy fizika kursi 5 ta bo‘limdan iborat ekanligini hisobga olsak, 3-kursgacha asosiy fanlar so‘ng talaba kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan fanlar o‘qitiladi. Bundan tashqari talaba DTS va milliy dastur, kalendar tematik reja, texnologik xarita, o‘qitishning STEAM ta’limi asosida tabiiy fanlar yo‘nalishida o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog‘liqligini ko‘rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quv tadqiqotlarini o‘tkazish, tajribalarni bajarish, loyihalashtirishga yo‘naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash va qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan, o‘quvchilar mantiqiy fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlashga mo‘ljallangan amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari hamda mustaqil bajarishga va ijodiy (kreativ) fikrlashga undovchi amaliy topshiriqlar bilan ishlashni o‘quv reja asosida fan sifatida o‘zlashtirmagan talaba maktabda qanday pedagogik amaliyot o‘taydi?

Bugungi kunda dolzarb bo‘lgan ushbu muammoni yechish maqsadida "Fizika o‘qitish metodikasi" yoki bir so‘z bilan aytganda talaba bilimini ko‘nikma va malakaga aylantiruvchi fanga ajratilgan soatlar yillar kesimida tahlil qilindi. 3- kurslarda 5-6-semestrlarda o‘qitiladigan fanning umumiy va xususiy metodikasini o‘rganishga ajratilgan soatlar tahlili quyigagi 1-jadvalda yoritilgan .

OTM da "Fizika o‘qitish metodikasi " fani uchun ajratilgan soatlarning yillar kesimida o‘zgarishi

1-jadval

| № | Ajratilgan soatlar / O'quv yillari | Umum-kasbiy fanlar | Fizika o'qitish metodikasi | | | | | | Foiz-lardagi ulushi |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Jami | Nazariy mashg‘ulot-lar | Laboratoriya mashg‘ulot-lar | Amaliy mash-g‘ulot-lar | Seminar mashg‘ul ot-lar | Mustaqil ishlar | |
| 1 | 2018/19 | 3648 | 380 | 40+38 | 38+34=72 | - | 36+36 | 80+78=158 | 10,4% |
| 2 | 2019/20 | 3648 | 382 | 38+34=72 | 48+44=92 | - | 32+26=58 | 82+78=160 | 10,4% |
| 3 | 2020/21 | 3648 | 312 | 38+26=64 | 36+28=64 | - | 36+24=60 | 76+48=124 | 8,5% |
| 4 | 2021/2022 | 3648 | 312 | 38+26=64 | 36+28=64 | - | 36+24=60 | 76+48=124 | 8,5% |
| 5 | 2022/2023 | 3210 | 162 | 52 | 30 | 40 | 40 | 198 | 5% |

"Fizika o‘qitish metodikasi" bo‘limining pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilish holati $2018 \div 2023$ yillar kesimida 1-jadvalda va 1-rasmdagi grafikda keltirilgan. Bu ma‘lumotlarga ko‘ra, $2018 \div 2020$ yillarda "Fizika o‘qitish metodikasi" bo‘limi uchun ajratilgan soatlar ulushi 10,4% borganligini ko‘ramiz. Buni o‘sish deb qarasak, shu davrda talabalarimiz 3-kursda passiv, 4-kursda aktiv pedagogik amaliyotni o‘taganliklarini inobatga olsak fan ma’lum miqdorda to‘g‘ri rejalashtirilga deya qarash mumkin. Lekin 2020/2022 o‘quv yilida "Fizika o‘qitish metodikasi " uchun ajratilgan soatlar, shu fanni o‘qitish soatlari ham yuqoridagi yillarga qaraganda ~2,5% ga qisqarganligini ko‘ramiz. Kelajakda buning yana 3,5% ga tushushi rejalashtirilgan.

Xolbuki, kredit ta’lim tizimiga o‘tish munosabati bilan talabalarimiz 1-kursdan boshlab umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida pedagogik amaliyotni o‘tay boshladilar. Bizning fikrimizcha, I oliy ta’lim muassalarining pedagogika ta’lim yo‘nalishi talabalarida o‘z mutaxassisligidan kelib chiqib, olgan bilim, egallagan ko‘nikmalari va malakasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishni talab qiladigan quyidagi integrativ modelda o‘quv reja asosida mutaxasislikka oid(1-rasm): umumkasbiy, tabiiy, ilmiy, gumanitar va ixtisoslik fanlarini tanlashda va o‘qitish jarayonini tashkil

etishda DTS va malaka talablaridan kelib chiqib, 1-kurs talabalarida fanga oid bilimlarni egallash ko'nikmasini hosil qilish orqali ularda mustaqil fikrlashni rivojlantirish, kichik tadqiqotchilik malakasini shakllantirish uchun o'quv seminarlarda, konferensiyalarda o'z tezisi bilan ishtirok etish kompetensiyasi shakllandi. 2-kurs talabalarida eksperimental ko'nikmani shakllantirish orqali ularda STEAM fizika ratsionalizatorlik, kashfiyotchilik, kerativlik kabi qobiliyatlarni rivojlantirish orqali hayotiy ehtiyojga aylantirish, ularni turli tipdagi (ijodiy, sifat, eksperimental, grafik) masalalarni yechish orqali mantiqiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish orqali masala yechishning analitik va sentetik yechimlarini tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantirish imkonini beradi. Ularning fan oyliklarida ishtirok etishi, olimpiadalarda qatnashishi orqali o'spirinlarda "Men konsepsiyasi" shakllanadi. Talabalarga "Fizika va astronomiya o'qitish metodikasi", "Masalalar yechish metodikasi" fanlari orqali o'qitishning noan'anaviy ta'lim texnologiyalarini egallash, har bir darsni ilmiy-metodik tahlil qila olish, debrifing hamda debatlarda ishtirok etish orqali tanqidiy fikrlash elementlari shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda hozirgi kun talablarini hisobga olganda umumkasbiy fanlar blokidagi "Fizika o'qitish metodikasi" fanini o'qitish masalasi, bo'lajak fizika o'qituvchisining mantiqiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish kabi kelajak avlod oldida turgan global muammolardan biri chuqur mantiqiy fikrga ega, sotsiamadaniy darajasi rivojlangan avlodni tarbiyalshning asosiy bo'g'inlaridan biridir. Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, bu vazifaning mukammal yechimi esa o'z navbatida ko'p jihatdan yetuk pedagogik kadrlar tayyorlash masalasini qanday hal qilinishiga bog'liq.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T.: 29.12.2020 y. https://president.uz/oz/lists/view/4057.

2. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun. "Fizika" fanidan kompentensiyaviy yondashuvga asoslangan "O'quv dasturi" 2020-2021-o'quv yili.

3. Ixtisoslashgan maktablar uchun. Fizika" fanidan kompentensiyaviy yondashuvga asoslangan "O'quv dasturi" 2020-2021-o'quv yili.

4. Akademik litsey "Aniq fanlar texnika yo'nalishi" uchun ishchi o'quv fan dasturi 2019-2020-o'quv yili.

5. Kasb-hunar maktablari Fan dasturi 2020 yil.

6. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari uchun Fizika o'qitish metodikasi fanidan Fan dasturi 2019 yil.

# UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA STEAM YONDASHUVLARIDAN FOYDALANISH

***SH.B.XASANOVA,***
*Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi, p. f. f.d(PhD)*

*Mazkur maqolada uzkuksiz talim tizimida steam texnologiyalarini joriy etish steam talim mazmuni uning uning imkoniyatlari va undan biologiya darslarida foydalanish metodikalari yoritib berilgan.*
***Kalit so'zlar:*** *Muhandislik, texnologiya, Science, loyihalar, uyg'unlashtirilish.*

*In this article, the introduction of steam technologies in the linkless learning system, the content of steam learning, its possibilities and methods of using it in biology classes are explained.*
***Key words:*** *Engineering, technology, Science, projects, integration.*

Ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida respublikamizda mustahkam huquqiy, tashkiliy, moddiy texnik baza yaratildi, bu intellektual salohiyati yuqori va barkamol yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashning mazmunini yangilash, innovatsiyalarni joriy etish talablarini qo'ymoqda. Ta'lim tizimidagi innovatsiyalardan biri uzluksiz ta'lim tizimiga STEAM ta'limini joriy etishdir. STEAM - ta'lim texnologiyasi maktab o'quvchilarini yangi o'qitish metodikasi bo'lib, an'anaviy o'qitish tizimiga muqobil tizim hisoblanadi. Axborotni olish, qayta ishlash va amaliyotda foydalanish STEAM ta'limi dasturining asosidir.

Ushbu texnologiyao'quvchilarni bir vaqtning o'zida Science (tabiiy fanlar), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san'at) va Mathematics (matematika)bo'yichao'qitishtizimigaasoslangan, bundao'quvchilar amaliy vako'ngil ochar loyihalar mashg'ulotlari yordamida saboq oladilar.STEAM ta'limi texnologiyasi tabiiy fanlar, texnologiya, san'at, matematika fanlarini integratsiyasi asosida o'quvchilarni o'qitish metodikasi bo'lib, o'quvchida amaliy mashg'ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bunda fanlarning o'zaro uyg'un holda yozilgan o'quv dasturlari bir-birini to'ldiradi va birgalikda o'quvchida yaratuvchanlik layoqatini hosil qiladi. STEAM yondashuvining asosiy g'oyasi quyidagicha: amaliyot nazariy bilimlar kabi muhimdir. O'quvchilar ko'pchilik fanlarni samarali o'rganishda aqli hamda qo'llaridan foydalanishadi, bilimlarni mustaqil egallashadi, o'quvchilar o'quv mashg'ulotlarida tajribalar o'tkazishadi, modellarni konstruktsiyalaydi, musiqa va filmlarni mustaqil yaratishadi, robotlarni yasashadi, ya'ni o'z g'oyalarini amalga oshiradilar va mahsulot yaratishadi. STEAM ta'limi

yo'nalishi va amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta'lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan.Unda mashg'ulotlar o'quv fanlari bo'yicha emas, balki mavzular bo'yicha integratsiyalab olib borishga qaratilgan.

STEAM ta'limi Amerikada ishlab chiqilgan. Ayrim maktablar o'z bitiruvchilarining keyingi faoliyatini kuzatib,ularda tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik mahorati, matematika fanlarini integratsiyasi bo'yicha ko'nikmalarga ehtiyoj borligini kuzatishdi va bu fanlarni uyg'unlashtirib o'qitishga qaror qilishdi, shunday qilib, STEM (Science, Technique, Engineering and Math) tizimi yuzaga keldi. Keyinchalik unga san'at (Art) qo'shildi, endilikda STEAM paydo bo'ldi. Ushbu yo'nalishlar zamonaviy dunyo ta'lim tizimida mashhur bo'lib,asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. Hozirgi kunda Amerika, Singapur, Isroil, Xitoy, Finlandiya va Turkiya mamlakatlari ta'lim tizimida STEAM ta'limi texnologiyalaridan samarali foydalanilmoqda.

Turkiya ta'lim tizimida bu texnologiyalardan foydalanish tajribalari bilan tanishaylik.

Turkiya ta'limtizimidaS TEAM - ta'limi (Science, technology, engineering, mathematics )asosiy konseptual ahamiyat kasb etadi. Turkiyaning 2015-2019-yillar uchun Strategik rejasida bu ta'lim tizimi haqida to'xtalib o'tilgan. 2013-yilda STEAM ta'lim tizimini Kaysari milliy ta'lim mudirligi (boshqarmasi)ning Kayseri Bulent Altopo'rta maktabi va Melikgaziona maktablarida aprobatsiyadan o'tkazdi.

Turkiyata'limtiziminingbarchabosqichlarida STEAM ta'limiyo'lgaqo'yilgan. Bog'cha yoshidagibolalar eng sodda loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirilsalar, maktab va litseylarda birmuncha murakkabroq loyihalarni amalga oshiradilar. Buning uchun esa eng avvalo, o'qituvchilarning STEAM haqidagi bilimlari oshirilib borilishi kerak. Turkiyauniversitetlarida STEAM yo'nalishio'qituvchilarini tayyorlash fakultetlariva STEAM laboratoriyalari ochilgan. Istambul Aydin universiteti va Baxchishexirkollejidabu yo'nalishda juda ko'p loyihalar amalga oshirilgan. Jumladan, aqlli uy, aqlli parnik, aqlli termometr vah.k.

Mamlakatlar kuchli kelajak yaratish uchun har bir inson fan va texnologiya savodxonligiga ega bo'lishi va bunda fan asosiy o'rinda ekanligini tushunib yetishmoqda.

TurkiyadaSTEM ta'limi yo'lga qo'yilgan ta'lim muassasalaridan biri bu bilim va san'at markazlaridir. Turkiyada 137 ta Bilim va san'at markazlari tashkil etilgan. Bu ta'lim turi maktabdan tashqarita'limturi bo'lib, o'quvchilar darsdan so'ng bu yerda o'z iqtidorlarini rivojlantirib, o'stirib boradilar. Markazda

o‘quvchilarga o‘zlari qiziqqan yo‘nalish bo‘yicha kuchli bilim berish bilan birga ularda ijodkorlik va kreativlik, yaratuvchanlik qobiliyatlari rivojlantirib boriladi.

Markaziqtidorlio‘quvchilarniizlash, iqtidorlariniertaaniqlash, tanlabolish, ularnio‘qitish, rivojlantirish, ishlab chiqarishga yo‘naltirish bilan shug‘ullanadi. Markazda matematika, musiqa, tasviriysan’at, fan (fizika, kimyo, biologiya laboratoriyalari), robototexnika, mexatronika, 3D modellashtirish, kompyuter grafikasi dizayneri to‘garaklari tashkil etilgan. Iqtidorli o‘quvchilar mazkur STEAM - laboratoriyalarda fan va texnikaning raqamlashtirilgan texnologiyalaridan foydalanmoqda. Yuqori sinf o‘quvchilari markazda aniqmaqsadga yo‘naltirilgan loyihalarni haqiqiy muhandislar kabi amalga oshirishadi.

An‘anaviy o‘qitishda fanlar va mavzular alohida-alohida o‘rganiladi. Mashg‘ulotlar obyektlarni o‘rganish va zarur bilimlarni egallashga qaratilgan bo‘lib, olingan bilim va ko‘nikmalardan foydalanishga, amaliyotda qo‘llashga yo‘naltirilmagan. STEAM texnologiyasi asosida o‘qitish tizimida esa fanlararo aloqa va loyihalash metodi birlashtirilgan. Bolalar mashg‘ulotlar jarayonida bilimga ega bo‘ladilar va darhol undan foydalanishni o‘rganadilar. Ular o‘sib ulg‘ayganlarida kundalik hayotlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishda zarur bo‘ladigan tanqidiy tafakkur va muammolarni bartaraf etish ko‘nikmalari shakllanadi. Tez o‘zgaruvchan dunyoga moslasha oladi. Beshta fan uyg‘unlashtirilib o‘qitilishi o‘quvchilarda mantiqiy va ijodiy fikrlashlari, jamoada ishlash ko‘nikmalari, moslashishi va innovatsion yechimlarni topish qobiliyatini shakllantiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 9- sentyabrdagi "O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida"gi Farmoniga ko‘ra, Respublikamiz hududlarida ochilgan Prezident maktablarida mashg‘ulotlar zamonaviy STEAM ta’lim texnologiyasi asosida olib borilishi belgilangan. Shuningdek 2022-yilda mamlakatimizda 300 ta umumiy o‘rta ta’lim maktablarimiz STEAM Science (tabiiy fanlar), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik),Art(san’at), Mathematics (matematika) ta’limi asosida jihozlanishi va mashg‘ulotlar olib borilishi belgilangan. Mamlakatimizda bu tizimni samarali joriy etish uchun avvalo maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘quv jarayonida oddiy loyihalar asosida ishlashga o‘rgatishdan boshlash lozim.

Boshlang‘ich ta’limda STEAM -ta’limning vazifasi, o‘quvchilarni tabiiy va texnik fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishdan iborat. Bilimlarni egallash va bajaradigan

ishini sevib bajarish, qiziqishlarini rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. STEAM - mashg‘ulotlari juda dinamik va qiziqarli bo‘lganligidan bolalar mashg‘ulot davomida zerikmaydilar va vaqtning qanday o‘tganligini sezmay qoladilar. Science (tabiiy fanlar) darslarida o‘simliklarga doir mavzular o‘rganilsa o‘simliklarningmaketlari yasalishi, ularda barg, novda, poyalari joylashishi, ularga quyosh nuri, namlik, ozuqalar ta’siri o‘rganilsa o‘quvchilar tabiatni bir butun tizim sifatida o‘rganishga odatlanadilar, qo‘llari va aqllarini bir vaqtda ishlatadilar shu asnoda kreativligi shakllanadi.

Yuqori 8-sinf tabiiy fanlar darslarida "Ayirish sistemasi" mavzusini o‘qitish metodikasi bilan tanishib chiqaylik. Ayirish sistemasi to‘g‘risidagi nazariy materiallar o‘rganilgach o‘quvchilar guruhlarga bo‘linib, buyrak va unda siydik hosil bo‘lish jarayoni fiziologiyasini o‘rganishga kirishadilar. Bu uchun plastmassa, shar, tomchi ukolning sistemasi, shprits, A3 formatdagi qog‘oz, bo‘yoq, suv, baklashka kerak bo‘ladi. Dastlab plastmassadan A3 formatdagi kartonga 2 ta buyrak shaklini yasaymiz. Uning yuqori qismidan yarmi kesib olingan baklashkani o‘rnatamiz. Uning qopqog‘ini teshib 2 ta shprits o‘rnatamiz va ularga sistemani buyrakka keladigan qilib birlashtiramiz. Sistema buyrak bo‘ylab joylashtirilib, qovuqqacha keladi ya‘ni qovuq uchun shardan foydalanamiz. Ayirish sistemasini tayyorlaboldik. Endi biz siydik hosil bo‘lish jarayoni bilan tanishamiz. Buning uchun suvga buyoq tomizib, rangli suv hosil qilamiz. Rangli suvni baklashkadan ehtiyotlik bilan oz-ozdanquyamiz. Rangli suv sistema orqali harakatlanib sharga kelib yig‘iladi.



Demak bu orqali biz o‘quvchilarga buyrakda siydik hosil bo‘lishi va qovuqqa yig‘ilishigacha bo‘lgan jarayon to‘g‘risida tasavvur hosil bo‘lishini ko‘rsatib berdik. Bu vazifani ular guruhlarda ishlab bajarishganda ularda loyihalar asosida ishlash, kreativ fikrlash olgan bilimlarini amaliyotda foydalanish ko‘nikmalari shakllanadi, qo‘llari va aqllarini bir vaqtda ishlatadi. Biologiya darslarida hujayraning tuzilish modelini yasashadi, hujayrada kechadigan jarayonlar, uning organoidlari funksiyasi va tuzilishi, hujayrada joylashishini aniq bilib oladilar.



Uzluksiz ta’lim tizimining bir turi maktabdan tashqari ta‘lim hisoblanadi,lekin umumiy o‘rta ta’lim maktab darslari bilan ularning mashg‘ulotlarini uyg‘unlashtirib olib borishga ehtiyoj seziladi. Rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimlari bilan tanishganimizda o‘quvchilar maktab o‘quv mashg‘ulotlarida

o‘rganilgan mavzular va loyihalar asosida maktabdan tashqari ta’lim tizimida mahsulotlar tayyorlashadi. STEAM o‘quvchilarning loyiha va o‘quv tadqiqot faoliyatini maktabda va maktabdan tashqarida amalga oshirilishi imkonini beradi.

STEAM ta’limi bilim, ko‘nikma va malakalarning ilmiy jihatdan qanday qilib kundalik hayot bilan bog‘liqligini ko‘rsatish orqali sinfdagi dars mashg‘ulotlari va maktabdan tashqari kundalik faoliyatida o‘quvchilarning o‘quv tadqiqotlarini o‘tkazish, tajribalarni bajarib ko‘rish, loyihalashtirishga yo‘naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bunda o‘quvchi yoshlarning qiziqishlarini ertaroq aniqlash va iqtidorini, ijodkorligini rivojlantirishga yo‘naltirish, yangiliklarni hayotga tatbiq etish orqali ilmiy izlanuvchanligi hamda yaratuvchanligini rivojlantiradi. Mazkur o‘quv dasturida o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlashga mo‘ljallangan amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlarini o‘quvchilar mustaqil bajarishga o‘rganadilar.

Xulosa qilib aytganda, STEAM o‘quvchilarni tajribalar o‘tkazish, modellarni konstruksiyalash, musiqa va filmlarni mustaqil yaratish, o‘z g‘oyalarini amalga oshirish va mahsulot yaratishni rag‘batlantiradi. O‘qitishga bunday yondashuv bolalarga nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini samarali amalga oshirish imkonini beradi. O‘quvchilarning ijodkorligini oshiradi, yuqori malakali, zamon talabiga mos kadrlar tayyorlashda mustahkam poydevor bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta’limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PFRQ - 5538-son farmoni. "O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami", 2018-yil 10-sentyabr, 36-son, 722-modda.

2. Shaxmurova G.va boshqalar. Biologiya fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar. O‘quv uslubiy-majmua. Toshkent- 2018

3. Tolipova J.O. va boshqalar. Odam va uning salomatligi darslari (O‘qituvchi kitobi) Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining biologiya o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. (8-sinf) "Tafakkur" nashriyoti. Toshkent - 2016-y.

4. xtxmom.tdpu.uz

# EKOLOGIK TARBIYA MEXANIZMLARINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

***SH.A.MAMAJONOV,***
*FARDU dotsenti, p.f.n.*

*Maqolada oliy ta'limda ekologik tarbiya mexanizmlarini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish masalalari batafsil yoritilgan. Talabalarning ekologik tarbiyasini integral yondashuv asosida rivojlantirishning ko'rib chiqilgan omillar asosida ekologik ta'limning integratsiyalashuvining darajalari aniqlashtirilgan. Ekologik tarbiya ko'p qirrali, integrativ xarakterdagi madaniy va tarixiy jarayon sifatida qaralib asosiy ta'lim kompetensiyalarini birlashtirish asosida ekologik ta'lim mazmunini tanlash va shakllantirish belgilangan.*

***Tayanch tushunchalar:*** *integratsiya, integrativ yondashuv, ekologik tarbiya, ekologik ta'lim, insonparvarlashtirish, komplementarlik, umummadaniy, o'quv-kognitiv, axborot, ijtimoiy-fuqarolik, kommunikativ, shaxsiy o'sish va rivojlanish, ekologik kompitensiya.*

*В статье подробно рассмотрены вопросы разработки механизмов экологического образования в высшей школе на основе интегративного подхода. Определены уровни интеgratsiи экологического образования на основе рассмотренных факторов развития экологического образования обучающихся на основе комплексного подхода. Рассматривая экологическое образование как многогранный, интегративный культурно-исторический процесс, выделение и формирование содержания экологического образования определяется на основе интеgratsiи базовых образовательных компетенций.*

***Ключевые слова:*** *интеgratsiя, интегративный подход, экологическое образование, экологическое воспитание, гуманизatsiя, комплементарность, общечеловеческая, учебно-познавательная, информatsiонная, социально-гражданская, коммуникативная, личностный рост и развитие, экологическая компетентность.*

*The article deals in detail with the development of mechanisms for environmental education in higher education based on an integrative approach. The levels of integration of environmental education are determined on the basis of the considered factors in the development of environmental education of students on the basis of an integrated approach. Considering environmental education as a multifaceted, integrative cultural and historical process, the selection and formation of the content of environmental education is determined on the basis of the integration of basic educational competencies.*

***Basic concepts:*** *integration, integrative approach, environmental education, humanization, complementarity, universal, educational and cognitive, informational, social and civic, communicative, personal growth and development, environmental competence.*

Zamonaviy ta'limga xos bo'lgan integratsiya jarayonlari sharoitida ekologik madaniy shaxsni tarbiyalash nuqtai nazaridan ta'limni insonparvarlashtirish

muammosi yangi mazmunda talqin qilinishi kerak. Hozirgi vaqtda ta'limni insonparvarlashtirish masalasining ko'tarilishi insonparvarlik ta'limini rivojlantirishning asosiy g'oyasi sifatida tan olinishidan dalolat beradi. Xususan, N.Egamberdieva [3] tarbiya va ta'limni insonparvarlashtirish tizimni shakllantiruvchi asosiy tendensiya bo'lib xizmat qilishini, o'qituvchining tahsil oluvchi shaxsiyatining o'ziga xos jihatlariga e'tibor qaratishi, har bir yangilikka ochiq va ongli munosabatda bo'lish imkoniyatini kengaytirishini ta'kidlaydi. Olimaning fikriga qo'shilgan tarzda ta'kidlash mumkinki, ekologik tarbiya jarayonini shaxsga, uning ehtiyojlari, motivlari, qadriyat-semantik munosabatlari va e'tiqodlari tizimiga yo'naltirmasdan turib, uni insonparvarlashtirish mumkin emas.

Shuni ta'kidlash kerakki, talabalarni ekologik tarbiyalashda ekologik ta'lim sifatini oshirishga integratsiyalashgan yondashuvning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydigan mohiyat, mazmun va pedagogik mexanizmlarini tushunish uchun haqiqiy shart-sharoitlarni insonparvarlashtirish g'oyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotimiz kontekstida ekologik tarbiyaning metodologik asoslarini aks ettiruvchi konseptual qoidalar diqqatga sazovordir:

– ekologik madaniyat, ekologik ong, jamiyat va shaxsning noosferik tafakkuri; – yangi sivilizatsiya paradigmasining immanent, yetakchi komponenti, tarbiyaning barqaror rivojlanish modeliga o'tishi, fuqarolik jamiyatini qurish (ekosay sivilizatsiyasi);

– "ekologik tarbiya ta'lim tizimini rivojlantirishning yangi izolyatsiya qilingan yo'nalishi emas, u butun ta'lim jarayonining yangi ma'nosi va maqsadi ekanligi" (S.N.Glazachev) [ 5, 3-b.];

– shaxsning dinamik o'sishi insoniyat sivilizatsiyasi rivojlanishini davom ettirishning o'ziga xos vositasidir;

– ekologik tarbiya barcha tarbiya turlarining asosiy tarkibiy qismidir, uning strategik maqsadlari va yetakchi yo'nalishlarini belgilab beruvchi gross (kelajak maktabining intellektual, axloqiy, ma'naviy) asoslarini yaratadi;

– ekologik tarbiyaning maqsadi – ekologik ongni, jamiyat va shaxs madaniyatini tarbiyalash, dunyoning ilmiy manzarasi va tabiatshunoslik dunyoqarashini rivojlantirish, shaxsning o'rnini ob'ektiv aks ettiruvchi yangi, yaxlit dunyoqarashini shakllantirish;

– ekologik tarbiya tamoyillari majmui, barcha umumiy tarbiyalash turlarining o'ziga xos ekogumanizatsiya; tabiatni o'rganish kabi tarbiyalash funksiyalari va ekologik tamoyillari bilan boyitadi. Bunda komplementarlik (bir-birini to'ldirish) tushunchasi integratsiya; ta'limda va tarbiyada oldindan ko'rish, bashorat qilish xarakteri; global miqyosda o'ylash va harakat qilish; madaniyat va maorif mazmuniga tabiat, atrof-muhit muhofazasi kabi g'oyalarning kiritilishi bilan

tavsiflanadi, chunonchi, oliy ta'lim o'quv rejalaridagi ekologik ta'lim sohasi, yo'nalishi, fan yoki ularning kombinatsiyalashgan ko'rinishlarida aks ettirilmaydi.

Tadqiqotlarimiz mobaynida (2019-2022y.y.) biz oliy ta'limda mutaxassislik fanlari – "Ekologiya", "Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish", "Xalq pedagogikasi"; tanlov fanlar – "Hayot faoliyati xavfsizligi asoslari", "Pedagogik konfliktologiya" o'quv kurslarining fanlararo o'rni, bog'lanishini tahlil qilish orqali integrativ o'qitilishiga yo'naltirilgan ekologik tarbiya tizimida tahsil oluvchilarning ekologik ongini shakllantirish va dunyoqarashini rivojlantiradigan, moslashuvchan, ekologik madaniyatda namoyon bo'luvchi belgilarda ifodalanadigan quyidagi xususiyatlarini aniqladik:

– jamiyatning, mamlakatning ekologik madaniyati, unda yashovchi xalqlarning tabiat va ular xulq-atvori va ekologik faoliyati tajribasi va an'analari tarixining integratsiyasi;

-uyg'unlik mezoni, jamiyat va tabiatning, superetnos va uning atrofidagi landshaftning birgalikda evolyusiya darajasi sivilizatsiya yetukligining ko'rsatkichidir;

– ekologik ta'lim va tarbiya, jamiyat va shaxsda ekologik madaniyatning keng ko'lamli takrorlanishi;

– ekotizimlar, butun biosfera barqarorligi, uning noosferaga aylanishining ajralmas shartidir. Bundan kelib chiqib, aytadigan bo'lsak, oliy ta'limda ekologik tarbiya tizimidagi madaniy muvofiqlik tamoyili fanda mavjud bo'lgan madaniyatni yangi qirralarini faol ishlab chiqaruvchi murakkab belgilar tizimi sifatida tushunishdan kelib chiqadi.

Tarbiya va madaniyatning genetik o'xshashligi ularning tarixan mohiyatidan kelib chiqqanligini, hozirgi zamonda ekologik qadriyatlarning yangi tizimini shakllantirishning o'ziga xosligida, madaniy muvofiqlik prinsipi bilan belgilanishida ifodalanadi. Madaniy muvofiqlik prinsipi ekologik tarbiyani yaxlit pedagogik jarayon sifatida ham, individual pedagogik tizimlarini tashkil etishning umumiy usuli sifatida ham aks ettiradi. Madaniy muvofiqlikni maorif rivojlanishining barqaror tendensiyasi sifatida baholash mumkin. Binobarin, bu tamoyilning mazmun-mohiyati shundan iboratki, ta'lim-tarbiya tizimidagi shaxsiy qadriyatlar sifatida qaraladigan o'quv axborotlari (yangi ilmiy bilimlar, badiiy asarlar, fikr-mulohazalar, baholashlar, yondashuvlar va boshqalar) talabalar tomonidan ishlab chiqilgan. Bir xil muhim munosabatlarda aks ettiriladi va ushbu tamoyilga ko'ra, ekologik tarbiya tizimi madaniyatning maxsus, ilmiy asoslangan qiyofasi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, ekologik tarbiya mazmuni ta'lim tashkilotlarida o'qitiladigan o'quv kurslarining o'zaro bog'liqligi nuqtai nazaridan madaniyatga, uning ayrim qismlariga yoki madaniyatga o'xshash faoliyat turiga mos keladi, chunki madaniyatning ilmiy asoslari o'quv

fanlari tizimida aks etadi. Ushbu tamoyilga ko‘ra, oliy ta’limda ekologik tarbiya tizimi madaniyatning maxsus, ilmiy asoslangan qiyofasi ekanligini ta’kidlash mumkin. Didaktik jarayonlarda aks ettiriladigan tarbiya talabaning shaxsiy madaniy va ekologik o‘sishi jarayoni uchun muhimdir. Ularning turlariga talabaning ekologik og‘zaki va yozma hisobotlari, u bajaradigan uy vazifalari, ekologik yo‘nalishdagi mustaqil, amaliy, ijodiy ishlar va boshqalar kiradi.

Ekologik ta’limning o‘ziga xos xususiyati sifatida S.N.Glazachev komplementarlik tamoyilini didaktik jarayonda muhim, – deb hisoblaydi. Komplementarlik tamoyili ta’limning har qanday sohasini to‘ldiruvchi bo‘lib, ekologik tarbiya, muallif haqli ravishda hisoblaganidek, bu sohalarning barcha qismlarini ekologik madaniyatning ayrim tarkibiy qismlarini aks ettirilgan o‘z tizimiga birlashtiradi. O‘z navbatida, har bir yo‘nalish o‘z ichiga ushbu tizimlarning ekologik jihatlarini qamrab oladi. Shuni ta‘kidlash kerakki, ekologik tarbiyaning an’anaviy ta’lim yo‘nalishlari bilan bog‘liqligi va birligi g‘oyasi integratsiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlariga xos bo‘lgan uzviy bog‘liqlikni amalga oshirishga imkon beradi, bu esa talabalarning tabiatga qadriyatli munosabatini estetik, mehnat va jismoniy tarbiya turlari vositasida shakllantirishning axloqiy munosabatlarida ifodalanadi.

Ekologik ta’limning ko‘rsatilgan xususiyati uning shaxsga turli xil tarbiyaviy ta’sirlarni birlashtirish jarayonida muhim bo‘g‘in vazifasini o‘tashga xizmat qiladi. Bu esa, integratsiya va differensiatsiyaning dialektik birligi tamoyilini o‘zida aks ettiradi. Agar, biz, ekologik tarbiyani talabalarning ekologik madaniyatdagi o‘zini o‘zi belgilashiga yordam beradigan pedagogik o‘zaro ta‘sirlarning maqsadli jarayoni sifatida hisobga olsak, unda oliy ta‘limdagi ekologik tarbiya tizimida shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirishi uchun zarur sharoit yaratish muhimligini ta‘kidlash joiz. Bu, o‘z navbatida, talabalarda ekologik sohadagi shaxsiy qadriyatlar yo‘nalishlarini rivojlantirishga, shu asosda ekologik ongni, ekologik fikrlashni, atrof-muhitga yo‘naltirilgan tuyg‘ularni (tabiatga muhabbat, hamdardlik, atrof-muhitni himoyalash hissi, atrof-muhitga amaliy va samarali munosabat) rivojlantirishga mo‘ljallangan tizimni anglatadi.

Ekologik tarbiya tizimining mohiyatini tushunishga bo‘lgan bunday yondashuv, uni, birinchi navbatda, o‘rganishning asl holatini aniqlash, pedagogik jarayonning bir qismi (atrof-muhit tajribasini o‘zlashtirishga hissa qo‘shadigan), atrof-muhit obyektlari va o‘zini, dunyo tabiatidagi o‘rni va rolini, ekologik-amaliy faoliyat va muloqot usullarini, ijodiy ekologik-kognitiv va transformatsion faoliyat tajribasini bilish, tarbiya (shaxsning qadr-qimmatini rivojlantirishga hissa qo‘shadigan jarayon sifatida), ekologik muammolarga munosabat, ya‘ni baholash, hissiy va samarali-amaliy munosabatlarni rivojlantirish) jarayon sifatida ko‘rib chiqishga asos bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni ta‘kidlash mumkinki, talabalarning ekologik tarbiyasini integral yondashuv asosida rivojlantirishning ko‘rib chiqilgan omillari ekologik ta‘limning integratsiyalashuvining quyidagi darajalarini aniqlashga olib keldi:

– mazmun (integratsiyalashgan loyihalar, kurslar, dasturlar yaratish; oliy ta‘limning turli darajalari (jumladan, umumiy va qo‘shimcha ta‘lim) mazmunini integratsiyalashuvi);

– tashkiliy-texnologik (ta‘lim va tarbiyaning integral shakllari, integrativ texnologiyalar);

– ta‘lim jarayoni ishtirokchilari faoliyatining subyektiv-rolli rejalarini yaqinlashtirish jarayonini aks ettiruvchi shaxsiy-faoliyatli;

– ijtimoiy-pedagogik darajada, uning doirasida shaxs va atrof-muhit o‘rtasidagi munosabatlarni uyg‘unlashtirish va shaxsning madaniy va ekologik rivojlanishi uchun tabiiy muhitning shart-sharoitlarni yaratish va jamiyatga qadriyatli munosabatni tashkil etishning yaxlit tizimi yaratiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Мишин Б.И. Образование как фактор обеспечения личной, общественной и государственной безопасности // Образование и безопасность: проблемы, концепции, реальность: Материалы Всероссийской конференции / -М.: 2002. 84- 85 с.

2.Турдиқулов Э.О. Мутафаккирлар экологик тарбия ҳақида: умумий ўрта таълим мактаб ўқитувчи ва ўқувчилари учун ўқув қўлланма / Масъул муҳаррир А.Абдуқодиров. -Т.: 2003.-122 б.

3. Эгамбердиева Н.М. Атроф муҳит таъсирида талабаларни аҳлоқий тарбиялашнинг илмий-педагогик асослари (педагогика коллежлари мисолида): Пед.фан.ном.дис. -Т.: 2004, -161б.

4. Андреев В.И. В.И. Концептуальная педагогическая прогностика: Монография / Андреев В.И. Казань: Центр инноватsiонных технологий, 2010. 220 с

5. Глазачев С.Н. Теоретические основы формирования экологической культуры учителя.-М.:Радуга, 008.-220с

6. Петров С.Э. Задачи кафедр и учебно-методических комиссий по БЖ и ОБЖ по формированию культуры безопасности молодёжи //Культура безопасности жизнедеятельности: матер. Всеросс. науч.-практич.конф.с междунар.участием.-Балашов: Изд. "Николаев", 2012. -С.334-335.

# INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA O'QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KASBIY TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH

***D.J.XUDOYMURODOVA,***
*TerDU Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi*

*Maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion yondashuv asosida bugungi innovatsion va interfaol usullardan foydalanish turlari va uning afzalik tomonlari misollar asosida batafsil yoritilgan. Kasbiy texnologik yondashuvning zaruriy holati, uning ahamiyati hamda kasbiy ta'limni rivojlantirish, izchillik, tizimlilik tamoyillarini joriy etish, innovatsion texnologiyalar asosida tarbiya berishda pedagogik faoliyatdagi asosiy o'zgarishlar, innotsion texnologiyalarni ta'limda qo'llash natijasida pedagogik metodlar, ta'limni tashkil etish shakllari va ta'lim oluvchilarning ta'lim jarayonini tashkil etishdagi rolini aniqlashtirish masalalari talqin qilingan.*

***Kalit so'zlar:*** *Innovatsiya, interfaol, axborot texnologiyalari, mustaqil fikrlash, ijod etish, izlanish, qiziqishlar, o'quvchi-talaba, ijodiy yondashish, hamkorlik, FSMU, BLIS-o'yini, Chorraha, ta'lim, jarayon, texnologiya yondashuv, kommunikativ yondoshuv, kasbiy tarbiya, metod, tizim, tamoyil, aniqlash, tarbiyalash, rivojlantirish, boshqa texnologiyalar.*

*In the article, the types of use of today's innovative and interactive methods based on the innovative approach of elementary school teachers and its advantages are detailed on the basis of examples. The necessary state of professional technological approach, its importance and the development of professional education, the introduction of the principles of consistency, systematicity, the main changes in pedagogical activity in education based on innovative technologies, pedagogical methods as a result of the use of innovative technologies in education, forms of educational organization and the role of learners in organizing the educational process clarification issues are interpreted.*

***Key words:*** *Innovation, interactive, information technology, independent thinking, creativity, research, interests, pupil-student, creative approach, cooperation, FSMU, BLIS-game, Intersection, education, process, technology approach, communicative approach, professional training, method, system, principle, identification, training, development, other technologies.*

Hozirgi vaqtda kasbiy tarbiyaning yangi tashkiliy tuzilmalari, uning yangi turi va shakllari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida paydo bo'lmoqda. Dunyoning qator mamlakatlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini innovatsion yondoshuv orqali kasbiy tarbiya berishning yangi tamoyillari faoliyat ko'rsatmoqdaki buni respublikamiz ta'lim-tarbiya tizimida ham ken joriy etilmoqda. O'zbekistonda kasbiy tarbiyaning rivojlanishi kadrlar tayyorlashga davlat

buyurtmasi, kasbiy tarbiya xizmatlari va ta'lim mahsulotlari bozorining shakllanishi hamda rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. Bu kasbiy tarbiyaning rivojlanishi sohasidagi menejmentning o'ziga xos jihatlarini belgilab beradi. Hozirgi vaqtda kasbiy tarbiyaning rivojlanishida pedagogik-texnologiyalarni tanlashga texnologik masala sifatida emas, balki ta'lim-tarbiya sohasidagi innovatsion menejment muammosi sifatida qaralmoqda. Bu muammoni muvaffaqiyatli hal etish uchun barcha kichik tizimlar, ya'ni ta'lim tizimi elementlari o'rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtirish zarur. Bu holat o'quvchilarning ilk marotaba maktabga qadam qo'yishi, ya'ni boshlang'ich sinfdan boshlab uni yo'lga qo'yish, kasbiy tarbiyaning rivojlanishi sohasida innovatsiyalar yondashish va ularni keng miqyosda qo'llash jarayonida zamonaviy kasbiy tarbiya tizimi shakllanadi. Zamonaviy kasbiy tarbiya tizimi bir necha komponetlar birligidan iborat bo'lib ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– zamonaviy ta'lim texnologiyalari
– texnologik innovatsiyalar;
- kasbiy tarbiya sohasida yangi iqtisodiy mexanizmlar;
– iqtisodiy innovatsiyalar;
– o'qitish, ta'lim olishning zamonaviy usul va metodlari;
– pedagogik innovatsiyalar;
– tashkiliy innovatsiyalar.

Xuddi ana shunga muvofiq ravishda shakllangan kasbiy tarbiyaning rivojlanishi tizimi menejmenti quyidagi masalalarni qamrab oladi: kasbiy tarbiyaning rivojlantirish muammosini nafaqat kasbiy tarbiya tizimi darajasida, balki umumdavlat siyosati, shuningdek, xalqaro miqyoslarda hal etish; kasbiy tarbiyaning rivojlanishi menejmentining barcha darajalarida tizimlilik tamoyilini joriy etish; kasbiy tarbiyaning rivojlanishini moliyalashtirish va tashkil etishda davlatning vazifasi va rolini zamon talablari asosida belgilash; kasbiy tarbiyaning rivojlanishi mahsulotlari va ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirish; turli ijtimoiy institutlar, eng birinchi navbatda, korxonalar va oilaning ta'lim tizimidagi rolini qayta ko'rib chiqish; ta'lim muassasalari va ta'lim oluvchilarning ta'lim jarayonini tashkil etishdagi rolini aniqlashtirish. Bugungi kunda o'qitish jarayonini boshqarishga yangicha yondashuvlar tashkiliy innovatsiyalarni o'zlashtirish va ularni qo'llashda yaqqol ko'zga tashlanadi:

O'quvchilar guruhi ikki kichik guruhchalarga bo'linadi. Ularning har biri mavzu bo'yicha savollar tayyorlab berish lozim. Dars boshida o'quvchilar

musobaqa shartlari bilan tanishtiriladi. Bunda faqat javoblar uchun emas, balki savollarni to‘g‘ri va aniqligi uchun, qo‘shimcha va tuzatishlar uchun ham ma‘lum ballar belgilanadi. Guruh o‘quvchilarining barchasi faol qatnashishlari uchun esa minus ballar ham ko‘rsatilishi mumkin, masalan, +3 dan -3 gacha noto‘g‘ri javoblar va savollar uchun ballarni ayirish usuli ishlatilishi mumkin. Musobaqa davomida doskaga to‘plangan ballar yozib borilishi mumkin. Dars oxirida g‘olib guruh qatnashchilari qo‘shimcha ballar bilan rag‘batlanishi mumkin. Pedagog esa sinchkovlik bilan javoblarni eshitib, har bir o‘quvchiga baho qo‘yib borishi lozim. Bu usul bilimlarni yanada mustahkamroq egallanishiga, nutq madaniyatini oshishiga, savollarni to‘g‘ri tuzilishiga, o‘z fikrini bayon etishga o‘rgatadi. Eng muhimi esa o‘quvchilarda mustaqil bilimlarni egallash, qidirish, mavzuga ijodiy yondashish oshadi. O‘rganilayotgan mavzu har tomonlama taщlil etiladi va hayotiy jarayonlar bilan bog‘lanadi. Kichik guruhchalar usuli. Bu usulda guruh o‘quvchilari bir necha guruhga bo‘linadi, har bir guruhda 4-5 tadan talaba bo‘lishi mumkin. Har bir guruhning rahbari tayinlanadi. Ularga oldindan vazifa beriladi. Guruh o‘quvchilari darslarga birgalikda tayyorlanib o‘z savollarini to‘liq ochib berishga harakat qilishlari kerak. Boshqa guruhlar asosiy ma‘ruzachiga savollar beradilar, savollarga guruhning o‘quvchilari javob berishda yordam beradilar. Asosiy ma‘ruzachi himoyasidan so‘ng opponentlar savolni yanada tuliqroq izhlab berishlari kerak. Uchinchi va to‘rtinchi guruh o‘quvchilari o‘zlarini fikrlarini bildirgach, tadqiqot olib borgan guruhga baxo qo‘yib izoh berishlari kerak. Bunday usulda ish olib borish uchun guruhlarni tuzishda o‘quvchilarning bilimi teng bo‘lishiga harakat hilish kerak. Guruh rahbari qilib yaxshi o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni tanlash lozim. Bu usulda o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, ijodiy yondashishi, kollektiv bo‘lib ish bajarish kabi malakalari rivojlanadi. O‘quvchilarning o‘zaro munosabati chuqurlashadi va individual xususiyatlar namoyon bo‘lishi ortadi. Ma’lum bo‘limlar tugagach esa, bo‘lim yuzasidan turli musobaqalar o‘tkazish mumkin. Ekspress metodi, KVN metodi (Slaboe zveno), bo‘sh zanjirlarini topish metodi, munozara metodi, muammoli vaziyatlar metodi va boshqalar. Bu borada didaktik o‘yinlarni tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Pedagogika fanida didaktik o‘yinlarni konsepsiyasi hali to‘liq ishlab chiqilmagan, shuning uchun ham unga turli xil ta’riflar beriladi. Bu hol didaktik o‘yinlarni ishlab chiqish va ommalashtirish ishini qiyinlashtiradi. Lekin shunga qaramasdan hozirda o‘quv jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalanish ommalashib bormoqda. Ishlab chiqarishdagi real vaziyatni modelini ko‘chirish va

ishlab chiqarish dinamikasini hisobga olish. Ishlab chiqarish jarayonini rivojlanish, doimiy o'zgarish xarakteriga ega ekanligini yaxshi bilamiz va ishbilarmon o'yinlarni tashkil etish jarayonida buni albatta hisobga olinishi talab etiladi. Biz ana shu vazifani bajarish uchun har bir ixtisoslik bo'yicha o'ziga xos bo'lgan ishbilarmon o'yinlarni ishlab chiqish zarur deb hisoblaymiz.

Ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda FSMU, BLIS-o'yini, Chorraha, Muomila texnologiyasi kabi texnologiyalardan ham foydalanish mumkin. Xullas, yuqorida keltirilgan zamonaviy metodlar, treninglarda qo'llaniladigan texnologiyalar o'quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga yordam beradi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarini innovatsion yondashuv asosida kommunikativ kasbiy tarbiyani rivojlantirish imkoniyatlarini oshiradi.Shunday ekan qanchalik bunday kasbiy kommunikativ yondoshuv tez yo'lga qo'yilsa samaradorlik shunchalik yuqori bo'lar edi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича – Харакатлар стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2017 й.

2. Мирзиёев Ш.М. Ёшлар таълим-тарбияси учун қўшимча шароитлар яратиш бўйича беш ташаббус. - Т.: Сиёсат, 3 апрель 2019 йил.

3. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008 й.

4. Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон келажагининг пойдевори. -Т. Ёзбекистон, 1997 й.

5. Азизходжаева Н. Н. Таълимда педагогик технологияларни қўллаш методикаси. - Т.: Фан, 1990. - 141 с.

6. Боровикова О.И., Загорулько Ю.А. Организация порталов знаний на основе онтологий // Компьютерная лингвистика и интеллектуальные технологии:- М.: Наука, 2002. - Т. 2. - С. 76-82.

# ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРЕЗЕНТАЦИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ДИСЦИПЛИН В УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ

**Р.Х.ДЖУРАЕВ,**
*академик, д.п.н., УзНИИПН*

*В статье обосновывается дифференциация презентаций, используемых в преподавании в высшей школе, плюсы и минусы их применения*

***Ключевые слова:*** *презентации, их дифференциация, методика преподавания и психодидактика в высшей школе.*

*The article substantiates the differentiation of presentations used in teaching in higher education, the pros and cons of their use.*

***Key words:*** *presentations, their differentiation, teaching methods and psychodidactics in higher education.*

В преподавании учебных дисциплин в высшей школе часто преподаватели используют мультимедийных презентации для представления лекционного материала. Привлекательность этого вида представления учебного материала объясняется в первую очередь многочисленными преимуществами использования мультимедиа в качестве маркетингового инструмента:

– информационная ёмкость – возможность в одной мультимедийной презентации разместить большой объём графической, текстовой и звуковой информации; позволяет в полной мере продемонстрировать большую по объёму часть знаний по каждой теме изучаемой дисциплины;

– компактность - в качестве носителей для мультимедийной презентации могут быть использованы различные

типы дисков, USB-карты; но независимо от формы и ёмкости, все эти типы носителей отличаются компактностью и удобством хранения;

– эмоциональная привлекательность - мультимедийные презентации дают возможность представить информацию не только в удобной для восприятия последовательности, но и эффектно сочетать звуковые и визуальные образы, подбирать доминирующие цвета и цветовые сочетания, которые создадут у зрителей позитивное отношение к представляемой информации;

– наглядность – это ключевой аргумент использования мультимедийных презентаций: "лучше один раз увидеть, чем сто раз услышать" или даже прочесть. Отличительные особенности, специфические свойства и закономерности объектов или явлений можно предельно реалистично продемонстрировать именно с помощью современных графических и видеотехнологий мультимедийных презентаций;

– мобильность – для демонстрации необходимы носитель и компьютер, видеопроектор. Оптимальным решением может стать презентация в сочетании с ноутбуком, что особенно важно при выездных контактах;

– интерактивность – возможность непосредственно воздействовать на ход презентации – это одно из важнейших преимуществ мультимедиа. Выбрать необходимую скорость, язык презентации, нужный для представления раздел или блок информации - неоспоримое достоинство мультимедийных презентаций, которое позволяет фокусировать внимание собеседников на выбранных именно преподавателем ключевых моментах;

– экономическая выгода – тиражирование мультимедийных презентаций на дисковые носители или электронные адреса гораздо дешевле, чем другие формы передачи информации. При этом следует учитывать и возможность многократного использования одной мультимедийной презентации, её дополнения новыми текстовыми и графическими материалами, модификации интерфейса и звукового ряда;

Анализ использования автором презентаций более десяти лет в процессе преподавания многих учебных дисциплин позволяет резюмировать следующее [7, 9-10]:

– во-первых, важно дифференцировать презентации, которые используются в преподавании учебных дисциплин в высшей школе. Нам предлагается самая логичная дифференциация таких презентаций:

– по авторству (подготовлены преподавателем или студентом);

– по целям (мотивационные, коммуникационные, информационные, контрольные, обучающие, сравнительные и др.);

– во-вторых, при использовании и создании преподавателем презентаций, в первую очередь для лекций, значимо знать некоторые "минусы" в использовании презентаций.

Первый минус - информационно-перегрузочный, характерный для первых моментов использования презентаций - это нечёткое понимание целей и задач презентаций. Преподаватель, владеющий большим объёмом знаний по определённой теме учебной дисциплины, максимально хочет представить этот объём знаний. При этом происходит перегрузка презентации информацией, графикой, таблицами, что может вести к большому количеству слайдов, слишком высокой скорости изложения, невозможности записи этого материала студентами или слушателями. Перегрузка ведёт к потере эстетичности презентации - слишком большой объём текста приходится размещать мелким шрифтом или использовать большое количество графики.

Для профилактики данного недостатка презентации важно помнить о следующем:

– презентация не должна быть перегружена графикой;

– слайды должны содержать только основные определения, схемы, анимационные и видеофрагменты, отражающие сущность изучаемых явлений;

– общее количество слайдов не должно превышать 15-20;

– не стоит перегружать слайды различными спецэффектами, иначе внимание обучаемых будет сосредоточено именно на них, а не на информационном наполнении слайда;

– тексты должны быть краткими;

– выгоднее использовать сжатый к информационный стиль изложения материала;

– при создании презентации предполагается ограничиться использованием двух или трёх шрифтов;

– одним из важных моментов является сохранение единого стиля, унифицированной структуры и формы представления учебного материала на всей лекции или всей учебной дисциплине.

Второй минус – антимотивационный – взаимосвязан с первым. Перегрузка презентации ведёт к потере эмоциональной привлекательности презентации, её роли как мотивирующего актора. Студенты и слушатели "демонстрируют" отказ от записи и активного слушания лекционного материала, что проявляется в нарушении дисциплины на лекциях. Более того, студенты в этом случае ссылаются на следующее: "Потом посмотрю презентацию", "Дома посмотрю" (если студенты фотографируют слайды или преподаватель рассылает презентацию на групповую электронную почту). Только около 3-5% студентов и слушателей возвращаются к презентации сразу после лекции или к следующему семинару, около 25% используют материалы презентаций при подготовке к зачёту или экзамену. Таким образом, использование презентации ведёт к пассивной работе на лекции, "неактивному" слушанию лекций, отсутствию мыслительной работе студентов на лекции (анализ и выбор материала для записи, сравнение, обобщение этого материала, его синтез с ранее изученным и др.).

Для предупреждения данного недостатка презентации важно "дозировать" информацию и обязательно давать домашние задания, которые возможно выполнить с помощью данной презентации. Одним из дидактических приёмов для проверки этого домашнего задания можно рекомендовать следующее. Оставить некоторые слайды (предварительно сделать в них ошиб-

ки) без обсуждения, но задать их проанализировать вне занятий. На следующей лекции можно в конце дать экспресс-контрольную на 5 минут на тему "Какие ошибки вы нашли в презентации темы...?". Важно, если были допущены ошибки в презентации, обратить на них внимание студентов после экспресс контрольной работы - либо на практическом занятии, либо через электронные письма. Данная экспресс-контрольная работа "избавит" вас и от проверки посещаемости лекций студентами (её можно выявить через результаты экспресс-контрольной работы).

Третий минус – информационно-ограничительный. Одна из важных задач высшей школы – научить студента ориентироваться в пространстве знаний, прежде всего профессиональных, а затем и самостоятельно добывать и применять их в своей профессиональной деятельности. Студенты даже на старших курсах часто не хотят изучать более одного учебника и издания дополнительной учебной и научной литературы (монографии, статьи и др.). Основу этого нежелания можно "заложить" с помощью презентаций - если мы читаем лекции с их использованием, присылаем их студентам, то зачастую студентам достаточно этого материала, следовательно и нет необходимости искать где-либо учебную информацию. Таким образом, студенты теряют интеллектуальную любознательность и желание изучать дополнительную учебную и научную литературу.

Однако эти минусы не мешают применять презентации на лекциях, более интересно использовать презентации на семинарах и практических занятиях.

Во-первых, создание презентации студентами позволяет активно переработать самостоятельно учебный материал и получить опыт использования и представления презентаций (что важно для любого вида профессиональной деятельности), уйти от использования модели "copy-paste" (копировать - вставить из интернет-источников) и чтения докладов "по листочку" и др.

Во-вторых, чрезвычайно важно, что обсуждение презентаций, созданных одногруппниками, позволяет студентам демократично высказать свои замечания студенту ("много текста", "нет графиков и картинок"), при этом преподаватель получает обратную связь-информацию прежде всего по своим презентациям, что значимо для формирования педагогического мастерства преподавателя.

В-третьих, использование презентации на семинарах и практических занятиях позволяет экономить время для организации различных форм групповой деятельности (конференции, дискуссии, деловые и ролевые игры, кейс-стади (case-study). Презентация эмоционально и мотивационно активизирует студентов.

В-четвёртых, презентации могут использоваться и для проведения кон-

трольных форм – тестов, домашних и аудиторных контрольных работ, творческих работ и др.

Таким образом, проанализированный потенциал презентаций как одной из форм и методов организации учебного процесса в высшей школе позволяет спрогнозировать большие ресурсы применения презентаций в процессе обучения, акцентируя при этом внимание на адекватности применения презентаций целям и мотивации обучения в высшей школе.

**Литература:**


1. Кушнер М. Презентации для "чайников" = Presentations For Dummies.- М.: "Диалектика", 2007. С. 544.

2. Лазарев Д. Презентация: Лучше один раз увидеть! - М.: "Альпина Паблишер", 2011.- С. 142.

3. Мухин НА. Отображающие устройства: Что выбрать для презентации?/Интеллектуальное здание. Высокие технологии в строительстве. Intelligent building. № 2. 2005. Часть 2. Презентационное оборудование. С. 16-19.

4. Гагарин А.В. Деятельность личности в информационно-образовательной среде: теоретико-методологические аспекты //Акмеология. № 3(43). 2012. С. 31-37.

5. Москаленко 0.В. Развитие профессионального самосознания руководителей образовательных учреждений. Дис...д. псх. н. - М" 2000.

6. Деркач А.А. В помощь исследователю-акмеологу: о логике акмеологического исследования // Акмеология. № 4. 2013. С. 11-24.

7. Москаленко 0.В. Акмеология профессиональной карьеры личности./Под общ. ред. А.А. Деркача. - М.: РАГС, 2007.

8. Москаленко О.В. Проблема планирования карьеры студентов в предметном поле акмеологии. //Акмеология. 2012. № 4 (44). С. 24-27.

# TA'LIM SOHASIDA KORRUPSIYANING OLDINI OLISH

***SH.QOBILOV,***
*O'zbekiston Respublikasi*
*IIV Akademiyasi professori, polkovnik.*

"Korrupsiya yo'q desak yolg'on bo'ladi,
biroq korrupsiya ichimizda yuribdi".
Sh.M.Mirziyoev.

*Ushbu maqolada ta'lim sohasida korrupsiya va uning oldini olish masalasi o'rganilib, chuqur tahlil etilgan. Ta'lim tizimida o'sib kelayotgan avlodni korrupsiyaga qarshi ruhda tarbiyalash ishlarining yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligi korrupsiyani ildiz otishiga olib kelishi asoslantirilgan.*

***Tayanch so'zlar:*** *ta'lim, tarbiya, halol, "halollik vaksinasi", ma'naviyat, axloq, iymon, e'tiqod, korrupsiya, korrupsiyaga qarshi xulq-atvor.*

*В статье исследуется противодействие коррупции в сфере образовании.*

***Ключевые слова:*** *образования, воспитание, честность, добропорядочность, "вакцина честности", духовность, нравственность, вера, убеждение, коррупция, антикоррупционное поведение.*

*The article is devoted to the study and analysis of corruption in education. It substantiates that the fact that the work in the field of educating the younger generation in the spirit of anti-corruption in the education system is not sufficiently established.*

***Key words:*** *education, parenting, halal, "halal vaccine", spirituality, morale, faith, belief, corruption, anti-corruption behavior.*

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining "Korrupsiyaning oldini olish bo'yicha choralar", deb nomlangan 2-bobi 6-moddasining b-bandida"korrupsiyaning oldini olish masalalari bo'yicha bilimlarni kengaytirish va tarqatish" vazifasi yuklatilgan. Darhaqiqat, jamiyat ahlida korrupsiyaning oldini olish va ularda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirish hamda korrupsiyaning oldini olish masalalari bo'yicha bilimlarni kengaytirish va tarqatish orqali amalga oshiriladi[1]. Ta'lim tizimida o'sib kelayotgan avlodni korrupsiyaga qarshi ruhda tarbiyalash ishlarining yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligi korrupsiyani ildiz otishiga olib keladi.

Kuzatuvlar va tahlillarimiz oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning quyidagi shakllari mavjudligini ko'rsatdi:

– Oliy ta'lim muassasasi (OTM)da davlatga qarashli byudjet mablag'larining talon-toroj qilinishi;

– OTMni akkreditatsiya qilish uchun pora berish;

– tanlov natijasini hisobga olmagan holda OTMni ro‘yxatdan o‘tkazish;

– oliy ta’lim muassasasiga kirish jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;

– oliy ta’limga oid diplom va boshqa hujjatlarni noqonuniy usulda olish;

– talabalarni baholash jarayonida o‘qituvchilar tomonidan korrupsiyaviy tovlamachilik sodir etish;

– korrupsiya yo‘li bilan o‘qishga kirgan va o‘qishdan bo‘yin tovlagan talabalarning o‘qituvchilarga korrupsiyaviy bosim qilishi;

– homiylarning mas’ul o‘qituvchilarga talabalarni qo‘llab-quvvatlash masalasida korrupsiyaviy bosimlar o‘tkazishi;

– talabalarni baholash jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;

– bitiruv malakaviy ishi yoki magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;

– talabalarning davomatini yashirish maqsadida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;

– o‘qish joyini ko‘chirish, o‘qish yo‘nalishini o‘zgartirish hamda o‘qishga qayta tiklash jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;

– ilmiy-tadqiqot jarayonlarida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;

– OTM xodimlaridan korrupsiyaviy maqsadlarda noqonuniy pul mablag‘larini yig‘ish;

– OTMni bitirganligi to‘g‘risida soxta diplom yoki boshqa hujjatlar berish;

– kadrlarni lavozimga tayinlash, ularni ishdan bo‘shatish, moliyaviy rag‘batlantirish jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;

– OTMga davlat xaridlarini amalga oshirishda korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;

– talabalarni yotoq joyi bilan ta‘minlash jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish va boshqalar.

Oliy ta’lim sohasida sodir etiladigan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar talabalar, guruh yetakchilari, o‘qituvchilar, rahbarlar va boshqa shaxslar tashabbusi bilan sodir etilishi keng tarqalgan.

Korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakllari amalga oshirilayotgan islohotlar bilan birga vujudga kelishini xalqaro tajribadan ko‘rish mumkin.

MDH mamlakatlarida OTMga kirish va o‘qishni tamomlash jarayonidagi poraxo‘rlik dolzarb shakllar hisoblanadi. Italiyada mafiya va OTM o‘rtasida

korrupsiyaviy munosabatlar mavjudligi sababli tadqiqotchilar tomonidan bu holat sohadagi yangi korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakli sifatida baholandi. AQShda firibgarlik, plagiat va talabalar uddaburonligi keng tarqalgan boʻlsa, Buyuk Britaniyada OTMni akkreditatsiyadan oʻtkazish bilan bogʻliq korrupsiya muhim ahamiyat kasb etgan. Xitoyda oʻqishni bitirganligi toʻgʻrisida soxta sertifikat berish keng tarqalgan. Birgina AQShda xususiy oliy ta'lim rivojlanishi natijasida universitetlarning davlatdan qarzlari oshishi va bu turli firibgarliklarning sodir etilishiga olib kelgan. Masalan, xususiy oliy ta'lim rivojlangan AQSh va Yevropa mamlakatlarida OTMni davlat roʻyxatidan oʻtkazish jarayonida korrupsiyaviy holatlar koʻp uchrasa, mamlakatimizda xususiy OTM endi rivojlanayotganligini inobatga olgan holda mazkur huquqbuzarlik yaqin kelajakda yuzaga kelishidan koʻz yumib boʻlmaydi.

Abiturientlarga bir vaqtning oʻzida 5 tagacha oliy ta'lim muassasasida tanlovlarda ishtirok etish imkoni berildi. Davlat test markazi tomonidan oʻtkaziladigan kirish test sinovlarini jamoatchilik va aholi toʻgʻridan-toʻgʻri kuzatish imkoniyatiga ega boʻldi. Shu maqsadda barcha bosqichdagi imtihonlar katta pavilonlarda oʻtkazilmoqda. Kasbiy-ijodiy imtihonlar esa ikki bosqichda, ya'ni har bir yoʻnalish oʻz ixtisosligi boʻyicha oliy taʻlim muassasalari tomonidan onlayn translyatsiya qilingan holda tashkil etildi. Ijodiy imtihonlardan soʻng majburiy 3 ta fan ona tili, matematika va Oʻzbekiston tarixi boʻyicha DTM tomonidan test sinovlari oʻtkazildi. Magistraturaga qabul jarayonini adolatli va shaffof oʻtkazish uchun davlat oliy ta'lim muassasalari magistraturasiga qabul abituriyentning bakalavriat diplom bali oʻrtacha koʻrsatkichi hamda xorijiy tilni bilish darajasi boʻyicha tegishli milliy yoki xalqaro sertifikat bali asosida, bal lar ketma-ketligiga qatʻiy rioya qilgan holda amalga oshirildi hamda qoʻshimcha imtihon oʻtkazish amaliyotidan voz kechildi. Ushbu oʻzgarish mazkur jarayonda uchraydigan korrupsion holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Oʻqishni boshqa turdosh taʻlim maskanidan koʻchirishning korrupsiyadan xoliligi taʻminlanmoqda. Talabalar oʻqishini koʻchirish hamda tiklashda barcha jarayon ochiq va shaffof boʻldi. Arizalarni qabul qilish, koʻrib chiqish va qaror qabul qilish onlayn amalga oshirildi. Shuningdek, davlat oliy ta'lim muassasasining biridan boshqasiga talabalar oʻqishini koʻchirishga faqatgina quyidagi ikkita holatda ruxsat berildi:

birinchisi, talaba oila qurgani munosabati bilan turmush oʻrtogʻi doimiy yashaydigan hududdagi oliy ta'lim muassasasiga oʻqishini koʻchirish uchun murojaat qilganda;

ikkinchisi, davlat organlarining xodimlari ish joyi o‘zgargan taqdirda uning turmush o‘rtog‘i yoki voyaga yetmagan farzandi o‘qishini ko‘chirish (tegishli vazirlik (idora) rahbarining tavsiyasi asosida) uchun murojaat qilganda.

Endi oliy ma’lumot olish niyatidagi yoshlar avvaldan o‘qishini ko‘chirib ketish niyatida emas, balki oliy ta’lim muassasasini to‘g‘ri tanlagan holda, shu o‘quv dargohini bitirish maqsadida o‘qishga kirishga intiladi. Mavjud talab va ehtiyojdan kelib chiqib, 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab, mustaqillik berilgan davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘zaro kelishuv asosida oliy o‘quv yurtlari bilan akademik mobillikni amalga oshirish vakolati berildi.

Talabalar o‘qishini xorijdan ko‘chirishda arizalarni qabul qilish va ko‘rib chiqish maxsus portal yordamida bajariladi. Chet eldan o‘qishini O‘zbekistonga ko‘chirish istagida bo‘lgan talabalarning imtihonga tayyorlanishiga yetarlicha vaqti bo‘lishi maqsadida davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishni ko‘chirish bo‘yicha o‘tish bali 2022 yil aprel oyidayoq ommaviy axborot vositalarida e’lon qilindi. Masalan, tabiiy fanlar hamda san‘at yo‘nalishlarida o‘tish bali 80 ball, matematika hamda pedagogika yo‘nalishlarida 94 ball, sotsiologiya va psixologiya, jurnalistika, iqtisod yo‘nalishlarida 105 ball, huquq yo‘nalishida 140 ball, sog‘liqni saqlash sohasida o‘tish bali 129 ball qilib belgilandi.

Bilimni baholashdagi shaffoflik korrupsiyani oldini oladi. Eng keng tarqalgan korrupsiya elementlari mavjud bo‘lgan yana bir tizim talabalar bilimini baholash tartibi ham to‘liq o‘zgartirildi hamda bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risidagi nizomga tegishli o‘zgartirishlar kiritildi.

2022 yil 28 yanvarda Prezidentimiz "2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi farmonni imzoladi. Taraqqiyot strategiyasi qamrovi va ko‘lami zalvarli bo‘lib, o‘zida 7 ta yo‘nalishni mujassamlashtirgan 100 ta maqsad ijro uchun qabul qilindi[6]. Undagi 10-milliy maqsad – Davlat fuqarolik xizmati tizimini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish, deb nomlandi. Ushbu maqsadga samarali yo‘llar bilan erishish uchun qator ustuvor vazifalar rejalashtirildi. Xususan:

– davlat xizmatida korrupsiya omillarini bartaraf etish, kadrlarni tanlov asosida ishga qabul qilish va ular faoliyati samaradorligini baholashning huquqiy asoslarini takomillashtirish;

– davlat xizmatchilari va davlat organlari faoliyatini eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) asosida baholash tizimi bo‘yicha "Milliy reyting" tizimini joriy etish;

– davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta’minot darajasini oshirish tizimini takomillashtirish;

– mahalliy hokimlik organlari, vazirlik va idoralarga rahbarlik lavozimlari uchun munosib nomzodlar tayyorlash maqsadida Milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish;

– davlat xizmatiga kirish, zaxirani shakllantirish, baholash va xizmatni o‘tash bilan bog‘liq jarayonlarni raqamlashtirishni nazarda tutuvchi "Raqamli davlat xizmati" loyihasini amalga oshirish;

– davlat organlarida ish vaqti va mehnat me’yorlari bo‘yicha talablarni qayta ko‘rib chiqish. Ko‘rinib turibdiki, ularning har biri bugungi kunda yechimini kutayotgan dolzarb masalalar. Birgina davlat xizmatida korrupsiya omillarini o‘z vaqtida va to‘liqligicha bartaraf etilishi qolgan vazifalarning muvaffaqiyatli ijrosiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, jamiyatda ham korrupsiya elementlari paydo bo‘lishiga bolta urishi muqarrar.

"Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida"gi Qonunning muqaddimasidayoq davlat fuqarolik xizmatining kasbiy kompetensiyasi keltirilgan bo‘lib, unda davlat organi vakolatlarini lozim darajada amalga oshirish uchun zarur bilim, malaka va ko‘nikmalar majmuiga ega bo‘lish lozimligi alohida qayd etilgan. Negaki, kasbiy mahoratli va malakali rahbar xodimlarga talab kuchayib borayotgan bir paytda ularning kasbiy kompetensiyasi zamon talabidan ortda qolmasligi kerak.

Bundan tashqari, qonunning beshta moddasida davlat fuqarolik xizmatchisini qayta tayyorlash va malaka oshirish bilan bog‘liq bandlar kiritilgan. Jumladan, 42-modda davlat fuqarolik xizmatchisining kompetensiyasini uzluksiz ravishda oshirish, deb nomlangan bo‘lib, unda qator dolzarb masalalar qamrab olingan. Xususan, xodimning kasbiy kompetensiyasini uzluksiz ravishda oshirishdan maqsad uning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakani egallashi uchun shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutadi.

Qayta tayyorlash, malaka oshirish va mustaqil ta’lim olish davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetensiyasini uzluksiz ravishda oshirishning asosiy shakli sifatida qayd etiladi. Shu paytgacha davlat xizmatchilarining atigi 20 foizi malaka oshirgan. O‘qitish sifati ham zamon talabi darajasida emasdi. Shuning uchun xorijiy o‘quv markazlari bilan birga qo‘shma ta’lim dasturlarini yo‘lga qo‘yish muhimligi qayd etildi. Hozirgi kunda vazirlik va davlat qo‘mitalari tasarrufidagi ixtisoslashgan malaka oshirish markazi yoki institutlari bitta tizim xodimlari malakasini oshirish yoxud qayta tayyorlash bilan cheklanib qolgan. Shu bois, ularning soni keragidan ortiq bo‘lmoqda.

Muammoni samarali hal etish uchun mavjud malaka oshirish muassasalarini ko‘p tarmoqli xizmat ko‘rsatish institutlariga aylantirish zarur. Buning uchun qisman turdosh bo‘lgan vazirlik yoki qo‘mitalardagi davlat xizmati xodimlari malakasini oshirish markazlarini birlashtirib, transformatsiya qilish lozim. Buning natijasida ularning moddiy-texnika bazasi kengayishi bilan birga, foydalanish koeffitsienti ham yaxshilanadi.

Yana bir muhim jihati, malaka oshirish institutlari boshqaruv tizimi takomillashadi hamda faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilar saralanib, eng ilg‘orlari ishlay boshlaydi. Bu orqali tejalgan mablag‘ institut yoki markaz moddiy-texnika bazasini yanada yaxshilash, professor-o‘qituvchilarni samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) asosida yanada rag‘batlantirishga zamin yaratadi.

Prezidentimiz ta‘biri bilan aytilganda, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi repressiv yo‘l tutib bo‘lmaydi. Buning uchun, davlat rahbari tomonidan olib borilayotgan siyosatda korrupsiyaning oqibati va natijalari bilan kurashish emas, balki uning oldini olishga qaratilgan preventiv choralarni ko‘rishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiyaviy holatlarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini oshirish, ushbu jarayonga jamoatchilikni keng jalb etish va korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini shakllantirish maqsadida:

1. Mamlakat rivojlanishining bugungi bosqichida korrupsiya O‘zbekiston davlati va jamiyati taraqqiyoti uchun eng jiddiy xavf-xatarlardan biri ekanligi qayd etildi.

2. Korrupsiya holatlarining har qanday ko‘rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish va unga qarshi ayovsiz kurashish barcha darajadagi davlat organlari rahbar va xodimlarining eng ustuvor vazifasi etib belgilandi.

Ta’kidlash o‘rinliki, korrupsiyaga qarshi ta’limni, ma’rifatni samarali tarzda amalga oshirish O‘zbekiston davlati, 36 millionli xalqining farovonligiga korrupsiya qay tarzda tahdid qilishini fuqarolar ongiga singdirish, shuningdek, korrupsiyaga nisbatan salbiy, murosasiz munosabat hamda uning barcha ko‘rinishlariga qarshi chiqish qobiliyatini shakllantirish va nafrat tuyg‘usini qaror toptirishga xizmat qiladi.

Ta’lim, xabardorlik korrupsiyaga qarshi kurashishning nazariy asosi sanaladi. Korrupsiyaga qarshi ta’limda statistik ma’lumotlarning o‘rni beqiyos. Statistik ma’lumotlar korrupsiyaning holatini, xususiyatini, miqyoslarini, o‘zgarishlarini va tendensiyalarini oydinlashtirishda muhim o‘rin tutadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

2021-2022 yillarda O‘zbekistonda korrupsiyaga oid jinoyatchilikka qarshi kurash borasida bir qator amaliy chora-tadbirlar natijasida korrupsiyaga oid

jinoyatlarni fosh qilish darajasi oshganligini O‘zbekiston Respublikasi IIVning "Huquqiy statistika va tezkor-hisob ma’lumotlar markazi"ning quyidagi ma’lumotlari ifodalaydi[7].

| | | |
|---|---|---|
| Sog‘liqni saqlash | 2021 y. - 517 ta | 2022 y. 5 oy-354 ta |
| Bank tizimi | 2021 y. - 324 ta | 2022 y. 5 oy-312 ta |
| Xalq ta’limi | 2021 y. - 210 ta | 2022 y. 5 oy-219 ta |
| Maktabgacha ta’lim | 2021 y. - 201 ta | 2022 y. 5 oy-178 ta |
| Oliy va o‘rta-ma’sus ta’lim | 2021 y. - 109 ta | 2022 y. 5 oy-82 ta |
| Bandlik va mehnat munosabatlari | 2021 y. - 56 ta | 2022 y. 5 oy- 66 ta |
| Qishloq xo‘jaligi | 2021 y. - 33 ta | 2022 y. 5 oy-44 ta |
| Hokimiyatlar | 2021 y. - 150 ta | 2022 y. 5 oy-189 ta |

Yuqoridagi raqamlar mamlakatimiz sog‘liqni saqlash, ta’lim va bank tizimi tashkilotlari hissasiga to‘g‘ri kelayotganligini ko‘rsatmoqda. Har bir inson hayotida ta’lim va tarbiyaning o‘rni beqiyosdir. Ta’lim va tarbiya kelajakda ijtimoiy munosabatlarning komil insoni sifatida shakllanadigan shaxsni yaratadi. Agar, xulq-atvorning korrupsiyalashgan modeli bolalar bog‘chasidan (maktabgacha ta’lim), maktab muhitidan shakllansa, bolalar korrupsiyani illat sifatida emas, balki hayotning me’yori sifatida qabul qila boshlaydi. O‘quvchilarning maktabdan boshlab olgan ko‘nikmalari muhim masalalarni korrupsiya yo‘li bilan hal qilish mumkinligi nuqtai nazarni shakllantiradi va hattoki korrupsiyaga ijobiy munosabat, korrupsion fikrlash va xulq atvorni mustahkamlaydi. Bu xavfni unutmaslik kerak.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2021 yilning 6 noyabrida lavozimga kirishish tantanali marosimda yana bir muhim masalaga to‘xtalib: "So‘nggi besh yilda korrupsiyaga qarshi kurashni davlat siyosati darajasiga olib chiqdik. Shu maqsadda Senat raisi rahbarligida Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi tashkil etildi. Bundan tashqari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ham faol ish olib bormoqda. Bundan buyon ham taraqqiyot kushandasi bo‘lgan ushbu illatga barham berishga davlat va jamiyatning barcha kuch va vositalarini safarbar etamiz. Bu borada aybdorlarni huquqiy javobgarlikka tortish bilan cheklanib qolmasdan, tizimli preventiv choralarni ko‘rish zarur. Shu asosda korrupsiyaning nafaqat oqibatlarini, balki sabablarini oldindan bartaraf etish bo‘yicha ta’sirchan choralar amalga oshiriladi. Lekin hammamiz yaxshi tushunamizki, korrupsiya balosiga qarshi faqat davlat-huquqiy choralar bilangina kurashib bo‘lmaydi. Buning uchun butun jamiyatimizda, avvalo, yoshlar ongida bu illatga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish, barcha sog‘lom kuchlarni birlashtirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xalqparvar davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, qabul qilinayotgan qonun va qarorlarning mazmun-mohiyatini keng ommaga yetkazish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun fuqarolar o‘rtasida qonunga hurmat va amal

qilish hissini shakllantirish – bog‘cha va maktabdan tortib oliygohgacha, barcha ta’lim muassasalarining, har bir oilaning birinchi navbatdagi vazifasi bo‘lishi kerak".

Takliflar:

1. "Korrupsiya davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun eng jiddiy xavf-xatarlardan biri" ekanligini aholi, ta‘lim muassasalari xodimlari ongiga singdirish bo‘yicha "Yo‘l xaritasi"ni ishlab chiqish.

2. Ta’lim sohasida korrupsiyaning aniq sabab va shart-sharoitlarni aniqlashda korrupsiya haqida "ogohlantiruvchi signallar" ro‘yxatini ishlab chiqilishi zarur. Pedagoglarning huquqiy ongi va madaniyatini uzlusz oshirish tizimini yo‘lga qo‘yish.

3. Bosqichma-bosqich ta’lim muassasalari xodimlarini manzilli ijtimoiy himoyalash bo‘yicha normativ hujjatlar qabul qilish, ularning mehnatiga haq to‘lash tizimini isloh qilish, tibbiy xizmat bilan, uy-joy bilan ta’minlash (sotib olish) bo‘yicha imtiyozlar yaratish ishini faollashtirish.

4. Ta’lim sohasida korrupsiyaning kelib chiqishiga sabab bo‘layotgan sansolarlik va rasmiyatchiliklarga barham berishga vijdonan yondashish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

5. Ta’lim sohasida byudjet xarajatlari qismida noqonuniy sarflash, o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida byudjet daromadlari va xarajatlarining soha vakillpari uchun ochiq va oshkora bo‘lishini ta‘minlashni yo‘lga qo‘yish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvensiyasining 2-bobi, 6-moddasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi "O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-5729-son Farmoni /http://www.lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining ma’naviy-ma’rifiy ishlar boshqarmasining ma’lumotlari asosida.

4. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi JXD Huqubuzarliklar profilaktikasi xizmati ma’lumotnomasi - 2022 yil.

5. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.

6. O‘zbekiston Respublikasi IIVning "Huquqiy statistika va tezkor-hisob ma’lumotlar markazi"ning ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

# IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH INDIKATORLARI ASOSIDA XULQIDA OG'ISHI BOR VOYAGA YETMAGAN O'QUVCHILARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH

**F.M.ZARIPOV,**
*Xalq ta'limi vazirligi Ma'naviy-axloqiy tarbiya boshqarmasi bosh mutaxassisi, (PhD)*

*Maqolada o'quvchilar orasida destruktiv g'oyalar profilaktikasiga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar masalalari o'z ifodasini topgan.*
***Tayanch so'zlar:*** *g'ayri-ijtimoiy xatti-harakatlar, dezadaptatsiya, destruktiv g'oyalar profilaktikasi, milliy va mumbashariy qadriyatlar.*

*В статье рассматриваются вопросы педагогических технологий, направленных на профилактику деструктивных идей учащихся.*
***Ключевые слова:*** *асоциальное поведение, дезадапtatsія, профилактика деструктивных идей, natsіональные и общечеловеческие ценности.*

*In the state considered questions of pedagogical technologies, directed to the prevention of destructive ideas of students.*
***Key words:*** *asotsialnoe behavior, maladaptation, prevention of destructive ideas, national and universal values.*

O'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam bosgan mamlakatimizda yoshlarni zamonaviy bilim va tajriba, milliy va umumbashariy qadriyatlarga sodiqlik ruhida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar sifatida voyaga yetkazish ustuvor vazifalardan biriga aylanib ulgurdi.

Hususan, bugungi kunda "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi" degan ezgu g'oya asosida xalq ta'limi tizimida jadal ravishda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur islohotlar natijasida ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning moddiy-ma'naviy sharoiti tubdan yaxshilanib, maktablarda ta'lim-tarbiya sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari joriy qilinmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlarning joylardagi samaradorligi va natijadorligi to'g'ridan-to'g'ri sizning faoliyatingiz bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham, sizlar bilan shunday formatda ko'rishib muloqot qilishimizning ahamiyati beqiyosdir.

Yosh avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilib, ularning erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash borasida mustahkam poydevor yaratildi. Bu sohada ham milliy qonunchiligimiz xalqaro huquqning umume'tirof etgan tamoyillarini tan olgan holda 5 ta xalqaro konvensiyani ratifikatsiya qilidi va o'ndan ortiq qonunlarni amalga joriy etdi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida", "Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida", "Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida", "Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida", "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida"gi "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida" Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida" 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son, "2022 - 2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida" 2022 yil 11 maydagi PF-134-son Farmonlari, "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" 2022 yil 19 yanvardagi PQ-92-son, "Xalq ta’limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" 2022 yil 11 maydagi PQ-241-son qarorlari shuningdek, boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan dolzarb vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Xalq ta’limi tizimida sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, bugungi kun talablariga to‘liq javob bera oladigan har tomonlama yetuk shaxslar etib voyaga yetkazishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar rejasi belgilab olingan. Bu haqda gap ketganda, jahon hamjamiyati tomonidan "Yangi O‘zbekiston el aziz, inson aziz" hamda yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilish borasidagi sa’y-harakatlari yuksak baholanganligining o‘zi kifoya[1].

XXI asrda zamonaviy inson hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarining o‘ta dinamik ritmda, muhim ma’lumotlar oqimida va ma’lum darajada hayot sharoitidagi turli o‘zgarishlarga tez javob berish zaruratida namoyon bo‘lgan xususiyatlari biologik stimullar va ijtimoiy me’yorlarga asoslangan xulq-atvor strategiyalarini qurishdagi odatiy usullarga zid keladi. Chunonchi, inson hayotining zamonaviy sharoitlarining o‘ziga xosligi va paydo bo‘lgan muammolarni bartaraf etish uchun avlodlarning biologik kodlari va tajribasidan foydalanish imkoniyatlarining yetishmasligi ko‘p jihatdan odamlarning psixologik travmatizmining kuchayishini belgilab berdi.

Inqirozli vaziyatda bo‘lish shaxsning hissiy holatida ham, uning atrofdagi odamlar va ular bilan bo‘lgan munosabatlari, o‘zi va dunyodagi o‘rni haqidagi g‘oyalari mazmunida turli xil o‘zgarishlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Ko‘pincha, g‘oyalarni bunday qayta ko‘rib chiqish shaxsning tuzilishidagi o‘zgarishlarga olib keladi. Ular ham ijobiy, ham salbiy bo‘lishi mumkin. Inqirozga uchragan odam bir xil bo‘lib qolishi mumkin emas: ular o‘zlarining haqiqiy travmatik tajribasini tanish, stereotip toifalari nuqtai nazaridan o‘zini tushuna olmaydilar

yoki oddiy odatiy moslashish modellaridan foydalanadilar. Natijada, inqirozli vaziyatdagi subyektning ongida hayotiylikka qarshi ko‘rinishlar paydo bo‘lishi mumkin. Yosh rivojlanishining o‘ziga xos hususiyatlaridan kelib chiqqan holda, hayotdagi inqirozli vaziyatlarda eng zaif bo‘g‘ini – bolalar va o‘smirlardir.

Ta’lim muassasalari faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri yosh avlodni tarbiyalash va o‘qitish bilan bir qatorda o‘quvchi va o‘quvchilar salomatligini asrash va mustahkamlashdan iborat. Bolalar va o‘smirlarning psixologik salomatligini saqlashda ta’lim muassasasining psixologik xizmati muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchi-psixologning vazifalari o‘quvchilarning rivojlanishidagi inqiroz davrlarini psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash, inqirozli vaziyatdagi bolalarga psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi.

Bolalar va o‘smirlarda g‘ayri-ijtimoiy xatti-harakatlarining oldini olish ota-onalar, pedagoglar va maktab psixologlarining dolzarb va muhim vazifalaridan biridir.

Insonning ruhiy hayoti nihoyatda murakkab, chunki psixika bir-birini aniqlaydigan ikkita komponentdan iborat: onglilik va ongsizlik – ong va ong osti. Ongsiz sohada o‘ziga, boshqalarga va umuman hayotga qat’iy munosabat muhim ahamiyatga ega. Bu munosabat va psixologik himoya bilan belgilanadi. Bolaning hissiy va shaxsiy rivojlanishida psixologik munosabatlar qanday rol o‘ynashini tushunish ayniqsa muhimdir.

Bolalar va o‘smirlar g’ayri-ijtimoiy xatti-harakatlarining oldini olish tizimini yaratish haqiqatda bolalar va o‘smirlarni, ayniqsa inqirozli vaziyatda bo‘lganlarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirishni ta‘minlaydigan tashkiliy-pedagogik chora-tadbirlarning yagona kompleksini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Shu munosabat bilan o‘qituvchilar va ta’lim muassasalarining barcha xodimlari, ijtimoiy o‘qituvchilar, ota-onalarning psixologik xabardorlik darajasini ham oshirish, ham inqirozli vaziyatda bolalar va o‘smirlarga psixologik yordam ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Ko‘p hollarda "destruktiv xulq" iborasi ilmiy davralarda tilga olinadi. Aslida esa jamiyat tomonidan qabul qilingan, e’tirof etilgan me’yor va rollarga mos kelmaydigan, muqobil nuqtai nazarlarga radikal ravishda qarshi yo‘naltirilgan xulq-atvor, oddiy til bilan aytganda, buzg‘unchilik g‘oyalarining tarqatilishi ana shu faoliyat turiga mansubdir.

Destruktiv faoliyat boshqa insonlar, jamiyat, davlat, tabiiy muhit, madaniy-tarixiy yodgorliklar, turli buyumlar, shuningdek, shaxsning o‘z taqdirini o‘zgartirishi (tubanlashuvi, inqirozi, suitsid) bilan tavsiflanadi.

2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida ta'lim tizimi, turlari va shakllari belgilab berildi. Ushbu yangi qonun ta'lim tizimining transformatsiyasining ta'minlash va uning huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Qonunda professional ta'limni alohida moddalar bilan yoritilganligi jahon mehnat bozorida o'rta bo'g'in kadrlarga bo'lgan ehtiyoj doimiy mavjudligidan kelib chiqib O'zbekiston sharoitida ham o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash dolzarb masala bo'lib qolishini ko'rsatmoqda. O'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlash borasida AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Koreya Respublikasi, Kanada, Avstriya, Saudiya Arabistoni, Bolgariya va Finlandiya kabi davlatlarning ilg'or tajriba va amaliyotlari O'zbekiston professional ta'lim tizimining transformatsiyasini ilmiy yondoshuvlar asosida takomillashtirishga xizmat qiladi. Jumladan, Germaniya, Buyuk Britaniyada boshlang'ich professional ta'lim dasturlari 9, 10-sinf bitiruvchilariga, Koreya Respublikasi, Finlandiya, Saudiya Arabistonida 9-sinf bitiruvchilariga beriladi. Shuningdek, Buyuk Britaniya, Koreya Respublikasi, Saudiya Arabistonida o'quvchilar 9-sinfni tamomlaganidan so'ng o'z xohishiga ko'ra akademik ta'limni yoki professional ta'limni tanlash huquqiga ega bo'ladi. Professional ta'lim muassasalarida kasb va mutaxassislik egallashlari, ta'lim olish davomiyligi boshlang'ich ta'lim dasturlari bo'yicha 3 yil (Buyuk Britaniya, Koreya Respublikasi, Saudiya Arabistoni), 1-5 yil (Avstriya), 2 yil (Fransiya), 1-3 yil (Germaniya, Bolgariya), 3 yil (Italiya, o'rta professional ta'lim dasturlari bo'yicha 3 yil (Latviya), 2-3 yil (Germaniya, Koreya Respublikasi), 1-2 yil (Ispaniya), 1-4 yil (Buyuk Britaniya), 1 yil (Braziliya). O'rta maxsus professional ta'lim dasturilari 2 yil (Koreya Respublikasi), 2-3 yil (AQSh, Kanada, Yaponiya), 2-5 yil (Saudiya Arabistoni), 2 yil (Braziliya) etib belgilangan. Ushbu mamlakatlarda boshlang'ich professional ta'lim hamda o'rta professional ta'lim dasturlarini tugatgan bitiruvchilarga O'rta maxsus professional ta'lim dasturlarida ta'lim olish imkoniyatlari beriladi. Mehnat bozori talablariga mos kadrlarni tayyorlashda ta'lim jarayonini bevosita amaliyot bilan uyg'unlashtirilgan holda tashkil etish ish beruvchilarning ehtiyojlarini qondirishda eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Bu borada Germaniyaning Dual ta'limi modeli bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida foydalanish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, "Dual ta'lim" modeli talabiga muvofiq o'quvchi o'qishga kirishidan oldin ish beruvchi bilan shartnoma tuzadi. Shartnomaga muvofiq o'quvchi haftada 2 kun ta'lim muassasida o'qib, 3 kun korxonada ishlaydi. Ishlagan davri uchun unga ish haqi to'lanadi. O'qish tugaganidan so'ng o'quvchi ishini shu korxonada davom ettirishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2021/2022-o'quv yilidan boshlab professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida"gi 163-son qarori qabul qilindi. Qarorda dual ta'limni tashkil etish, uning bosqichlari, o'quv jarayoni va

ishlab chiqarish amaliyotini olib borish tartibi, dual ta’lim ishtirokchilarining vazifalari, huquq va majburiyatlari belgilab qo‘yildi. Ushbu model asosida O‘zbekiston professional ta’lim tizimida Dual ta’lim prinsiplarini joriy etish ikkita asosiy masalalarni hal etishga xizmat qiladi.

Bu borada Koreya Respublikasida ham samarali tajribalar joriy etilgan bo‘lib, 9-sinf yakuniga ko‘ra yirik ish beruvchilar tanlov e’lon qilib, stipendiya ajratish evaziga qobiliyatli o‘quvchilarni kasbiy ta‘lim olishlarini rag‘batlantiradi. O‘qish yakuni bo‘yicha ular mazkur korxonalarda ishni davom ettirishlari mumkin. O‘quvchilarning bilimini baholash Mustaqil baholash (sertifikatlash) organlari tomonidan (Buyuk Britaniya), "Dual ta’lim" modelida kasbiy ta’limning nazariy qismi kollejlar, amaliy qismi esa maxsus komissiya tomonidan (Germaniya), ta’lim muassasasi qoshidagi komissiyalar tomonidan (Yaponiya) baholanadi. Shu jumladan ham O‘zbekistonda mutlaqo yangi professional ta’lim tizimi yaratildi hamda uch toifadagi Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda Xalqaro tasniflagich) darajalari bilan uyg‘unlashgan yangi boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta’lim dasturlari joriy etiladigan ta’lim muassasalari tarmog‘i tashkil etilishi bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Unga ko‘ra, 2020-2021 o‘quv yilida professional ta’lim tizimida respublika bo‘yicha jami 725 ta ta’lim muassasasi, ya‘ni 339 ta kasb-hunar maktabi, 201 ta kollej va 185 ta texnikum faoliyati tashkil etildi.

Ushbu professional ta’lim muassasalarida xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilgan ta‘lim dasturlari asosida oilaviy biznes, tomorqa biznesi, qurilish, xizmat ko‘rsatish, chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik, baliqchilik kabi iqtisodiyotimizda muhim o‘rin egallagan 200 dan ortiq kasb bo‘yicha kadrlar tayyorlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, kasb-hunar maktablarida ta’limning xalqaro standart tasniflagichining 3-darajasiga mos keluvchi 2 yillik ta’lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilari boshlang‘ich professional ta’lim bilimlarini oladilar. Kollejlarda ta’limning xalqaro standart tasniflagichining 4-darajasiga mos keluvchi, kasblarning murakkablik darajasidan kelib chiqib 2 yilgacha bo‘lgan muddatda o‘qitishga mo‘ljallangan ta’lim dasturlari asosida aniq ish o‘rinlariga yo‘naltirilgan o‘rta bo‘g‘in mutaxassislari tayyorlanadi. Vazirliklar va idoralar tizimida faoliyat ko‘rsatadigan va shu sohadagi investitsiya loyihalari hisobiga tashkil etilayotgan aniq ish o‘rni uchun mutaxassislar tayyorlaydigan ushbu kollejlarga maktablarning 11-sinf bitiruvchilari qabul qilinadi. Yirik korxona va tashkilotlar yaratiladigan ish o‘rinlari uchun o‘zlari kadrlar tayyorlash mexanizmini joriy etish vazifalari belgilangan. Texnikumlarda esa ta’limning xalqaro standart tasniflagichining 5-darajasiga mos keluvchi, bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bilan integratsiyalashgan, kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllarida kamida 2 yil muddatga mo‘ljallangan ta’lim dasturlari asosida 11-sinfni tugatgan yoshlar o‘qitiladi. 2 yillik tahsildan so‘ng bitiruvchilar oliy ta’lim muassasasiga o‘qigan kasbi bo‘yicha suhbat asosida o‘qishga qabul qilinishi ta‘minlanadi. Bu tizim oliy ma’lumot olish niyatida bo‘lgan ko‘p sonli maktab bitiruvchilarini oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini 2020-yilda kamida 25 foizga va kelgusida 50-60

foizga etkazish uchun xizmat qiladi. Professional ta'limning yangi, uzluksiz formati malakali o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlash barobarida jamiyatimizda inson resurslarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Olib borilgan tahlillar asosida xulosa qilib aytish mumkinki, raqobatbardosh mehnat bozoridagi kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarning shakllanishida va ish beruvchilarning talablariga javob berishda bitiruvchining ma'lumot darajasiga qo'shimcha ravishda amaliy ko'nikmalar ya'ni tegishli kompetensiyalar mavjudligiga ishonch xosil qilish uchun har tomonlama puxta o'ylangan ta'lim tizimini yaratishni taqozo etadi. Xalqaro ta'lim tizimi bilan O'zbekiston ta'lim tizimini o'zaro uyg'unlashuvini ta'minlash orqali bitiruvchilarning malakalarini xalqaro mehnat bozorida ham tan olinishiga olib keladi. Ta'lim tizimi transformatsiyasi jarayonida yangi professional ta'lim tiziming o'rni va ahamiyatini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

– professional ta'lim tizimining mehnat bozoridagi ulushi yuqori ekanligidan kelib chiqib, oliy ma'lumot talab etilmaydigan ish o'rinlariga mazkur yangi tizimda kadrlar tayyorlash hajmini bosqichma-bosqich oshirib borish;

– professional ta'lim tizimini xalqaro ilg'or tajribalardan kelib chiqib takomillashtirib borish choralarini belgilash va amalga oshirishda davlat hamda ish beruvchilarning ishtirokini kengaytirish;

– xalqaro miqyosidagi o'rta bo'g'in kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish va mehnat resurslari eksportida O'zbekiston ulushini yanada kengaytirish uchun professional ta'lim va xalqaro mehnat bozoridagi ish beruvchilarning to'g'ri hamkorligini rivojlantirish;

– ichki mehnat bozorining ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda ayrim kasb va mutaxassisliklar bo'yicha o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlashda davlat buyurtmasini oshirish.

Yuqorida belgilab berilgan ustuvor vazifalarni amalga oshirish natijasida mavjud muammolarga echim topish orqali yoshlar bandligi ta'minlanadi, ishlab chiqarish, sanoat taraqqiy etib, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishga hissa qo'shiladi albatta.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. UNESCO UNEVOC TVET (Professional ta'lim) tizimi - 2013.

2. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktabr 2020-yil 5/2020 (№ 00049) http://iqtisodiyot.tsue.uz 222

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 5812-son farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida"gi 163-son qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ma'lumotlari.

# PEDAGOGNING UMUMIY PROFESSIONAL KOMPETENTLIGI STRUKTURASIDA INFORMATSION KOMPETENTLIKNING TUTGAN O‘RNI VA ROLI HAQIDA

***J.G‘.G‘ULOMOV***
*TDPU, Informatika va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi*

*Ushbu maqolada mamlakatimizda ta’limni isloh qilish jarayoni butun dunyodagi global kompyuterizatsiya va informatizatsiya davri bilan baravar boshlandi. Shu maqsadda ta’limda kompyuterizatsiya va informatizatsiyaning faktorlaridan maqsadli va to‘g‘ri foydalanish individning intellektual rivojlanish jarayonida yaratilgan katta imkoniyatlar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Kompyuterizatsiya, informatizatsiya, informatsion jamiyat, tayanch kompetensiya, umumpredmet kompetensiya, predmet kompetensiya.*

*This article, the process of reforming education in our country began with the global era of computerization and informatization. To this end, the purposeful and correct use of the factors of computerization and informatization in education provides great opportunities created in the process of intellectual development of the individual.*

***Key words:*** *Computerization, informatization, information society, basic competence, general subject competence, subject competence.*

*В данной статье процесс реформирования образования в нашей стране начался с глобальной эпохи компьютеризации и информатизации. С этой целью целенаправленное и правильное использование факторов компьютеризации и информатизации в образовании дает большие возможности, создаваемые в процессе интеллектуального развития личности.*

***Ключевые слова:*** *Компьютеризация, информатизация, информационное общество, базовые компетенции, общепредметные компетенции, предметные компетенции.*

Global kompyuterizatsiya va informatizatsiya asrida bunday imkoniyatlardan foydalanish muayyan metodik yondashuvlarni talab qiladi va avtoritar pedagogikadan shaxs pedagogikasiga o‘tish zaruriyatini vujudga keltiradi.

Informatsion jamiyatga o‘tish davrida kadrlarning professional kompetentligiga, xususan, ularning informatsion kompetentligiga qo‘yiladigan talablar kuchayadi.

Sinonim tarzda qo‘llanib kelayotgan "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini keskin farqlash zarur. Kompetensiyaning struktur komponentlari sifatida quyidagilarni ta’kidlab ko‘rsatish mumkin: kompetensiyaning nomi;

kompetensiyaning tipi; kompetensiya bilan munosabatga kirishadigan borliqning real obyektlari doirasi; kompetensiyaning ijtimoiy-amaliy shartlanganligi va ahamiyati (uning sotsiumda nima uchun zarurligi); kompetensiyaning shaxsiy ahamiyati (ta‘lim oluvchi nimada va nima uchun kompetent bo‘lishi kerak); real obyektlarning mazkur doirasi haqida bilimlar; ta’lim oluvchining mazkur kompetensiya sohasida minimal zaruriy tajribaga ega bo‘lishi (ta’lim bosqichlari bo‘yicha); ta’lim oluvchining (ta’lim bosqichlari bo‘yicha) kompetentligi darajasini aniqlash uchun yo‘naltirilgan misollar, o‘quv va nazorat-baholash vazifalarining namunalari. Yuqorida keltirilganlar asosida ta’lim kompetensiyalarini loyihalash va tavsiflash uchun xarakteristikalar yig‘indisini tuzib chiqish mumkin. Ular normativ hujjatlarda, o‘quv va metodik adabiyotlarda, shuningdek, muayyan mutanosib o‘lchovlarda ta’lim oluvchilarning tayyorgarligini o‘lchash uchun asos bo‘la oladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki kognitiv kompitentlikni rivojlantirish uzluksiz ta’lim uchun bevosita bog‘liqdir masalan [1-66b] ushbu maqola mualliflarining fikriga ko‘ra, universitet va ta‘lim muassasasi hamkorlikda bolalar va o‘smirlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi va o‘zini o‘zi anglashini ta’minlash uchun birlikda har tomonlama rivojlanishini amalga oshirishga chaqiriladi. Ularning intellektual va psixologik faolligini rag‘batlantirish va innovatsion jarayonlarda ishtirok etish istagini shakllantirish ishlari olib borilgan. Ushbu maqolada [2-1256b ] zamonaviy sharoitda doktoranturaning vazifalari nafaqat olimlarni tayyorlash, balki oliy o‘quv yurtlari va ilmiy tashkilotlarni pedagog kadrlar bilan ta’minlash masalalariga e’tibor qaratilgan. Kasbiy tayyorgarlikning zaruriy bosqichi sifatida pedagogik kompetensiyalarni o‘zlashtirishga bog‘liqdir. Ushbu maqola [3, 122b] mualliflari Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy-psixologik kompetensiya va axloqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish ishlari ushbu tadqiqotda keltirilgan.

Standartlarda mutaxasis tayyorlashga nisbatan oldindan belgilab berilgan me’yorlarga ko‘ra "kompetentlik" termini mutanosib kompetensiyalarga ega bo‘lgan mutaxasisga nisbatan qo‘llanadi.

Pedagogik ta’lim sohasiga nisbatan kompetensiyaning uch darajasini ajratib ko‘rsatish mumkin:

– tayanch kompetensiyalar, ular ta’limning umumiy (metapredmet) mazmuniga taalluqlidir;

– umumpredmet kompetensiyalar, ular o‘quv fanlarining ma’lum bir doirasi va ta’lim sohasiga taalluqli bo‘ladi;

– predmet kompetensiyalar, ular yuqoridagi ikki daraja kompetensiyaga

nisbatan xususiy bo‘lib, aniq tavsifga va o‘quv predmetlari ramkasida shakllanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Mutaxasis umumiy professional kompetensiyaga ta’lim olish va ayrim amaliy tajribalarga ega bo‘lish natijasida erishadi. Ta’limni informatizatsiya qilish bilan bog‘liq ravishda informatsion kompetentlik pedagog umumiy professional kompetensiyasining eng muhim elementi bo‘lib hisoblanmoqda.

Pedagog informatsion kompetensiyasining shakllanishi uchun asos bo‘lib "Informatika va informatsion texnologiyalar" fani xizmat qiladi. Mazkur fanning dasturi, maqsadlari, vazifalari, ya‘ni informatsion kompetentligi predmetlararo aloqalar bilan bog‘liqlikda ishlab chiqilishi zarur [4, 577b]. Bu aloqalarning chuqurligi informatsion kompetensiyani umumpredmet yoki predmet kompetensiyaga tegishli bo‘lishiga imkoniyat yaratadi. Bugungi kunda "Informatika va informatsion texnologiyalar" fanini o‘qitishning holati umumpredmet informatsion kompetentlik haqida fikr yuritishga asos bo‘ladi, chunki u informatikaning ilmiy predmet sifatidagi quyidagi asosiy tushunchalari va metodlari haqida bilimlarga ega bo‘lishni taqozo qiladi:

– elektron shaklda taqdim qilingan ma’lumot bilan ishlash malakasiga ega bo‘lish;

– zamonaviy informatsion massivlarda ma’lumotlarni izlash va saqlashning ratsional metodlaridan foydalanish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish;

– telekommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda mashg‘ulotlarni o‘tkazish va tashkil qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

– Internet-texnologiyalar vositasida mustaqil ishlashni tashkil qila olish va b.

Shu bilan birga, bir vaqtning o‘zida informatsion kompetensiyaning boshqa fanlar bilan aloqasini kuchaytirishga yo‘naltirilgan tadbirlar ham amalga oshirilmoqda (masalan, informatika - mutaxassislik fani juftligi).

Bo‘lg‘usi pedagog informatiklarning professional kompetensiyasining mukammallashtirishga qaratilgan yo‘nalishlardan biri sifatida predmetlararo aloqalarni chuqur tadqiq qilish asosida predmet va informatsion kompetensiyasini shakllantirish hisoblanmoqda [5, 348b]. Bu o‘rinda umumta’lim "Informatika va informatsion texnologiyalar" predmetini mutaxassislik fani bilan integratsiyasi xususida so‘z bormoqda, buning natijasida, birinchi bosqichda informatsion kompetentlik professional ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyat sifatida namoyon bo‘ladi, kelguvsida esa gibrid o‘quv fani shakllantiriladi. Bizningcha, pedagogning umumiy professional kompetentligi strukturasida informatsion kompetentlikning tutgan o‘rni va roli qanday? degan savolga shu tarzda javob berish mumkin bo‘ladi.

Bizning tadqiqotimida bo‘lg‘uvsi pedagoglarni informatsion tayyorlash muammosi shaxsga yo‘naltirilgan va professional – faoliyat yondashuvlar, asosida ko‘rib chiqilgan.

Buning natijasida quyidagilar aniqlandi:

– dars o‘tishda ma‘ruzachining o‘quv materialini tushuntirishining soddalashtirilishi;

– o‘quv jarayonida original o‘rnida modellashtirilgan obyektlarni kuzatish mumkinligi;

– o‘rganilayotgan materialning takroriy holda berish imkoniyatining mavjudligi;

– o‘quvchilarning darsda o‘zlashtirish darajasining yuqori bo‘lishi;

– virtual stendlar yordamida amaliy-laboratoriya ishlarining bajarishga zamin yaratilishi;

– virtual stendlar maxsus, jihozlangan xona talab etmasligi;

– o‘quv jarayonini video va animatsiyalar bilan boyitib borish natijada o‘quvchilarning darsga qiziqishining uyg‘otilishi;

– ta’limning gumanizatsiyalashuvini ta‘minlash;

– ta’lim oluvchining kommunikativ va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

– o‘quvchilar bilimini yakka tartibda nazorat qilish kabi imkoniyatlarni yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Djuraev, R. X., & Karaxonova, L. M. (2022). Педагогическое сопровождение одаренных детей образовательными учреждениями. Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal, 3(4), 66-70.

2. Djuraev, R. X. (2021). Пути совершенствования педагогической подготовки докторантов. Асадемис ресеарч ин эдусатионал ссиэнсэс, 2(ССПИ сонференсэ 1), 1256-1260.

3. Komilova, D. (2022). Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish omillari. Обществo i innovatsii, 3(3/S), 534-539.

4. Samadova U. I. Q. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida milliy va umummadaniy kompitentini shakillantirish //scientific progress. - 2022. - Т. 3. - №. 3. - С. 577-581.

5. Ibragimova, S., & Ismoilova, Z. (2020). Bolajak boshlangich sinf oqituvchilarining metodik kompitentligini shakllantirish pedagogik muammo sifatida. Academic research in educational sciences, (4), 347-351.

# MALAKA OSHIRISH KURSLARIDA ARALASH TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA INGLIZ TILINI O'QITISHNI LOYIHALASHTIRISH

***U.E.GIYASOVA,***
*TDPU, «Aniq va tabiiy yo'nalishlarida xorijiy til» kafedrasi o'qituvchisi*

*Mazkur maqolada malaka oshirish kurslarida aralash ta'lim texnologiyalardan foydalanib ingliz tili o'qitish jarayonini loyihalashtirish masalalariga bag'ishlangan.*
***Kalit so'zlar:*** *aralash ta'lim, loyihalashtirish, elektron muhit, malaka oshirish jarayonlari, o'qitish tamoyillari, kasbiy tayyorgarlik, motivatsiya*

*Данная статья посвящена проектированию процесса обучения английскому языку с применением технологий смешанного обучения на курсах повышения квалификatsiи.*
***Ключевые слова:*** *смешанное обучение, проектирование, электронное пространство, процессы повышения квалификatsiи, принципы обучения, профессиональная подготовка, мотиваtsія.*

*This article is devoted to the design of the process of teaching English using blended learning technologies in the professional development courses.*
***Key words:*** *blended learning, design, electronic environment, professional development processes, teaching/learning principles, professional training, motivation.*

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Bu o'z navbatida oliy ta'lim muassasalari, malaka oshirish markazlarida sohalarga yo'naltirilgan xorijiy tilni o'qitish, zamonaviy yondashuvlar, ta'lim berish va ta'lim olishdagi samarali metodlarni tadbiq etish, baholashni tashkil etish, umumiy maqsadlarga yo'naltirilgan xorijiy til (Language for General Purposes, LGP) dan, maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan xorijiy til (English for Specific Purposes, LSP) kompetensiyalarini shakllantirishga o'tish metodologiyasini nazarda tutadi.

Ilmiy-adabiyotlar tahlilidan ma'lumki, xorijiy tillarni o'qitishning uchta asosiy komponenti ajratib ko'rsatiladi, bular: lingvistik, psixologik va metodologik komponentlar.

Lingvistik komponent bu – til, nutq materiallari va tilning ijtimoiy-madaniy o'ziga xosligi, kommunikatsiya, til va muloqot madaniyati, tilning fonetik,

grammatik, leksik minimumlari hamda vaziyatli-tematik muloqot kompetensiyalarini shakllantirish bilan bog‘liq tilshunoslik sohasi hisoblanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, til o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, aralash ta‘lim imkoniyatlaridan foydalanish, lingvodidaktika sohasida o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Buning sababi shundaki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari maxsus didaktik xususiyatlarga ega – bu axborot va kommunikatsiya, ulardan foydalanish ta’lim jarayoni didaktik muammolarni eng maqbul va samarali hal qilishga yordam beradi.

Bizning fikrimizcha, malaka oshirish ta’lim jarayonida chet tillarni o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ehtiyojlarga yo‘naltirilgan turli xil kurslarning yaratilishiga, ta’limning individuallashuviga olib keldi. Jumladan, aralash ta’limni lingvistik ta’limda qo‘llashning amaliy tajribasini tahlili shuni ko‘rsatadiki, u o‘qitishning eng samarali shakllaridan biri hisoblanib, quyidagilarga imkon beradi:

– kommunikativ ko‘nikmalari, kommunikativ madaniyatini shakllantirish;

– chinakam muloqot maqsadida chet tilidan foydalanish zarurati paydo bo‘lishi uchun haqiqiy lingvistik muhitni yaratish;

– axborot bilan ishlash ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish;

– doimiy mulohazalarni tashkil yetish va hokazo.

Psixologik komponent – tilning muloqot vositasi sifatidagi o‘rni va ahamiyati, o‘quv-bilish jarayonlarida nutq ko‘nikmalarining tizimli rivojlanishi bilan bog‘liq jarayonlarni qamrab oladi.

Shu bilan birga, malaka oshirish jarayonlarida katta yoshli ta’lim subyektlarining xorijiy tilni o‘zlashtirish jarayonidagi psixologik komponent ham aynan yosh va ijtimoiy status bilan bog‘liq holda uchraydigan psixologik to‘siqlarni muvaffaqiyatli yengishni rag‘batlashda o‘z ifodasini topadi.

Metodologik kompoenent – muloqot vositasi sifatida yozma va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik-metodik jihatlarini tadqiq etish va yangi yondashuvlarini amaliyotga joriy etishga qaratilgan yo‘nalish hisoblanadi.

Xususan, N.S.Maleskaya xorijiy tillarni o‘qitish metodlarini samarali tanlanishida: metodning dars maqsadi va uning har bir bosqichiga mos kelishi; o‘quv materialining murakkablik darajasi va tarkibiy tuzilmasini inobatga olish; ta’lim oluvchilarning qisman-izlanish, izlanishga asoslangan o‘quv faoliyatini tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘lgan interfaol metodlarning barcha turlaridan foydalanishni afzal bilish; ta’lim oluvchilarning mustaqil bilish faoliyatining yuqori darajasi; ta’limning amaliy metodlariga ustuvor ahamiyat berish: ularning ulashi, ayniqsa, ko‘nikma va malakalarni shakllantiruvchi, bilimlarni amaliyotda qo‘llashni talab qiluvchi darslarda katta bo‘lishi zarur; bilimlarni shakllantiruvchi, mustahkamlovchi va takomillashtiruvchi darslarda ko‘rgazmali va amaliy metodlarning hisobiga og‘zaki metodlar hajmini kamaytirish; metodlarni ularning

kompensator imkoniyatlarini inobatga olgan holda o‘zaro muvofiqlashtirish; ta’lim oluvchilarning o‘quv imkoniyatlari hamda tayyorgarlik darajasini hisobga olish; metodni qo‘llashga sarflanadigan vaqtni oqilona taqsimlash asosida ta’lim oluvchilarning samarali o‘quv faoliyatini ta’minlash uchun qulay imkoniyatlarni yaratishga alohida e’tibor qaratadi.

Bunday yondashuv aynan malaka oshirish jarayonlarida xorijiy tilni o‘zlashtirishning metodologik komponenti sifatida aralash ta’lim texnologiyalaridan foydalanib, o‘qitish maqsadlari, mazmuni, shakllari, metodlari, didaktik va texnik vositalarini o‘z ichiga oluvchi malaka oshirish ta’lim jarayonlari samaradorligini sifat va miqdoriy xususiyatlarini tizimiy tashxis qilish imkonini beradi.

Aralash ta’lim tinglovchilarning elektron muhitda ham, auditoriya mashg‘ulotlarida ham bir-biri bilan va o‘qituvchi-tyutor bilan doimiy o‘zaro aloqadorligiga asoslanadi. Shu bilan birga, mustaqil ravishda o‘zlashtirilgan o‘quv materiali kommunikatsion muammolarni hal qilish orqali real kommunikatsion vaziyatlarda qo‘llaniladi, bu esa hozirgi kunda chet tilini o‘qitishning asosiy maqsadi bo‘lgan kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, tadqiqotchi Ye.I. Passov ingliz tilini o‘qitish tamoiyllarining quyidagi ierarxiyasini taklif etadi:

– umumdidaktik tamoyillar;
– umummetodik tamoyillar;
– xususiy-metodik tamoyillar;
– o‘qitishning lokal tamoyillari.

Shunga ko‘ra, mazkur komponentlar o‘z navbatida ingliz tilini o‘qitishning quyidagi tamoyillarini e‘tiborga olishni talab etadi:

– kognitiv (cognitive principles);
– emotsional-psixologik (affective principles);
– lingvistik (linguistic principles);
– faollik (intelektual, emotsional, nutq);
– ko‘rgazmalilik;
– rivojlantiruvchi ta’lim;
– majmuaviylik;
– til o‘rganishda ona tilini e’tiborga olish;
– muloqot muhiti;
– sintetiklik va boshqalar.

Shunday qilib, malaka oshirish kurslarida tinglovchilarning xorijiy til ko‘nikmalarini rivojlantirishda ustuvorlik kasb etuvchi tamoyillarini aniqlash ana shu maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon samaradorligini oshiradi.

Tadqiqotni olib borish davrida tizimlilik, izchillik, kasbiy faoliyatga yo‘nalganlik, kreativlik, integratsiyalashuv, interfaollik, andragogik, ijtimoiy-madaniy ta’sirga egalik

hamda refleksivlik tinglovchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan jarayonda ustuvorlik kasb etuvchi tamoyillar ekanligi aniqlandi. Bu o‘z navbatida muammoning tadqiqiy natijalari shaxsda shakllanishi va rivojlantirilishi zarur bo‘lgan kreativlik sifatlar majmuini belgilash imkonini ham berdi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, kattalar ta’limida til o‘qitishda ta’lim mazmunining sohaga yo‘naltirilmaganligi, zaruriy metodik materiallarning tajribalarga asoslanmaganligi kognitiv sohadagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shu nuqtai-nazardan, xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o‘qitishda ta’lim dasturlari mazmuni zamonaviy yondashuvlar asosida ishlab chiqish masalasi pedagogik tadqiqotlarda muhim metodologik shart-sharoitlardan biri sifatida belgilanadi.

Tadqiqotlarimiz davomida oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish kurslari tarkibidagi "Amaliy xorijiy til" moduli mazmuni va uning dasturiy ta‘minotini tadqiqiot vazifalaridan kelib chiqqan holda takomillashtirishga erishildi.

Ma‘lumki, malaka oshirish kursining maqsadi – ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish asosida ularda ta’lim-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish va boshqarish malakalarini egallashlariga qaratilgan.

Bunda o‘quv dasturining 144 soat hajmi ishdan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirish usullari asosida, 144 soati to‘g‘ridan-to‘g‘ri (bevosita) malaka oshirish shaklida ishdan ajragan holda amalga oshiriladi.

Agar 2018 yildagi ta’lim dasturlari mazmunini tahlil etadigan bo‘lsak, "Amaliy xorijiy til" modulining asosiy mazmuni akademik til ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lsa, tadqiqotlar natijalari asosida yangi ta’lim dasturlari mazmunini akademik va kasbiy til ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda rivojlantirish tamoyili asosida takomillashtirildi.

Malaka oshirish kurslarida aralash ta’lim texnologiyalari vositasida Amaliy xorijiy til modulini o‘qitish mazmuni tinglovchi va pedagoglarning pedagogik jarayondagi rollariga ham ta‘sir ko‘rsatadi. Ya‘ni, bunda tinglovchi – ta’lim oluvchi, pedagog – ta’lim beruvchi rolida emas, aksincha quyidagi pozitsiyalarda harakatlanishni talab etadi, ya’ni:

– pedagog konsultant – o‘quv materialini an’anaviy bayon qilishdan voz kechgan holda, aniq amaliy yo‘naltirilgan o‘quv maqsadlari uchun harakat qilish;

– pedagog moderator – tinglovchilarning yashirin imkoniyatlari va salohiyatini ro‘yobga qicharishga qaratilgan erkin kommunikatsiya, guruhiy munozaralar, kooperatsiyani tatbiq etish;

– pedagog tyutor – tinglovchining o‘quv va o‘z-o‘zini namoyon etish motivlarini rivojlantirishga yordam beruvchi, yo‘naltiruvchi, qo‘llab-quvvatlovchi.

Aralash ta’lim texnologiyalariga asoslangan axborot-ta’lim muhitida tinglovchilarning o‘quv-mustaqil faoliyatini tashkil etishga qaratilgan texnik,

dasturiy va metodik vositalar malaka oshirish kurslarida ingliz tilini o‘qitish samaradarligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Shu sababdan, tadqiqotlarimiz davomida malaka oshirish jarayonlarida aralash ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda ta‘lim sifatini oshirishning quyidagi tamoyillarini ajratib aniqlashtirildi:

1. Ta’lim jarayonini loyihalashtirishda ehtiyojlarga yo‘nalganlik va ustuvorlilik.

2. Arlash ta’lim texnologiyalariga asoslangan ta’lim jarayonlarida tinglovchi va talabalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi ko‘nikma va kompetensiyalarning rivojlanganlik darajasi.

3. Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan aralash ta’lim modellarining (6 ta) ta‘lim sharoiti va maqsadlariga muvofiqligi.

4. Aralash ta’lim modelidagi an’anaviy va elektron ta’lim komponentlari o‘rtasidagi o‘zaroaloqadorlik.

5. Kommunikativlik, moslashuvchanlik, natijadorlik va kreativlik komponentlarini mujassamlashtirgan interaktivlik tamoyili.

Xulosa qilib aytganda, malaka oshirish kurslarida aralash ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ingliz tilini o‘qitish kasbiy tayyorgarlik sifatini oshiradi, o‘qitishning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish va keng joriy etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, pedagog va tinglovchilarning hamkorlikdagi faoliyatini yangi bosqichga olib chiqadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:


1. Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси. https://staff.tiiame.uz/storage/users/416/presentations/3KnUhuudnTmxNJB6b6IW8DmvuQ3LEKr5x1QYUUOa.pdf

2. Малецкая О.П., Селевина И.М. Английский язык. Учебное пособие для СПО. - Издателство: Лан, 2021. - 136 с.

3. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. 2-е изд. - М.: Просвещение, 1991. - 223 с.

4. Фандей В.А. Смешанное обучение: современное состояние и классификация моделей смешанного обучения // Информатизация образования и науки - 2011. - № 4(12). - С. 115-125.

# GERMANIYADA KOMPETENTSIYALI YONDASHUVLARGA ASOSLANGAN INNOVATSIYALARNI TA'LIM JARAYONIGA TATBIQ ETISH VA NATIJALARNI DIAGNOSTIKA QILISH MODELI

***Z.A.XOLMATOVA,***
*Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti*

*Bugungi kunda nemis o'quvchilarining tayanch kompetentsiyalariga erishishi talab qilinadi. Germaniyada kompetentsiyali yondashuvlarga asoslangan innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq qilish va natijalarni diagnostika qilish modeli Germaniya ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga mo'ljallangan.*

***Tayanch so'zlar:*** *Germaniya, kompetentsiyal, yondashuv, innovatsiya, ta'lim, natija, diagnostika, model.*

*Сегодня немецкие студенты должны достичь базовых компетенций. В Германии модель применения инноваций, основанная на компетентностных подходах к образовательному процессу и диагностике результатов, призвана повысить качество и эффективность немецкого образования.*

***Ключевые слова:*** *Германия, компетентность, подход, инновация, образование, результат, диагностика, модель*

*Today, German students must achieve basic competencies. In Germany, a model for applying innovations based on competency-based approaches to the educational process and diagnostic results is designed to improve the quality and effectiveness of German education.*

***Key words:*** *Germany, competence, approach, innovation, education, result, diagnostics, model*

Innovatsion omil zamonaviy ta'lim tizimining bosh xususiyatlaridan biri sifatida qaralar ekan, pedagogikadagi innovatsiyalar pedagog kadrlarning innovatsion faoliyatga tayyorlik va muvofiqlik darajasi, ularning innovatsion bilim, malaka va ko'nikmalarni egallaganligi, kundalik ta'lim tizimida yaratuvchilik xususiyatlari bilan, ta'limdagi sifat va samaradorlik bilan belgilanadi.

Jahon ta'lim jarayonida pedagogik diagnostika metodlaridan foydalanib matematik va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlikni PISA xalqaro baholash dasturi asosida diagnostika va monitoring qilish, rahbar va pedagog kadrlarni CIVIC-fuqarolik e'tiqodi va kasbiy salohiyatni baholash, boshqaruv kadrlarni tayyorlash va kvalimetrik metodlardan foydalanish orqali ularning kompetentsiyasini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu esa yangi texnika va texnologiyalarga tez moslanishga layoqatli kadrlarni tayyorlashda pedagogik

diagnostikadan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari alohida dolzarblik kasb etishini ko‘rsatmoqda.

Germaniyada kompetentsiyali yondashuvlarga asoslangan innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq qilish va natijalarni diagnostika qilish modeli katta qiziqish uyg‘otmoqda. Ta‘limning kompetentsiyali modeli Germaniya ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga mo‘ljallangan. Chunki XX asrning 90 yillariga kelib, Germaniyadagi ta’lim tizimi eskirgan hisoblandi, chunki bozor ehtiyojlari bilan tahsil oluvchining bilimi o‘rtasidagi nomuvofiqlik paydo bo‘lganligi sezildi. Universitetni tugallayotgan yoshlar olgan bilim va ko‘nikmalari zamonadan ortda qolayotganligini ko‘rsata boshladi. Shu sababali bugungi kunda nemis o‘quvchilarining tayanch kompetentsiyalariga grafik redaktorlar bilan ishlash, dasturlashtirish, ma’lumotlarni matematik-statistik tahlil qilish, jadvallarni shakllantirish va ulardan asosiy ma’lumotlarni saralash ko‘nikmalariga ega bo‘lish, logistikaning asoslarini egallash, o‘z va xorij tilidagi ma’lumotlarni o‘qish, tushunish, anglash va interpretatsiya qilish, yozma va og‘zaki tarzda fikrlarni bayon qilish, ish hujjatlarini yurgiza bilish, yig‘ilayotgan ma’lumotlarni tizimlashtira olish kompetentsiyalariga erishish talab qilinadi. Ko‘rib turganimizdek, fundamental bilimlarga tayanadigan an’anaviy ta’lim oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilariga zamonaviy mehnat bozorida raqobatga chidamli bo‘lishga xizmat qilmayotganligi aniqlanmoqda.

XX asrning 80 yillarida Germaniyada "tayanch kompetentsiyalar" atamasi paydo bo‘ldi, ularga shaxsiy kompetentsiyalar bilan birgalikda "mustaqil faoliyat yuritish va mustaqil qaror qabul qilish", "moslashuvchanlik", "hamkorlik qilish qobiliyati", "axloqiylik va ma’naviy yetuklik" kompetentsiyalari kiritildi. 1996 yilda nemis ta’lim tizimi "Harakatlar kompetentsiyalari"ni qabul qildi, unga asosan o‘quv predmetini o‘qitish kompetentsiyaviy yondashuvlar asosida tashkil qilina boshlandi va o‘quv dasturlarida o‘z ifodasini topdi. Nemis ta’lim tizimi raqobatli zamonaviy mehnat bozorida o‘zining kompetentsiyaviy yondashuvlar asosida moslashuvchanligini ko‘rsata oldi. Nemis olimlarining ta’kidlashicha, bugungi zamonaviy ta’lim tizimida kompetentsiyaviy yondashuv asosida oliy ta’lim bitiruvchilarining olgan bilimlari, ko‘nikma va malakalari hamda zamonaviy bozor ehtiyojlari orasida muvofiqlik mavjud emas. Eng asosiysi, nemis ta’lim modelida insonning butun umri davomida bilim egallash kompetentsiyasini shakllantirishga bo‘lgan yondashuv dominantalik qilishi bilan xarakterlanadi. Ushbu ta’limning kompetentsiyali nemis modeli pedagog va sotsiolog olim F.Vaynertning kompetentsiyalar haqidagi g‘oyalari asosida tashkil topgan. Har qanday faoliyatni kompetentli bajarish insondan aynan shu hatti-harakatni qanday va nima uchun

bajarayotganligini tushunish asnosida kechadi. Shu sababali, bugungi kunda o‘quvchilarning kompetentsiyali yondashuvlar asosida ta’lim olishlari ularning axborotlarni saralaash qobiliyatlariga ega bo‘lishlarini, qaror qabul qilishda mustaqilllik hislarining mavjudligi, qabul qilinayotgan axborotni kodlashga o‘rganish, uni ixchamlashtirish kabi ko‘nikmalarni egallash talab etiladi.

Germaniyaning "Ta’limni rivojlantirish yagona rejasi"da shunday deyiladi: "Pedagogik diagnostika tushunchasi pedagogika sohasidagi barcha jarayon va muammolarni yoritilishini, o‘zlashtirishni va o‘quv jarayoni samaradorligini o‘lchashni, ta’lim olish sohasidagi har bir kishining imkoniyatlarini aniqlash choralarini, ayniqsa, maktab ta’limi tizimida xohlagan kasbni va ta’limning uchinchi bosqichini  tanlash choralarini nazarda tutadi". Bu yerda asosiy e’tibor kasb tanlashga yordam berishga qaratilgan [1] .

Nemis olimi M.Mauermanning yozishicha: "Pedagogik diagnostika o‘zlashtirish va o‘quv jarayoniga tayyorgarlik o‘rtasida aloqa o‘rnatadi, o‘quv jarayonida kechadigan o‘quv maqsadini to‘g‘ri belgilaydi va o‘quv-tashkiliy shakllarni sharoitga mosligini baholaydi" [2].

K. Klauer pedagogik diagnostikaga ta’rif bergan bir qator olimlarni tanqid ostiga olib, shunday fikrlarni bildiradi: "Pedagogik diagnostika (tashxislash) vazifalarini birvarakayiga klassifikatsiyalash (turkumlash)ni, bir paytning o‘zida amalga oshirishi mushkul, shu sababli u pedagogik diagnostika atamasining mohiyatini belgilamasligi kerak. Pedagogik diagnostika dolzarb pedagogik qarorlarni,, hukmlarni chiqarishga bo‘lgan urinishlar majmuidan iborat" [3].

Germaniya ta‘lim tizimida pedagogik diagnostika yil yakunlari bo‘yicha o‘qitish sifatini baholashga qaratiladi. Masalan, Germaniya umumiy o‘rta ta‘lim tizimida 12 million o‘quvchilar 50 mingga yaqin o‘rta ta’lim maktablarida tahsil oladilar va boshlang‘ich ta’lim - 4 sinfgacha; ilk o‘rta ta’lim -4 sinfdan 10 sinfgacha; ikkinchi o‘rta ta’lim- 10 sinfdan 13 sinfgacha davom etadi. Boshlang‘ich maktablarni (Grundshule) tugatganlaridan so‘ng o‘quvchilar tahsil olishlarini o‘qish muddati besh yil bo‘lgan asosiy maktablarda -(Nauptshule) va nufuzli maktablar (Realshule, Gimnazium, Gezamtshule)larda davom ettirishlari mumkin. Asosiy maktablarda o‘quvchilar haftasiga 30-33 soat miqdorida dars o‘tishlari ta’minlangan bo‘lib, ushbu maktablarning asosiy maqsadi – o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdan iborat. Ushbu maktablarni bitirgan o‘quvchilar muayyan kasb egalari bo‘lib yetishadilar va mehnat faoliyatini boshlashlari mumkin. Iqtidorli o‘quvchilar esa Realshule, Gimnazium, Gezamtshule, ya’ni nufuzli maktablarda saboq olishni davom

ettirishadi va oliy o‘quv muassasalariga kirishga tayyorlanishadi. Bunda o‘qitish sifatini ta‘minlashda ta’lim mazmuni birinchi darajali mohiyat kasb etadi. Uning ko‘satkichlari sifatida quyidagilarni e’tirof etish mumkin:

– o‘rta maxsus va boshlang‘ich professional ta’lim muassasasida amal qilinayotgan moderniztsiyalashtirilgan ta’lim dasturlarining samaradorligi;

– tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar va pedagogik texnologiyalarning qulayligi, ularning davlat talablari va o‘quv dasturlariga muvofiqligi;

– ta’lim dasturlarini yaxshilash va takomillashtirishga yo‘naltirilgan tadbirlarning samaradorligi;

– Davlat talablari, o‘quv dasturlari hamda o‘quv-metodik majmualarda ta’lim bosqichlariaro uzviylik va uzluksizlikning ta’minlanganligi hamda amaliy mashg‘ulotlarning sifat darajasining yuqoriligi;

– o‘quv rejasida ta’lim sohalari va o‘quv predmetlarining uyg‘un tarzda ifodalanganligi;

– o‘qituvchi hamda o‘quvchilarning o‘quv rejasidan qoniqishlari;

– o‘quv dasturlarida uzviylikning ta’minlanganligi, mavzularning amaliyotga tatbiq etish uchun qulayligi, tarkibining uyg‘unlashganligi;

– tabaqalashtirilgan ta’limni amalga oshirishga yo‘naltirilgan harakatlarning takomillashganligi, o‘quv jarayonini chuqurlashtirish va ixtisoslashtirishning amalga oshirilganligi kabilar.

Xulosa o‘rnida, Germaniya ta’lim tizimidagi ta’lim sifatida o‘quv dasturlarining modernizatsiyalashtirilganligi, zamonaviy bilimlarning ifodalanganligi, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilganligining ta’minlanganligi, sinovdan o‘tganligi va o‘quvchilarning o‘zlashtirishlari uchun qulayligi ham inobatga olinishi lozim. Shu bilan birga umumiy o‘rta ta’lim tizimida yangi mazmundagi tarbiyaviy jarayonlarning sifatini aniqlash ham talab etiladi. Bunda tarbiyaviy jarayonlarning sifatini quyidagi ko‘rsatkichlar yordamida belgilash mumkin:

– individual-shaxsiy va insoniy yo‘nalganlik;

– tashabbuskorlik;

– izchillik va muntazamlilik;

– tashkiliy shakllarni takomillashtirish va moslashtirish;

– o‘rta maxsus va boshlang‘ich professional ta’lim muassasasidagi tarbiyaviy ishlar moddiy-texnik asosining to‘liqligi; jumladan: tarbiyaning mujassamlashgan rejasi, eslatmalar, kodekslar, xulq-atvor qoidalari, ijodiy tanlovlarning Nizomlari mavjudligi;

– tarbiyaviy ishlarni boshqarishning takomillashtirilganligi;
– tarbiyaviy ishlarning rejalashtirilganligi;
– tarbiyaviy ishlarni hisobga olish va nazorat qilish mexanizmining mavjudligi;
– tarbiyaviy ishlarning borishi va maromi tahlil qilinishi;
– o‘rta maxsus va boshlang‘ich professional ta’lim muassasasidagi tarbiyaviy ishlarning izchilligi va muntazamliligi;
– o‘rta maxsus va boshlang‘ich professional ta’lim muassasasida o‘quvchilar shaxsini tarbiyalashning barcha turlariga e’tibor qaratilganligi, chunonchi, ma’naviy, axloqiy, jismoniy, estetik, ekologik va h.k.
– o‘quvchilarga ta’lim-tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishning barcha imkoniyatlaridan foydalanish tajribasining mavjudligi;
– o‘quvchilarga yakka va umumiy tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish shakllaridan foydalanilishi;
– o‘rta maxsus va boshlang‘ich professional ta’lim muassasasidagi tarbiyaviy ishlarda maktab rahbariyati, ota-onalar, mahalla faollari, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari va boshqa jamoatchilik vakillarining ishtirok etishlari;
– o‘rta maxsus va boshlang‘ich professional ta’lim muassasasida qonuniylik, tartiblilik, intizom, ish tartibi, sog‘lom turmush tarzi talabalariga sifatli rioya qilinishi;
– tarbiyaviy ish shakllarining turli-tumanligi, jamiyatning zamonaviy talablariga, milliy mentalitet va milliy g‘oya tamoyillari, o‘quvchilarning ehtiyojlariga mosligi kabilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sarah Howe, Sylvia ACANA, Jean Dumais, Hugh Gough, Chris Freeman and Cate O‘Malley. Volume 3: Implementation of the National Assessment of Educational Achievement. 2009.371 r.
2. Vincent Greney, Thomas Kellaghan. Assessing National Achievement Levels in Education. The World Bank. 2008. Washington. 263 p.
3. W.John Morgan. Rethinking Education: Towards a good common good. Published by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. Paris. France. 2015. - 81 p.

*Jurnalning ushbu sonini*
*tayyorlashda qatnashganlar:*
*L.Qaraxanova, S.Pirmatov.*

*O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligidan*
*03.01.2007 yilda № 0101 tartib raqami bilan*
*ro‘yxatdan o‘tgan.*

*«Uzluksiz ta’lim» jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK rayosatining 2013 yil 30 dekabrdagi 201/3-sonli qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha ilmiy jurnallar ro‘yxatiga kiritilgan.*

*Jurnal talablariga to‘liq rioya qilingan holda 1,5 intervaldagi 6-7 bet hajmdagi ilmiy maqolalar elektron versiyasi bilan birga qabul qilinadi.*

Bosishga ruxsat etildi: 15.08.2022 y. Qog‘oz bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$
Ofset bosma usulida bosildi. 8-bosma taboq.
Adadi 120 nusxa. Buyurtma

**«ADAD PLYUS» MCHJ matbaa korxonasi.**
**Toshkent sh., Chilonzor t. Bunyodkor ko‘chasi, 28-uy.**